

ILXAMOV SH.I.

**AUDIT FANIDAN
MASALALAR TO‘PLAMI**

TOSHKENT- 2019

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ILXAMOV SH.I.

**AUDIT FANIDAN
MASALALAR TO'PLAMI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019 yil 20 iyuldagи 654-sonli buyrug'iiga asosan 5230600 – "Moliya", 5230700 – "Bank ishi", 5230800 – "Soliqlar va soliqqa tortish", 5230900 – "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT- 2019

UO‘K
KVK

© Ilxamov SH.I. Audit fanidan masalalar to‘plami. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi - T.: 2019. - 235 bet.
ISBN:

Ushbu o‘quv qo‘llanmaga «Iqtisodiy tahlil va audit» kafedrasи tomonidan barcha bakalavriat yo‘nalishlarida o‘qitiladigan «Audit», “Iqtisodiy tahlil va audit” fanlaridan masalalar, munozara uchun savollar va atamalar to‘plamlari kiritilgan. To‘plamga kiritilgan masalalar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi.

Taqrizchilar: i.f.d., dots. Axmedjonov K.B.

i.f.n., dots. Fayziev SH.N.

KIRISH

«Audit» fanidan masalalar to‘plami namunaviy dastur asosida bakalavriat yo‘nalishining 5230900 “Buxgalteriya hisobi va audit”, 5230800 “Bank ishi”, 5230700 “Soliqlar va soliqqa tortish” va boshqa yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan. Mazkur masalalar to‘plami 21-son buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS)ga binoan yangi schyotlar rejasи va auditorlik faoliyatning milliy standartlari (AFMS)ga asoslanib tayyorlangan.

To‘plam yigirma bitta mavzudan iborat bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga qamrab olib, har bir mavzu uchun turli holatlarga oid masalalar va nazorat savollaridan iboratdir. Bu o‘z navbatida darslarni seminar va amaliy mashg‘ulot sifatida o‘tishga imkoniyat yaratadi.

Masalalar to‘plamining mavzulari auditni tashkil etish jarayoni, auditorning huquq va majburiyatlari, auditorning ahloqiy qoida me’yori hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini haqqoniyligini aniqlash maqsadida hisob ishlarining barcha bo‘limlarini tekshirish masalalarini o‘z ichiga olgan. Auditning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha maqsadi va vazifalari aniqlangan. Har bir bo‘limni bajarilishi bo‘yicha topshiriqlar va ko‘rsatmalar berilgan. Bularni o‘rganilishi o‘z navbatida auditorlik jarayonining ketma-ketlikda bajariladigan ishlarini, ya’ni uni rejorashtirishdan toki auditorlik hisobot tuzish va auditorlik xulosani rasmiylashtirishgacha bo‘lgan auditorlik amallarini bajarishga yordam beradi. Bundan tashqari, auditorning tekshiruv o‘tkazish texnikasi va usuli bo‘yicha olgan bilimlarini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Bu to‘plam orqali talabalar o‘z-o‘zini mustaqil nazorat qilishi va bilimlarini joriy nazoratdan o‘tkazishda foydalanimishlari mumkin.

SHuningdek, mazkur masalalar to‘plamida korxonaning moliyaviy hisoboti, auditorning hisoboti va xulosasidan namunalar va tegishli ilovalar keltirilgan.

1-MAVZU: AUDITNING MOHIYATI, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Audit, tadbirkorlik faoliyati, mustaqil nazorat, moliyaviy hisobot, xo'jalik yurituvchi sub'ekt, auditning ob'ekti va sub'ekti, auditning predmeti, auditorlik tekshiruvining usullari, xo'jalik faoliyatining tahlili, inventarizatsiya, hujjatli tekshirish, tahliliy amallar, kuzatish, so'rovnama o'tkazish, kalkulyatsiya, baholash, taqqoslash, skanerlash, tanlash, xo'jalik shartnomalari, moliyaviy majburiyat va moliyaviy talablar, auditorlik xizmati, moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha tamoyillar, taftish, ixtiyoriy va majburiy audit, tashqi audit, ichki audit, auditorlik xizmatlari bozori.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Audit deganda nimani tushunasiz?
2. Audit dastlab qachon va qaerda paydo bo'lgan? O'zbekistonda qachondan boshlab faoliyat yuritilmoqda, bunga sabab nima bo'lgan?
3. Auditning ahamiyati nimada?
4. Auditning oldiga qanday maqsad va vazifalar qo'yilgan?
5. Auditning turlari, xillari va shakllarini aytib bering.
6. Auditning taftishdan farqi nimada?
7. Auditning iqtisodiy tahlil fanidan qanday farqli va unga o'xshash tomonlari mavjud?
8. Agar korxonalarda ichki audit xizmati mavjud bo'lsa, audit kerakmi?
9. Ichki audit bo'limini ishini samarali deb hisoblash mumkinmi, agar u bo'lim bosh buxgalterga bo'ysunsa?
10. Agar audit nazoratni samarali shakli bo'lsa, barcha korxonalarda uni o'tkazish majburiyatini olishi lozimmi?
11. Nima sababdan auditorlik tashkiloti aksionerlik jamiyati sifatida tashkil etilishi mumkin emas?
12. Agar auditorlik faoliyati bekor qilinsa mamlakatda nima sodir bo'ladi?

13. Auditorlik faoliyatining predmeti deganda nimani tushunasiz?
 14. Auditda qanday tekshiruv metodlaridan foydalaniladi?
 15. Auditorlik faoliyatining asosiy printsiplari nimalar?
 16. Audit moliyaviy nazoratning boshqa shakllaridan qanday farq qiladi?
 17. Auditning ob'ekti nima, sub'ektlari kimlar?
 18. Qanday audit majburiy audit hisoblanadi?
 19. Qanday audit tashabbusli audit hisoblanadi?
 20. Audit fanining iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligi?
 21. «Audit» fanining predmetining mohiyati nimalarda aks etadi?
 22. «Audit» fanining ob'ektini qanday izohlaysiz?
 23. «Audit» fanining qanday metodlari mavjud?
 24. «Audit» fanida qanday xususiy usullar qo'llaniladi?
 25. «Audit» fanining «Moliyaviy hisob» fani bilan qanday o'zaro bog'liqligi mavjud?
26. «Audit» fanining «Boshqaruvin hisobi» fani bilan qanday o'zaro bog'liqligi mavjud?
 27. «Audit» fanining «Soliqlar va soliqqa tortish» fanlari bilan qanday o'zaro bog'liqligi mavjud?
 28. Tekshiruvda isbot va dalillar olishning necha xil usullarini bilasiz, ularni sanang?
 29. Ichki audit xizmati samarali ishlayotgan bo'lsa, ochiq aksionerlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish lozimmi?
 30. Qaysi nuqtai nazar aksioner uchun to'g'riroq: nazorat shaklini ixtiyoriy tanlash xuquqiga egaligi, yoki bu xuquqdan maxrumligimi.
 31. Audit nazariyasi auditorlik tekshiruvi o'tkazishga tayyorlanishda qanday ta'sir ko'rsatadi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati.
3. Auditning maqsad va vazifalari.

4. Audit va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqlar.
5. Audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud.
6. «Audit» fanining predmeti va ob'ekti.
7. Maqsadli sistemali audit.
8. Tavakkalchilikka asoslangan audit.
9. “Audit” fanining metodi.
10. “Audit” fanining “Moliyaviy hisob”, “Boshqaruv hisobi”, “Huquqshunoslik” fanlari bilan o'zaro bog'liqligi.
11. «Audit» fanida xususiy usullarning qo'llanilishi:
 - xo'jalik faoliyatining tahlili va inventarizatsiya usuli;
 - hujjatli tekshirish va tahliliy amallar usuli;
 - kuzatish va so'rovnama o'tkazish usuli;
 - kalkulyatsiya va baholash hamda taqqoslash usuli;
 - skanerlash va tanlash, hamda xo'jalik shartnomalari usuli;

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. «Fayz» MCHJning 2018 yil mahsulot (ish, xizmat) larni realizatsiya qilishdan tushumi 44716 ming so‘mni tashkil etgan. 2019 yil 1 yanvar holatiga aktivlarining balans qiymati 14740 ming so‘mni tashkil etgan. 2019 yilda xodimlarning o‘rtacha soni 102 kishini tashkil etgan.

Talab etiladi. «Fayz» MCHJning 2018 yil uchun moliyaviy hisoboti majburiy auditorlik tekshiruviga tortilishi kerak-mi? yoki majbur emasligini aniqlash.

2-masala. 2019 yilda «SHaxzod» MCHJ aksiyadorlik jamiyati sifatida ro‘yxatdan o‘tgan. Realizatsiya hajmi 58161 ming so‘mni tashkil etgan. 2019 yil 31 dekabr holatiga aktivlarining balans qiymati 21115 ming so‘mni, xodimlarning o‘rtacha yillik soni 97 nafarni tashkil etgan.

Talab etiladi. «SHaxzod» AJning 2019 yil uchun moliyaviy hisobotlari majburiy auditorlik tekshiruviga tortilishi kerakligini aniqlash.

3-masala. «Zarina» MCHJ 2018 yil uchun analitik hisobni tiklash bo‘yicha xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha shartnomा tuzish taklifi bilan 2018 yilning dekabrida “Alfa-audit” auditorlik tashkilotiga murojaat qildi. SHartnomा tuzilib, xizmatlar ko‘rsatilib, 2018 yilning dekabrida xizmatga haq to‘langan edi. 2019 yilning fevralida MCHJ 2018 yil uchun moliyaviy hisobotni tasdiqlash xizmatlarini ko‘rsatish uchun shartnomা tuzish taklifi bilan yana “Alfa-audit” auditorlik tashkilotiga murojaat qildi.

Talab etiladi: 1) berilgan taklifni auditorlik tashkiloti taklif qilish yoki qilmasligini aniqlash; 2) auditorlik tashkiloti «Zarina» MCHJning 2018 yil moliyaviy hisobotini tasdiqlash bo‘yicha xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnomা tuzishi mumkinmi.

4-masala. «A» xususiy firmasi 201X yildan boshlab aksiyadorlik jamiyatni bo‘lib qayta ro‘yxatdan o‘tdi. 201X yilda jamiyatning bajarilgan ishlari xajmi 2500 mln so‘mni yillik ish haqi fondi 500,0 mln. so‘mni va jami byudjetga to‘lovlar 300,0 mln so‘mni tashkil etdi.

Topshiriq: 201X yil uchun yillik hisobot auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilishi shartmi?

5-masala. «SOLIHA» qo‘shma korxonasi 2018 yilning oktyabr oyida «Inter-audit» auditorlik tashkilotiga analitik hisobni tiklab berish yuzasidan murojaat qildi. SHartnomা asosida xizmat ko‘rsatilib, pul to‘landi. 2019 yilning mart oyiga kelib «SOLIHA» qo‘shma korxonasi xuddi shu auditorlik tashkilotiga 2018 yil uchun yillik hisobotni tasdiqlab berish yuzasidan qayta murojat qildi.

Topshiriq: Auditorlik tashkiloti ushbu taklifni qabul qila oladimi?

6-masala. Auditorlik tashkiloti «Ahil» va «Baxt» firmalaridan auditorlik tekshiruvini o‘tkazib berish yuzasidan taklif oldi.

«Ahil» firmasi besh yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lib, majburiy auditorlik tekshiruviga tortilmaydi. Soliq inspeksiyasi tomonidan o‘tkazilgan

hujjatli tekshiruv vaqtida «Ahil» firmasiga katta miqdorda jarima sanksiyasi qo‘yilgan. Agarda firma ushbu jarimani to‘lasa, uning moliyaviy barqarorligi yo‘qoladi. SHu sababli firma auditorlik tashkilotiga ushbu moliyaviy jarimani kamaytirib berish uchun tekshiruv o‘tkazib berish taklifi bilan chiqdi va auditorlik tashkilotiga ushbu xizmat uchun 5,0 million so‘m to‘lashini ma’lum qildi.

«Baxt» firmasi majburiy auditorlik tekshiruviga tortiluvchi tashkilot hisoblanadi. Faoliyatining uchinchi yilda firma auditorlik tashkilotini o‘zgartirib, yuqoridaqgi auditorlik tashkilotiga murojaat qildi. «B» firmasi auditorlik tekshiruvi uchun 4,8 million so‘m to‘lab berishini ma’lum qildi.

Auditorlik tashkilotida xodimlar soni cheklangan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ikkala taklifni qabul qila olmaydi. Ikkala taklifni qabul qilishi uchun chetdan xodimlar jalb qilishi kerak bo‘ladi.

Topshiriq: Auditorlik tashkiloti ikkala taklifni qabul qila oladimi? Agar bitta bo‘lsa qaysi taklifni qabul qilishi kerak?

7-masala. Yillik hisobotni tekshirish jarayonida auditor buyurtmachi tomonidan raqobatbardosh korxona sotib olinayotganligini aniqladi. Agar bu ma’lumotlar ma’lum bo‘lsa, raqobatbardosh korxona aksiyalari kursi oshadi. Auditor vositachi tomonidan korxona aksiyalarini sotib olishga qarshi emas va shu tarzda u ko‘proq foyda olish imkoniyatini qidirmoqda.

Topshiriq: Bunday holatda u o‘zining professionallik majburiyatini buzmayaptimi? Agar professionallik majburiyatlariga rioya qilmaslik holatlari aniqlansa, unda auditorga qanday qonuniy choralar belgilangan?

8-masala. Bir necha hafta mobaynida tadbirkor Fayzullaxon va auditor viloyatlar bo‘ylab sayohat qilmoqda. Tadbirkor Fayzullaxon sayohati davomida turli xil korxonalarda hissa qo‘shish imkoniyatini qidirmoqda. Auditor tadbirkorga kapital qo‘yish borasida maslahatlar berishi hamda tadbirkor bilan sherikchilik asosida tashkil qilingan korxonaning yillik hisobotini tekshiruvdan o‘tkazishi zarur.

Topshiriq: Yillik hisobotni tekshirayotganda auditorlarning mustaqillik tamoyilidan kelib chiqqan holda auditorga ham maslahatchi ham auditor deb baho berish mumkinmi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Auditorlik faoliyati deganda nima tushuniladi?

- A. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati
- B. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishi
- C. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati
- D. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va moliyaviy hisobotga xulosa berishi, natijalarni yuqori tashkilotga taqdim qilishiga doir faoliyati
- E. To'g'ri javob mavjud emas

2. Auditorlik xizmatlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

- A. Axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir.
- B. Axborotdan foydalanuvchilarga ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlashga yordam beradi
- C. Iqtisodiy axborotlarni haqqoniyligini tasdiqlash
- D. Inqirozga tushmaslik uchun qarorlarning qabul qilinishini nazorat qilish
- E. To'g'ri javob B, C, D

3. Qaysi turdag'i tashkilotlarga auditorlik faoliyatini amalga oshirish taqiqilanadi?

- A. MCHJ ko'rinishidagi auditorlik tashkilotlariga
- B. Yopiq turdag'i aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi auditorlik tashkilotlariga
- C. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga
- D. A va B

E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Qaysi javobda auditorlik tashkilotiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A. Auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.
- B. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish malaka sertifikatiga ega bo'lган yuridik shaxsdir.
- C. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lган yuridik shaxsdir.
- D. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish patentiga ega bo'lган yuridik shaxsdir.
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. Germaniyada auditorlik kasbi nima deb nomlangan?

- A. Jamoatchi-buxgalter
- B. Buxgalter ekspert
- C. Schyotlar buyicha komissar
- D. Xo'jalik nazoratchisi
- E. B va C javoblar to'g'ri.

6. Hisob registrlari va hujjatlar tekshirilishi auditorlik faoliyatining qaysi turiga tegishli?

- A. Tasdiqlovchi audit
- B. Maqsadli sistemali audit
- C. Tavakkalchilikka asoslangan audit
- D. Tekshiruvchi va nazorat qiluvchi audit
- E. C va D javoblari to'g'ri

7. Auditorlar qachon ichki nazorat orqali ekspertiza o'tkaza boshlashdi?

- A. Tavakkalchilikka asoslangan audit shakllanishi bilan
- B. Maqsadli sistemali audit shakllanish bilan
- C. Tasdiqlovchi audit shakllanishi bilan

D. Bosh auditorlik apparati shakllanishi bilan

E. A, D javob to'g'ri

8. Audit va buxgalteriya hisobi o'rtaqidagi asosiy farq nimada namoyon bo'ladi?

A. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi korxonada sodir etilgan xo'jalik operatsiyalarini faqatgina korxona rahbariyati talab qilgandagina hisobga olishi va tekshirishida namoyon bo'ladi

B. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi korxonada sodir etilgan va hisobga olingan barcha xo'jalik operatsiyalarini mustaqil shaxs hisoblangan auditor tomonidan tekshirishida namoyon bo'ladi

C. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi mustaqil shaxs hisoblangan auditor yoki korxona xodimlari tomonidan korxonada sodir etilgan va hisobga olingan barcha xo'jalik operatsiyalarini hamda moliyaviy hisobotlarini qonunchilikka muvofiq va axborotlar ishonchli ekanligini tekshirib, yakunda ular bo'yicha xolisona xulosa berishda namoyon bo'ladi

D. Audit bilan buxgalteriyasi o'rtaSIDA farq mavjud emas

E. To'g'ri javob mavjud emas

9. Auditning yuzaga kelish shart-sharoitlari nimalarda namoyon bo'ladi?

A. Axborot etkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aktsiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi

B. Noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorla-rining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi

C. Korxonalarning soni juda ham ko'payib ketishi natijasida ularni nazorat qiluvchi organlar sonini ham oshirish sharoitining vujudga kelish natijasida

D. A va B

E. A va C

10. Nazorat taftish bo'linmalarining asosiy funktsiyasi nimadan iborat?

- A. Davlat byudjeti daromadlar qismining to'ldirilishini nazorat qiladi
- B. Byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini nazorat qiladi
- C. Korxonalarни moliya-xo'jalik faoliyatiga baho berish va nazorat qilish
- D. A va B
- E. B va C

2-MAVZU: AUDITORLIK FAOLIYATINING PREDMETI VA METODI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Auditning ob'ekti va sub'ekti, auditning predmeti, auditorlik tekshiruvining usullari, xo'jalik faoliyatining tahlili, inventarizatsiya, hujjatli tekshirish, tahliliy amallar, kuzatish, so'rovnama o'tkazish, kalkulyasiya, baholash, taqqoslash, skanerlash, tanlash, xo'jalik shartnomalari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Auditorlik faoliyatining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Auditda qanday tekshiruv metodlaridan foydalilanadi?
3. Tekshiruvda isbot va dalillar olishning necha xil usullarini bilasiz, ularni sanang?
4. Auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari nimalar?
5. Audit moliyaviy nazoratning boshqa shakllaridan qanday farq qiladi?
6. Auditning ob'ekti nima, sub'ektlari kimlar?
7. Qanday audit majburiy audit hisoblanadi?
8. Qanday audit tashabbusli audit hisoblanadi?
9. Ichki audit nima?
10. Tashqi audit nima?
11. Auditorlik faoliyati ob'ektlari klassifikatsiyalari?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. “Ishonch-audit” auditorlik tashkiloti «Mubina» AJning 2019 yil uchun moliyaviy hisobotini tekshiruvdan o'tkazyapti.

Auditorlik tashkiloti “majburiyat-xati” ni tayyorlashi va ushbu xatni yozayotganda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak:

- 1) xat “Mubina” AJning Kuzatuv Kengashiga yuborilyapti;
- 2) auditorlik tashkiloti AJning aksionerlari yig‘ilishida tasdiqlanyapti, bu haqda mijozdan xat olingan;
- 3) majburiyat-xatida buxgalteriya hisobi va auditga doir amal qilayotgan qonunchilikka yo‘llanma berish kerak;
- 4) mijoz bilan og‘zaki kelishilganlikning mavjudligi:
 - mijozga auditning kalendar rejasini taqdim etish haqida;
 - faqatgina buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni emas, balki soliq hisobotlarini haqqoniyligini tekshirish haqida;
- 5) xat mijozga 2019 yilning fevralida yuborilyapti;
- 6) auditni 2019 yil 1 aprelgacha tugatish rejalashtirilyapti.

Talab etiladi. «Mubina» AJning 2019 yil uchun moliyaviy hisoboti auditini o‘tkazishga rozilik beruvchi auditorlik tashkilotining majburiyat-xati matnini tayyorlash.

2-masala. Ko‘p yillik xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzgan auditor, o‘tgan yili o‘tkazgan tekshiruvi uchun haq olmadi. Auditor agar ko‘rsatgan xizmati uchun haq olmasa, joriy yilning moliyaviy hisobotini tekshirishni boshlamaslik haqida shart qo‘ydi. Mijoz bu yilning natijalari kritik ahamiyatga ega, chunki xulosaning o‘z vaqtida olmaslik yoki shartsiz bo‘lmagan xulosani olish hollarida MCHJ qo‘shimcha moliyalashtirishni ololmasligi mumkin, bu yil uchun tekshiruvni amalga oshirganidan keyin auditor ikki yil uchun hamma haqni oladi deb javob berdi.

Talab etiladi. Agar auditor shu shartlar bilan tekshiruvni amalga oshirishni qaror qilsa uning oldida mustaqillikning qanday turdagि muammosi paydo bo‘lishini aniqlang.

3-masala. Mijoz keyingi yilgi tekshiruv uchun zarur bo‘ladigan xujjatlarni oldindan tayyorlab qo‘yish uchun (vaqt va mablag‘ni tejash maqsadida) unga auditorning ishchi xujjatlarini nusxa qilib berishni so‘radi.

Talab etiladi. Mustaqillik nuqtai nazaridan qanday muammo kelib chiqishini aniqlang. Bunday taklifga auditor qanday aks javob qaytarishi kerak?

4-masala. Majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tadigan aksiyadorlik jamiyatni auditorlik tashkilotiga ushbu yilda o‘tkaziladigan tekshiruvning ob’ekti qilib, ular uchun yangi soha bo‘lgan eksport-import operatsiyalarini olishni taklif qildi.

Topshiriq: Majburiy auditorlik tekshiruvi bo‘yicha shartnomani ob’ekti bo‘lib faqatgina eksport-import operatsiyalarini bo‘lishi mumkinmi?

5-masala. Korxonada rejaga muvofiq, 2018 yil mart oyida asosiy vositalar inventarizatsiyasi o‘tkazilgan. Ushbu inventarizatsiya natijasi bilan 2019 yil 1 yanvar holatiga bo‘lgan asosiy vositalar mavjudligi haqida xulosa berib bo‘ladimi?

Topshiriq: Ushbu holatda auditor yana qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?

6-masala. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonadan Siz faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotiga audit o‘tkazish yuzasidan taklif tushdi. Sizning turmush o‘rtog‘ingiz bu korxonada bo‘lim boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritadi.

Topshiriq. Sizning auditorlik tashkilotingiz bu taklifni qabul qila oladimi?

7-masala. Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilganligi, auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning amal qilishini belgilangan tartibda tugatishga sabab bo‘la oladimi?

8-masala. Auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o‘tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi hamda boshqa hatti-harakatlari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar etkazganligi uchun unga qonun hujjalariiga muvofiq qanday jazo qo‘llaniladi?

3-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Auditorlik faoliyatining me’yoriy huquqiy asoslari, auditorlik faoliyatini litsenziyalash, malaka sertifikati, auditorlarni attestatsiyadan o‘tkazish, audit standartlari, ichki standartlari, auditor etikasi, auditor va auditorlik tashkilotlarining mustaqilligi, auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy tizimi va uning qanday elementlarini bilasiz?
2. Auditorlik faoliyatning huquqiy asoslari qanday me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
3. O‘zbekistonda qanday auditorlik standartlari mavjud?
4. Auditor standartlari qanday klassifikatsiyalanadi?
5. Auditor tushunchasini izohlab bering?
6. Audit xarajatlari amaldagi Qonunlarga muvofiq qaysi manbalar hisobiga qoplanadi?
7. Audit o‘tkazishga qaysi mutaxassis auditor bo‘lishga huquqli bo‘ladi?
8. Auditorlik faoliyati qanday organ tomonidan tekshiriladi?
9. Auditorlik Palatasining funksiyalari nima?
10. Auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun attestatsiya qilish qanday amalga oshiriladi?
11. Auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya (malakaviy sertifikat) qaysi organ tomonidan beriladi?
12. Auditorlik tashkilotlarining litsenziyalari yoki auditorning malakaviy sertifikatlari qanday holatlarda kim tomonidan bekor qilinishi mumkin?
13. Auditorlik tashkiloti faoliyatini tugatish yoki to‘xtatish to‘g‘risida da’vo bilan xo‘jalik sudiga kim murojaat qilish huquqiga ega?

14. Litsenziyasiz auditorlik faoliyatini amalga oshirganligi uchun unga qarshi qanday tartibda sanksiya qo'llanilishi mumkin?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil etishning me'yoriy tizimi va uning elementlari.
2. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning mohiyati va uning ahamiyati.
3. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlarining milliy assotsiatsiyasi (O'BAMA) va uning faoliyat yo'nalishlari.
4. O'zbekiston Auditorlar Palatasi (O'AP) va uning faoliyati.
5. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari.
6. Auditorlik tashkilotining huquqlari.
7. Auditorlik tashkilotining majburiyatları.
8. Auditorlik tashkilotining javobgarligi.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala Siz “Komil” MCHJning auditorisiz. Sizning auditorlik tashkilotingiz boshqa ofisga ko'chib o'tmoqchi. “Komil” MCHJ Sizga o'zi mulkdori hisoblangan binoda juda qulay joy taklif qilyapti.

Talab etiladi. Bu taklif yuzasidan qanday muammolar kelib chiqishini aniqlash.

2-masala. “Karim” MCHJ kompyuterlashtirilgan hisob shakliga o'tishni tashkillashtirib berish xizmati bilan auditorlik tashkilotiga murojaat etdi.

Auditorlik tashkiloti “Karim” MCHJning moliyaviy hisobotlarini birinchi yil tekshirmaganligi uchun bu MCHJning moliyaviy va boshqaruv hisobini tashkil etish xususiyatlarini, hisob ishlarining muammolarini yaxshi biladi va kompyuterlashtirilgan hisobni joriy etishning asosiy masalalarni aniq ko'rsatib bera oladi.

Talab etiladi. MCHJning moliyaviy hisoboti holati to‘g‘risida fikr bildirishda bu xizmat turi auditorning mustaqilligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aniqlang.

3-masala. Bir necha xafta mobaynida tadbirkor Zarina va auditor viloyatlar bo‘ylab sayohat qilmoqda. Tadbirkor Zarina sayohati davomida turli xil korxonalarda hissa qo‘sish imkoniyatini qidirmoqda. Auditor tadbirkorga kapital qo‘yish borasida maslahatlar berishi hamda tadbirkor bilan sherikchilik asosida tashkil qilingan korxonaning yillik hisobotini tekshiruvdan o‘tkazishi zarur.

Topshiriq: Yillik hisobotni tekshirayotganda auditorlarning mustaqillik tamoyilidan kelib chiqqan holda auditorga ham maslahatchi ham auditor deb baho berish mumkinmi? Holatlarni tahlil qiling.

4-masala. “Mubina” firmasi 201X yilning mart oyida ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish maqsadida kredit olish uchun bankka murojaat qildi. Bank firmadan 201X yil yillik hisobotini ishonchlilagini tasdiqlab beradigan auditorlik xulosasini so‘radi. «Mubina» firmasi majburiy auditorlik tekshiruviga tortiladigan korxonalar turkumiga kirmaganligi sababli auditorlik tekshiruvini o‘tkazmagan edi. Lekin 201X yilning noyabr oyida soliq inspeksiyasi tomonidan hujjatli tekshiruv o‘tkazilgan bo‘lib, firma bankka ushbu tekshiruv dalolatnomasini taqdim etdi.

Topshiriq: Bank ushbu tekshiruv dalolatnomasini auditorlik xulosasi sifatida qabul qilishga haqlimi?

5-masala. Auditorlik tashkilotida mijoz korxonaning quyidagi buxgalteriya hisobi hujjatlari va moliyaviy hisoboti mavjud:

Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, pul mablag‘larining harakati va xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotlar, balansga tushuntirish xati, biznes reja, buyruq va xo‘jalik shartnomalari, korxonaning shtat jadvali, hujjat aylanish grafigi, o‘tgan yilgi auditorlik tekshiruvi xulosasi.

Topshiriq: Auditor rejalashtirish jarayonida mijoz haqidagi yana qaysi hujjatlarni to‘plashi kerak va tekshirish o‘tkazishning qaysi usullaridan foydalanishni rejalashtirishini aniqlang.

6-masala. Audit jarayonida korxonaning soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblarini O‘zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligiga asosan tekshirildi va soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblarda hech qanday xato va kamchiliklar aniqlanmaganligini ma’lum qildi. Oradan uch oy o‘tgandan keyin soliq inspeksiyasi tomonidan tekshirish o‘tkazilib, soliq hisob-kitoblari bo‘yicha bir qancha kamchiliklarni aniqladi. SHundan keyin, korxona hisoblangan soliqlardagi kamchiliklari uchun jarima to‘lashi zarur bo‘ldi. Mijoz qonuniy asosda auditorlik tashkilotiga murojaat qilib, nima sababdan bu xato va kamchiliklar tekshirish paytida aniqlanmaganligini so‘radi.

Topshiriq. Bunday holatda jarimani Davlat Soliq inspeksiyasiga kim to‘laydi?

7-masala. Zargarlik buyumlari ishlab chiqaradigan zavod boshqa bir auditorlik tashkiloti bilan oldindan tuzilgan shartnomani buzib, sizning auditorlik tashkilotingiz bilan shartnoma tuzmoqchi.

Topshiriq. Bu holatda sizning auditorlik tashkilotingiz bunday taklifni qabul qilishi mumkinmi?

8-masala. Tijorat bankini auditdan o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotiga taklif tushdi. Ammo auditorlik tashkilotida bank ishini biladigan mutaxassis yo‘q.

Topshiriq. Bunday holatda auditorlik tashkiloti taklifni qabul qila oladimi?

9-masala. “Diyora” MCHJning ta’sischilaridan biri egallab turgan bosh rahbar lavozimidan chetlashtirilganligini asoslash uchun buxgalteriya hisobining to‘g‘ri tashkil etilganligini tekshirish xizmatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuzishni talab qilyapti. Xizmat uchun to‘lov hajmini ta’sischi qo‘ylgan maqsadga etishish darajasiga qarab aniqlashni taklif qilyapti.

Talab etiladi. Auditorlik tashkilotining harakatini belgilang.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Majburiy audit to'g'risidagi Qonun dastlab qaysi mamlakatda qabul qilingan?

- A. Frantsiya
- B. Germaniya
- C. Angliya
- D. AQSH
- E. Gollandiya

2. Auditning dastlabki rivojlanish bosqichi?

- A.Tizimli audit
- B.Tasdiqlovchi audit
- C.Tavakkalchilikka asoslangan audit
- D.Aralash audit
- E.Baholovchi audit

3. O'zbekistonda davlat hokimiyyati organlari auditorlik tekshiruvlarini...

- A. O'tkazishlari mumkin
- B. O'tkazishlari mumkin emas
- C. O'tkazishlari mumkin, litsenziyaga ega bo'lsa
- D. VM qarori bilan
- E. Sud qarori bilan

4. O'zbekistonda malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil, notijorat jamoat tashkiloti?

- A. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi
- B. Auditorlar palatasi
- C. Auditorlar kongressi

D. Buxgalterlar palatasi

E. Moliya vazirligi

5. Auditning xalqaro standartlari qaysi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan?

A. Xalqaro buxgalterlar uyushmasi

B. AQSH auditorlar kengashi

C. Evropa ittifoqi auditorlar uyushmasi

D. Auditorlik amaliyoti bo'yicha xalqaro Komitet

E. Milliy auditorlik uyushmalari qo'mitasi

6. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilindi?

A. 1999, 25 may

B. 2000, 26 may

C. 2001, 13 aprel

D. 2002, 17 may

E. 2003, 4 avgust

7. O'zbekistonda auditorlik faoliyatining milliy standartlari qaysi organ tomonidan ishlab chiqiladi?

A. Auditorlar palatasi

B. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi

C. Iqtisodiyot vazirligi

D. Moliya vazirligi

E. Davlat soliq qo'mitasi

8. Quyidagi tashkilotlardan qaysi biri har yili majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishi shart emas?

A. Aktsionerlik jamiyatları

- B. Banklar va boshqa kredit tashkilotlari
- C. Sug'urta tashkilotlari
- D. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar
- E. Investitsiya fondlari

9. Majburiy auditorlik tekshiruvining o'tkazish muddati qanday?

- A. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha
- B. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevraligacha
- C. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelijacha
- D. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha
- E. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyunigacha

10. Majburiy auditorlik tekshiruvidan buyin tovlaganligi uchun undiriladigan jarimalar miqdori qanchani tashkil etadi?

- A. Minimal ish haqining 100 baravarigacha
- B. Minimal ish haqi 50 baravaridan 500 baravarigacha
- C. Minimal ish haqi 200 baravaridan 400 baravarigacha
- D. Minimal ish haqi 100 baravaridan 300 baravarigacha
- E. Minimal ish haqi 100 baravaridan 200 baravarigacha

4-MAVZU: AUDITORLIK TEKSHIRUVINING TURLARI, XILLARI VA SHAKLLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Faoliyatning tashkiliy asoslari, shartnomalar tuzish, mijoz faoliyati bilan tanishish, rozilik va majburiyat xatini olish, auditorlik faoliyatiga xos professional xizmatlar, audit masshtabini belgilash, tekshiruvga qo‘yilgan talablar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Auditorlik tekshirish o‘tkazishning shakllari va usullarini kim aniqlaydi?
2. Auditor boshqa auditorlar yoki ekspertlarning materiallaridan foydalanishi mumkinmi, nima uchun?
3. Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshirish o‘tkazilgan sub’ektning ma’lumotlarini uning roziligesiz oshkor qilishga huquqi bormi?
4. Auditorlik tashkiloti quyidagi faoliyatlar bilan shug‘ullanishi mumkinmi?
 - ishlab chiqarish faoliyati?
 - savdo faoliyati?
 - tadbirkorlik faoliyati?
 - vositachilik faoliyati?
5. Qanday turdagи xizmatlar auditga tegishli xizmatlar hisoblanadi?
6. Qaysi holatlarda nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko‘ra audit o‘tkaziladi?.
7. Operatsion audit nima?
8. Muvofiqlik audit nima?
9. Moliyaviy hisobot audit nima?
10. Majburiy auditorlik tekshiruvi nima, uning buyurtmachisi kim?
11. Tashabbusli auditorlik tekshiruvi nima, uning buyurtmachisi kim?
12. Ichki va tashqi audit nima hamda ular o‘rtasida o‘zaro qanday farqli va o‘xshash jihatlar mavjud?
13. Auditorlik tashkilotlarining qanday professional xizmatlari mavjud?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Majburiy auditorlik tekshiruvi.
2. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi.
3. Auditorlik tashkiloti professional xizmatlarni .
4. Ichki va tashqi audit.
5. Operatsion audit.
6. Muvofiqlik audit.
7. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Auditor buyurtmachilaridan birining hali e'lon qilinmagan balansini auditorlik tashkilotning boshlig'i boshqa xodimlari bilan muhokama qilmoqda.

Aniqlang: Bu holatda sir saqlash majburiyati buzilganmi? Holatlarni tahlil qiling.

2-masala. Yillik hisobotni tekshirish jarayonida auditor buyurtmachi tomonidan raqobatbardosh korxona sotib olinayotganligini aniqladi. Agar bu ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, raqobatbardosh korxona aksiyalari kursi oshadi. Auditor vositachi tomonidan korxona aksiyalarini sotib olishga qarshi emas va shu tarzda u ko'proq foyda olish imkoniyatini qidirmoqda.

Aniqlang: Bunday holatda u o'zining professionallik majburiyatini buzmayaptimi? Holatlarni tahlil qiling.

3-masala. Audit o'tkazish jarayonida bosh auditor auditorga audit o'tkazilayotgan korxonaning soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarini O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligiga asosan tekshirib chiqish yuzasidan topshiriq berdi. Tekshiruv tugagach, auditor soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarda hech qanday xato aniqlanmaganligini ma'lum qildi. Audit jarayonida bir haftadan so'ng auditorlik hisoboti va ijobiy auditorlik xulosasi tayyorlandi. Ikki oy o'tgandan so'ng

soliq inspeksiyasi tomonidan tekshirish o‘tkazilib, soliq hisob-kitoblari bo‘yicha bir qator kamchiliklarni aniqladi. SHunga ko‘ra, korxona, hisoblangan soliq va jarimalarni to‘lashi zarur bo‘ldi. Mijoz qonuniy asosda auditorlik tashkilotiga nima sababdan bu xato-kamchiliklar tekshirish paytida aniqlanmaganligi haqida murojaat qildi.

Aniqlang: Bu holatga qanday baho berasiz? Holatlarni tahlil qiling.

4-masala. Sug‘urta kompaniyasi auditorlik tashkilotiga audit o‘tkazishni taklif qildi. Ammo auditorlar orasida sug‘urta kompaniyasi faoliyatini yaxshi biladigan mutaxassis yo‘q.

Aniqlang: Bu holatda auditorlik tashkiloti taklifni qabul qiladimi? Holatlarni tahlil qiling.

5-masala. Qandolatchilik fabrikasi boshqa bir auditorlik firmasi bilan shartnomani buzib, sizning auditorlik tashkilotingiz bilan shartnomada tuzmoqchi.

Aniqlang: Bu holatda siz nima qilasiz? Holatlarni tahlil qiling.

6-masala. Siz faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotiga televizor ishlab chiqarayotgan korxonadan audit o‘tkazish yuzasidan taklif tushdi. Sizning turmush o‘rtog‘ingiz bu kompaniyada tovarlar sotish bo‘yicha menedjer lavozimida faoliyat ko‘rsatadi.

Aniqlang: Sizning firmangiz bu taklifni qabul qila oladimi? Holatlarni tahlil qiling.

7-masala. Sizning auditorlik tashkilotngiz mijozga molivaviy hisobot tayyorladi. Uch haftadan so‘ng mijoz telefon orqali qaysidir hujjatda xatoga yo‘l qo‘ylganligini e’lon qildi.

Aniqlang: Xatoni yuzaga kelmasligi borasida qanday sifat nazorati tadbiri amalga oshirilishi lozim. Holatlarni tahlil qiling.

8-masala. Auditorlik tashkiloti «A» va «B» firmalaridan auditorlik tekshiruvini o'tkazib berish yuzasidan taklif oldi.

«A» firmasi besh yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan bo'lib, majburiy auditorlik tekshiruviga tortilmaydi. Soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan hujjatli tekshiruv vaqtida «A» firmasiga katta miqdorda jarima sanksiyasi qo'yilgan. Agarda firma ushbu jarimani to'lasa, uning moliyaviy barqarorligi yo'qoladi. SHu sababli firma auditorlik tashkilotiga ushbu moliyaviy jarimani kamayti-rib berish uchun tekshiruv o'tkazib berish taklifi bilan chiqdi va auditorlik tashkilotiga ushbu xizmat uchun bir million so'm to'lashini ma'lum qildi.

«B» firmasi majburiy auditorlik tekshiruviga tortiluvchi tashkilot hisoblanadi. Faoliyatining uchinchi yilda firma auditorlik tashkilotini o'zgartirib, yuqoridaqgi auditorlik tashkilotiga murojaat qildi. «B» firmasi auditorlik tekshiruvi uchun sakkiz yuz ming so'm to'lab berishini ma'lum qildi.

Auditorlik tashkilotida xodimlar soni cheklangan bo'lib, bir vaqtning o'zida ikkala taklifni qabul qila olmaydi. Ikkala taklifni qabul qilishi uchun chetdan xodimlar jalb qilishi kerak bo'ladi.

Topshiriq: Auditorlik tashkiloti ikkala taklifni qabul qila oladimi? Agar bitta bo'lsa qaysi taklifni qabul qilishi kerak?

9-masala. Majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tadigan aksiyadorlik jamiyati auditorlik tashkilotiga ushbu yilda o'tkaziladigan tekshiruvning ob'ekti qilib, ular uchun yangi soha bo'lgan eksport-import operatsiyalarini olishni taklif qildi.

Topshiriq: Majburiy auditorlik tekshiruvi bo'yicha shartnomaga ob'ekti bo'lib faqatgina eksport-import operatsiyalari bo'lishi mumkinmi?

10-masala. «Malika» firmasi 2019 yilning mart oyida ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish maqsadida kredit olish uchun bankka murojaat qildi. Bank firmadan 2018 yil yillik hisobotini ishonchligini tasdiqlab beradigan auditorlik xulosasini so'radi. «Malika» firmasi majburiy auditorlik tekshiruviga tortiladigan korxonalar turkumiga kirmaganligi sababli auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan edi.

Lekin, 2018 yilning noyabr oyida soliq inspeksiyasi tomonidan hujjatli tekshiruv o‘tkazilgan bo‘lib, firma bankga ushbu tekshiruv dalolatnomasini taqdim etdi.

Topshiriq: Bank ushbu tekshiruv dalolatnomasini auditorlik xulosasi sifatida qabul qilishga haqlimi?

11-masala. “Sakina” MCHJ do‘konlar uchun kiyim-kechaklarni ulgurji etkazib berish bilan shug‘ullanadi. 2019 yilda Kuzatuv kengashida “Odina” MCHJni xarid qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. Bu MCHJ ham kiyim-kechaklarni ulgurji etkazib berish bilan shug‘ullanadi, faqat noyob turini. Kuzatuv kengashining qarori “Odina” MCHJning taqdim qilingan balansi (1-jadval), 2018 yil uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot (2-jadval) va so‘zsiz auditorlik xulosasi asosida qabul qilindi.

1-jadval

“Odina” MCHJning buxgalteriya balansi, ming so‘m

Balans ko‘rsatkichlari	1.01.2019
Uzoq muddatli aktivlar:	350
Uzoq muddatli investitsiyalar	
Jami uzoq muddatli aktivlar	350
Joriy aktivlar:	
Zaxiralar	295
Debitorlar va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	35
Pul mablag‘lari	22
Jami joriy aktivlar	352
Balans	702
Xususiy kapital:	
Ustav kapitali	380
Zaxira kapitali	
Taqsimlanmagan foyda (jami)	181
Jami kapital va zaxiralar	561
Kreditorlar:	
Uzoq muddatli zayomlar	
Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari	141
Jami kreditorlar	141
Balans	702

2-jadval

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, ming. so‘m.

Sotishdan daromad	1000
Tannarx	700
Sotishdan foyda	300
Boshqa xarajatlar	220
Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi	80

“Odina” MCHJ xarid qilingandan so‘ng hisobotlar sinchiklab tekshirildi va natijada quyidagi ma’lumotlar olindi.

3-jadval

“Odina” MCHJ ning balansi, ming. so‘m.

Balans ko‘rsatkichlari	1.01.2019
Uzoq muddatli aktivlar:	
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	350
Uzoq muddatli investitsiyalar	
Jami uzoq muddatli aktivlar	350
Joriy aktivlar:	
Zaxiralar	180
Debitorlar va qisqa muddatli investitsiyalar	29
Pul mablag‘lari	22
Jami joriy aktivlar	231
Balans	581
Xususiy kapital:	
Ustav kapitali	380
Zaxira kapitali	1
Taqsimlanmagan foyda (jami)	41
Jami kapital va zaxiralar	421
Kreditorlar:	
Uzoq muddatli zayomlar	
Qisqa muddatli kreditorlik qarzları	160
Jami kreditorlar	160
Balans	581

4-jadval

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, ming. so‘m.

Sotishdan daromad	1000
Tannarx	760
Sotishdan foyda	240
Boshqa xarajatlar	245
Hisobot davrining zarari	5

Buning ustiga, 2017 yil uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari asosida 41 ming so‘m zarar aniqlangan. Sabab – moddiy boyliklarning o‘g‘irlanishi. Debitorlik qarzlarning summasi oshirib yuborilgan (sabab – kompyuter dasturidagi xatolik). Kreditorlik qarzlarning summasi pasaytirib yuborilgan (sabab – yil oxirida kelib tushgan tovarlarning hisobda aks ettirilmaganligi).

Talab etiladi. Hosil bo‘lgan vaziyatni tahlil qilib, auditor javobgarligining me’yorini va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni aniqlang.

MAZU BO’YICHA TESTLAR

1. Auditorlik tekshiruvining mamlakat qonunlariga to‘g‘ri kelish-kelmasligi auditning qaysi turida ko’rib o’tiladi?

- A. Operatsion audit
- B. Mos keluvchanlik auditi
- C. Moliyaviy hisobotlar auditi
- D. Majburiy audit
- E. Tashabbuskorlik tarzidagi audit

2. Auditning shakllarini aniqlang.

- A. Korxonanning tashkil topishiga qarab bo’linishini aytish mumkin
- B. Xo’jalik sub’ektlarining ish yuritish shakllariga qarab bo’linishi
- C. Nodavlat va davlat, aralash auditi
- D. Nodavlat, xususiy, jamoa, aralash
- E. Shaxsiy, nodavlat, paychilik, aktsionerlik korxonalar auditi

3. Auditning rivojlanishiga ko’ra audit turlarini aniqlang

- A. Tasdiqlovchi, operatsion audit
- B. Mos kelish yoki tizimli audit
- C. Mos kelmaslik yoki tavakkalchilikka asoslangan auditi
- D. Operatsion yoki tizimga solingan audit

E. Tasdiqlovchi, mos kelish yoki kelmaslik hamda tizimli, tavakkalchilikka asoslangan audit

4. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq faoliyat turiga ko'ra quyidagi qaysi iqtisodiy sub'ektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi shart emas?

- A. Aktsiyadorlik jamiyatlari;
- B. Banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- C. Sug'urta tashkilotlari;
- D. Investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

5. Quyidagilarning qaysilari auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlariga xos?

- A. Buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish
- B. Buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish, rejalashtirish, menedjment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;
- C. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratasiyalarni tuzish;
- D. Milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish
- E. Yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

6. Auditorlik tekshiruvi ko'rsatkichlar samaradorligi va unumdorligi bo'yicha o'tkazilishi auditning qaysi turida ko'rib o'tiladi?

- A. Operatsion audit
- B. Mos keluvchanlik audit
- C. Moliyaviy hisobotlar audit
- D. Majburiy audit

E. Tashabbuskorlik tarzidagi audit

7. Tasdiqlovchi auditda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?

- A. Hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi
- B. Muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi
- C. Sisteman ni nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruva qarorlariga baho beriladi
- D. Yuqoridagilarning barchasi
- E. B, C

8. Maqsadli sistemali auditning asosiy mohiyati nimada namoyon bo'ladi?

- A. Hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi
- B. Muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi
- C. Sisteman ni nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruva qarorlariga baho beriladi
- D. Yuqoridagilarning barchasi
- E. A va B

9. Tavakkalchilikka asoslangan auditda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?

- A. Hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi
- B. Muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi
- C. Sisteman ni nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruva qarorlariga baho beriladi
- D. Yuqoridagilarning barchasi
- E. A va C

10. TSex boshlig'i o'ziga yuklatilgan majburiyatlarini to'liq bajarmaganligi

tekshiruv davrida aniqlandi. Ushbu jarayon auditning qaysi shakli orqali aniqlanadi?

- A. Operatsion audit
- B. Mos keluvchanlik auditi
- C. Moliyaviy hisobotlar auditi
- D. To'g'ri javob mavjud emas
- E. Yuqoridagilarning barchasi

5-MAVZU: AUDITORLIK KASBIGA MALAKAVIY VA AXLOQIY TALABLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: Malakaviy talablar, ahloqiy talablar, auditor malakasini oshirish shartlari, kasb etikasi, auditor kompetentligi, maxfiylik, mustaqillik, vijdonlilik, adolatlilik, litsenziya talablari, litsenziyani bekor qilish va to‘xtatish, auditor ish sifatini nazorat qilish.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Buyurtmachi mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini (auditorni) tanlash huquqiga egami?
2. Qanday holatlarda audit o‘tkazish uchun shartnomani tuzish mumkin emas?
3. Auditorning huquqlari va majburiyatları qaysi me’yoriy hujjatlarda qayd etilgan?
4. Qaysi hujjatda buyurtmachining huquqi va majburiyatları aniqlanadi?
5. Buyurtmachining javobgarligiga nimalar kiradi?
6. Auditorlik tashkilotining (auditorlarning) javobgarligiga nimalar kiradi?
7. Auditorlik malaka sertifikatini olish uchun qanday talablar qo‘yilgan?
8. Auditorlik faoliyatini yuritish uchun litsenziyani olishda Moliya vazirligiga qanday hujjatlar taqdim etilishi shart?
9. Auditorlar qanday ahloq me’yorlariga amal qilishlari lozim?
10. Auditor boshqa auditor yoki ekspert ma’lumotlaridan foydalanishi mumkinmi, ularni o‘zaro munosabatlari qanday bo‘lishi lozim?
11. Auditor tekshirilayotgan korxonani roziligesiz u xaqidagi ma’lumotni oshkor qilish mumkinmi?
12. Auditorlar palatasi funksiyalari nimalardan iborat?
13. Auditorlik faoliyatini kim nazorat qiladi?
14. Auditorlik kasbiga qanday malakaviy talablar qo‘yilgan?
15. Auditning Axloq kodeksi to‘g‘risida nimalar bilasiz?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditorlik kasbining malakaviy talablari.
2. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi.
3. Auditorlik litsenziyasini amal qilish muddatini to'xtatish, bekor qilish, to'xtatib turish yoki amal qilishini tiklash tartibi.
4. Auditning axloq kodeksi.
5. Vijdonlilik va ob'ektivlik tamoyillari.
6. Auditor kasbining professional kompetentliligi.
7. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi.
8. Auditor ish sifatini nazorat qilish xususiyatlari.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. «Diyor» MCHJ auditorlik tashkilotiga buxgalteriya hisobini kompyuterlashtirish yuzasidan murojaat kildi. Ushbu auditorlik tashkiloti «Diyor» MCHJni bir necha yildan beri tekshiruvdan o'tkazadi va tashkilotning moliyaviy va boshqaruv hisobi muammolarini va xususiyatlarini yaxshi biladi.

Topshiriq: Agar auditorlik tashkiloti MCHJga kompyuterlashtirish yuzasidan xizmat ko'rsatsa, auditorlik tekshiruvi o'tkazayotgan vaqtida auditorning mustaqilligiga ta'sir ko'rsatadimi?

2-Masala. «SOLIHA» firmasining ta'sischisi auditorlik tashkilotiga «SOLIHA» firmasi ijrochi direktorini ishdan bo'shatish maqsadida auditorlik tekshiruvi o'tkazishga taklif qildi. Tekshiruvning to'lov haqi qo'yilgan maqsadga erishishdan kelib chiqib belgilanadi.

Topshiriq: Auditorning tutadigan yo'lini aniqlang?

3-masala. Siz «MUBINA» firmasini tekshirayotgan auditorsiz. Sizning auditorlik tashkilotngizga ofis uchun ijaraga bino kerak. «MUBINA» firmasi Sizga o'zining mulki hisoblangan binoni ijaraga olishni taklif qildi.

Topshiriq: Bu taklif qabul qilinsa auditorlik tashkilotining mustaqbilligi yo‘qoladimi? Holatlarni tahlil qiling.

4-masala. «Odina-Audit» auditorlik tashkiloti 3 yil oldin tashkil etilgan. U hozirgi kunga qadar kattalashib ketgan va o‘z filliallariga ega. Firma auditorlik xizmati ko‘rsatadi va qo‘shimcha ravishda Soliq Qonunchiligi masalalari bo‘yicha maslahatlar beradi.

Topshiriq: Bu maslahatlar auditorlik xizmatiga qanday ta’sir kqrtsatadi.

5-masala. «Odina-Audit» auditorlik tashkilotining auditori A.I. Axmedov o‘zining malakaviy xizmati to‘g‘risida matbuotda va radioda reklama qilib, mahoratlilik darajasi va boshqa auditorlarga nisbatan yuqori malakali ekanligini e’lon qildi. SHuning bilan birgalikda xizmati uchun to‘lanadigan summani ham oshkor qildi.

Aniqlang: Auditor A.I.Axmedovga kasbiy etik me’yorlariga rioya qilgan holda qanday bo‘lishi haqida maslahat bergen bo‘lar edingiz?

6-masala. «Odina-Audit» auditorlik tashkilotining 3 kishidan iborat auditorlari «Alfa» sug‘urta kompaniyasini auditdan o‘tkazmoqda. Auditorlardan biri korxona bosh direktori muoviniga yaqin qarindoshchiligi borligi aniqlandi.

Topshiriq: Bunday holda auditning etik me’yorlariga zid bo‘ladimi?

7-masala. «Fayz» MCHJda audit o‘tkazildi. Auditorlar tomonidan kamchiliklar aniqlanmadidi. Korxona rahbarlari tomonidan auditorlarga qimmatbaho sovg‘alar berildi.

Topshiriq: Auditorlar bunga qanday qarashlari lozim?

8-masala. «SHaxzod» xususiy korxonasida audit qilish natijasida soliplardan kam to‘langanligi ma’lum bo‘ldi. Uni yashirish maqsadida korxona direktori har bir

auditorga dam olish uchun yo'llanmalar taklif qildi va ulardan ijobiy auditorlik xulosa berishlarini iltimos qildi.

Topshiriq: Bunday holatda auditorlar qanday harakat qilishlari lozim?

9-masala. Tikuv-ishlab chiqarish firmasi auditorlik firmasi bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganligi sababli, tikuv-ishlab chiqarish firmasi va auditorlik firmasi o'rtaida o'zaro nizo kelib chiqdi. SHu sababli, tikuv-ishlab chiqarish firmasi auditorlik tashkiloti bilan amaldagi shartnomani buzib, Sizning auditorlik tashkilotngiz bilan shartnomaga tuzmoqchi.

Topshiriq: Bu holatda Sizning auditorlik tashkilotngiz qanday yo'l tutishi lozim?

10-masala. "Ayubxon" MCHJ ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish maqsadida bankka 2019 yilning yanvarida unga kredit taqdim etish iltimosi bilan murojaat qildi. Bank tashkilotning 2018 yil uchun moliyaviy hisobotini va bu hisobotning haqqoniyligini tasdiqlovchi auditorlik xulosasini taqdim etishni so'radi. Qonunga muvofiq MCHJ majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi shart emas. Biroq 2018 yilning noyabrida MCHJda soliq inspeksiyasi tomonidan xujjatlar tekshiruvi o'tkazilgan. MCHJ soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan xujjatlari tekshiruv dalolatnomasini moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlash xujjati sifatida qabul qilishni taklif etyapti.

Talab etiladi. Bank "Ayubxon" MCHJning ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadiga tijorat kreditini taqdim etish uchun ushbu taklifni qabul qilish yoki qilmasligini aniqlash.

11-masala. Auditorlik tashkiloti tekshiruvlarni o'tkazish uchun ikkita taklif oldi: "Solihaxon" MCHJ dan va "Fayzullaxon" MCHJdan.

"Solihaxon" MCHJ bozorda besh yildan ko'p vaqt faoliyat yuritadi, talablarga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruviga tortilmaydi. Soliq inspeksiyasining xujjatlarni tekshirish natijalariga ko'ra MCHJga jarima sanksiyalari solingan edi.

Jarima sanksiyalari bo‘yicha byudjet oldidagi qarzdorlikni uzish korxona moliyaviy barqarorligining buzilishiga olib keladi. SHuning uchun MCHJ soliq inspeksiyasi tomonidan solingan jarima sanksiyalarining hajmini kamaytirish maqsadida auditorlik tashkilotiga murojaat etishni qaror qildi. MCHJ auditorlik tashkilotiga xizmati uchun 1000 ming so‘m to‘lashni taklif qilyapti.

“Fayzullaxon” MCHJ bozorda uch yil vaqt faoliyat yurityapti. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona sifatida u majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi kerak edi. Lekin, bu yili “Fayzullaxon” MCHJ auditorlik tashkilotini o‘zgartirishga qaror qildi va moliyaviy hisobotni tekshirish uchun shartnoma tuzish taklifi bilan yuqoridagi auditorlik tashkilotiga murojaat qildi. “Fayzullaxon” MCHJ shartnoma bo‘yicha xizmatlar uchun auditorlik tashkilotiga 900 ming so‘m to‘lashni taklif qilyapti.

Auditorlik tashkiloti shtat xodimlari sonida cheklov larga ega. Ikki taklif bo‘yicha shartnoma tuzgan holida u shtatdan tashqari xodimlarni jalb qilishi kerak.

Talab etiladi. Auditorlik tashkiloti ikki taklifni qabul qilishi kerakmi, agar bittasini qabul qilish kerak bo‘lsa, qaysi biriligini aniqlang.

12-masala. «Baxt» kompaniyasi Sizni maslaxatchi sifatida ishga yolladi va Sizda kuyidagilarni kompaniya nomidan bajarishni talab kilmokda.

Topshirik.

1. Tuzuvchi jurnal o‘tkazmalarini tayyorlang - hamma o‘tkazmalarni hisob-kitoblar bilan izohlab bering. O‘tkazmalarni berishda schetlar nomini yozish zarurdir (schetlar raqami hohishingizga qarab).

2. Ishchi jadval (aylanma-saldo qaydnomasi)ni to‘ldiring. Zaruriyat tug‘ilganda schetlar qo‘shing.

3. 31 dekabr 2019 yil uchun buxgalteriya balansi tayyorlang.

4. 31 dekabr 2019 yil uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlang.

5. Buxgalteriya va soliq hisobi ыrtasida paydo bo‘ladigan farqlarni tuzatish maqsadida daromad solig‘i hisob-kitoblar shaklini to‘ldiring.

Kompaniya tugrisida ma’lumot:

Kompaniya uchun moliyaviy yil – 2019 yil 31 dekabrdagi.

1) Kompaniya moliyaviy xisobotini Moliyaviy Xisobotning Xalkaro Standartlari asosida tayyorlashi lozim.

2) Xisobot valyutasi – shartli birlik (sh.b.).

3) Barcha boshlangich buxgalteriya provodkalari 2019 yilda bajarilgan.

4) SHartli birlik (sh.b.) ning AQSHning 1 dollariga nisbatan almashtirish kursi kuyidagicha:

1 sentyabr 2019 y. – 9400 sh.b.

1 oktyabr 2019 y. – 9440 sh.b.

1 noyabr 2019 y. – 9470 sh.b.

31 dekabr 2019 y. – 9500 sh.b.

Xisob-kitoblarda summalarini yaxlitlang.

Barcha xisob-kitoblarni oylik asosda amalga oshiring.

Siz mustaqil maslahatchiga «Baxt» korxona rahbarining xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi xati.

1. 2019 yil 1 martda kompaniya tovarlarni tashish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun transport tashkiloti bilan muddati 24 oyga shartnomasi tuzdi. SHartnomasi tuzilgan sanada kompaniyaga shartnomasi qiymatining 50% to‘landi va bu to‘lov buxgalter tomonidan tashishga oid sado xarajatlari sifatida hisobga olindi.

2. Hisob siyosatiga muvofiq kompaniya erni qayta baholangan qiymat bo‘yicha hisobga oladi. Erning boshlang‘ich qiymati 180000 sh.b.ga teng edi. Xolis baholovchi 2019 yilning 31 dekabr holatiga ko‘ra erning adolatli qiymati 170000 sh.b.ni tashkil etishi to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etdi.

3. Kompaniya joylashgan binosini 2016 yilning 2 yanvarida 10 yil muddatga moliyaviy ijara olgan bo‘lib, bu muddat binoning butun foydali xizmat muddatiga tengdir. Binoning 60% savdo maqsadlarida va 40% ma’muriy maqsadlarida foydalilaniladi. Moliyaviy ijara shartnomasi 8600 sh.b. miqdoridagi to‘loving yiliga ikki marotaba amalga oshirishni ko‘zda tutadi hamda to‘lovlari har yilning 10 iyulida

o‘tgan birinchi yarim yillik uchun va xar yilning 10 yanvarida hisobot davrining ikkinchi yarmi uchun amalga oshiriladi. SHartnomada foiz stavkasi 10% hajmida ko‘zda tutilgan. Buxgalter ijara shartnomasini tuzish vaqtida binoningadolatli qiymati bo‘yicha hisobga olgan. Himsob siyosatiga muvofiq kompaniya to‘g‘ri chiziqli usuldan foydalaniladi, ko‘zda tutilgan tugatish qiymati esa 7175 sh.b.ni tashkil etadi. Soliq maqsadlarida kamayib boruvchi qoldiq usulidan foydalanishga ruxsat etilgan bo‘lib, taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati va tugatish qiymati buxgalteriya hisobidagi baholarga tengdir. 2005 yil birinchi yarim yillik uchun to‘lovlar jadvaliga muvofiq holda 2005 1il 10 iyulida amalga oshirilgan va u hisobotda to‘g‘ri aks ettirilgan. Hisobot davrining oxiriga kelib hech qanday hisoblashlar amalga oshirilmagan.

4. Kompaniya savdo uskunalariga ega bo‘lib u 2016 yilning 2 yanvarida sotib olingan. Ushbu uskunaning foydali xizmat muddati 5 yilga teng, ko‘zda tutilgan tugatish qiymati esa 2000 sh.b.ni tashkil etadi. Hisob siyosatiga binoan kompaniya sonlar yig‘indisi usulidan foydalangan holda amortizatsiyani hisoblaydi. Soliq maqsdlarida savdo uskunasi uchun amortizatsiyani to‘g‘ri chiziqli usulidan foydalanishi lozim, taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati va tugatish qiymati buxgalteriya hisobidagi baholarga tengdir. 2019 yilda amortizatsiya hisoblanmagan.

5. 2019 yilning 20 dekabrida kompaniya 2020 yil 5 yanvarida etkazib beriladigan va sotiladigan tovarlar uchun 800 sh.b. olidindan to‘lovni oldi. Bu summani olish paytida savdodan tushgan daromad sifatida aks ettirilgan.

6. Kompaniya olinadigan shubhali schetlarga oid zahiralarni baholash uchun hisob siyosatiga muvofiq holda sof kreditga sotishdan foiz usulidan foydalaniladi. Mazkur tarmoqda qabul qilingan me’yorlarga asoslangan holda kompaniyaning olinadigan shubhali schetlar miqdorini sof sotishdan 4% miqdorida baholaydi. Hisobot davrining oxiriga kelib hech qanday hisoblashlar amalga oshirilmagan. Soliq solish maqsadlarida olinadigan shubhali schetlar bo‘yicha xarajatlarni keyingi uch yil mobaynida chegirishga ruxsat berilmaydi.

7. 2019 yil 1 noyabrda mijozlardan biri 6500 sh.b. miqdoridagi savdo debtorlik qarzi o‘rniga yillik 6% to‘lash sharti bilan 18 oy muddatga kompaniyaga

veksel yozib berdi. Foizlarga oid to‘lovlar har olti oyda amalga oshiriladi. Kompaniya mazkur vekslni olganligi hali aks ettirilmagan.

8. Olinadigan savdo schetlari ichida 2019 yil 1 sentyabridagi 1000 AQSH dollar miqdorida schet ham mavjud. Hisobotda ushbu schet aks ettirilgan paytdan boshlab hech qanday tuzatishlar kiritilmagan.

9. Hisob siyosatiga muvofiq kompaniya zahiralarini hisobga olishning davriy tizimidan va sotilgan tovarlar tannarxini aniqlashning o‘rtacha tortilgan qiymat usulidan foydalaniladi. 2019 yil 1 dekabr holatiga ko‘ra tovarlar qoldig‘i har biri 55 sh.b.dan iborat bo‘lgan 350 ta birlikni tashkil etadi. Dekabr oyi mobaynida kompaniyada quyidagi xaridlar amalga oshirilgan: 6.12 – har biri 54 sh.b.dan iborat bo‘lgan 350 ta birlik; 10.12 – har biri 53 sh.b.dan iborat bo‘lgan 300ta birlik; 22.12 – har biri 54 sh.b.dan iborat bo‘lgan 420 ta birlik; 28.12 – har biri 52 sh.b.dan iborat bo‘lgan 280ta birlik tovar. Yil oxiriga zahiralar qoldig‘i 600 birlikni tashkil etdi. 2019 yil dekabr oyida sotilgan tovarlarni tannarxi hali aks ettirilmagan.

10. Joriy davrda 2018 yil hisobotida yo‘l qo‘yilgan jiddiy bir xatolik aniqlandi. 2018 yil dekabr oyida kompniya 2019 yil yanvar va fevral oylarida ko‘rsatilgan reklama xizmatlari uchun reklama agentligiga avans tariqasida 1800 sh.b. to‘lagan. Buxgalter ushbu summani 2018 yil xarajatlari sifatida noto‘g‘ri aks ettirigan. Xatolik hali tuzatilmagan.

11. 2019 yil 1 sentyabrdagi kompnaiya nominal qiymati 12000 sh.b.dan iborat bo‘lgan obligatsiyani mukofoti bilan 12492 sh.b.ga sotib oldi. Ushbu obligatsiyani so‘ndirish muddati 2014 yil 1 sentyabr bo‘lib, kompaniya uni so‘ndirish muddatiga o‘zida ushlab turish niyatida. Obligatsiya egalari har yilning 1 sentyabrdagi yillik 8% miqdorida har yilgi foiz to‘lovlarini oladilar. Joriy bozor foiz stavkasi 7%. Hisob siyosatiga binoan kompnaiya diskont va mukofotlarni amortizatsiyalash uchun samarali foiz stavkasi usulidan foydalanishi lozim. Davr oxiriga kelib xech qanday hisoblashlar amalga oshirilmagan.

12. Kompaniya telefon apparatlarga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlarini 2400 sh.b.da baholamoqda. Soliq maqsadlarida kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari 2020 yilda tan olinadi.

13. 2018 va 2019 yilda foyda solig‘i stavkasi 10%. Soliq maqsadlarida jarima va penyalar chegirib tashlashga ruxsat etilmaydi.

14. 2019 yil dekabr oyida kompaniya sof foydaning 50% miqdorida dividendlar e’lon qildi. Egasining nomi yozilgan cheklar 2020 yil 1 fevralda jo‘natiladi. Hech qanday buxgalteriya provodkasi berilmagan.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash deganda nima tushuniladi?

- A. Bu audit sohasidagi qonunchilikka rioya qilinishi ustidan davlat nazorati o’rnatish uslubidir.
- B. Bu «Auditorlar palatasi» tomonidan audit o’tkazishga ruxsat berish
- C. Bu Moliya vazirligining auditorga audit qilishga ruxsat berishi
- D. Bu malaka sertifikatini berishni nazorat qilish
- E. To’g’ri javob yo’q

2. Auditorlarni sertifikatsiyalash qanday tartibda o’tkaziladi?

- A. Auditorlarni sertifikatlash «Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to’g’risidagi Nizom» ga asosan o’tkaziladi
- B. Auditorlarni imtihon qilish orqali o’tkaziladi
- C. «Auditorlarni tayyorlash va sertifikatsiyalash dasturi» asosida o’tkaziladi
- D. A va B
- E. To’g’ri javob yo’q

3. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash qanday me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?

- A. Vazirlar Mahkamasining 365-qarori asosida
- B. Audit milliy standartlari asosida
- C. «Auditorlik faoliyati to’g’risida» qonuni asosida
- D. Auditning xalqaro standartlari asosida
- E. «Auditorlarni tayyorlash va sertifikatsiyalash dasturi» dasturi asosida

4. Auditorlik tashkilotining mustaqilligi nima bilan kafolatlanadi?

- A. Audit milliy standartlari bilan
- B. «Auditorlarni tayyorlash va sertifikatsiyalash dasturi» bilan
- C. «Auditorlik faoliyati to’g’risida» qonun bilan
- D. Auditning xalqaro standartlari asosida
- E. Barcha javoblar to’g’ri

5. Auditorlik firmasiga huquqni qaysi hujjat beradi?

- A. Sertifikat
- B. Litsenziya
- C. Guvohnoma
- D. Sertifikat va litsenziya
- E. Ruxsatnoma

6. Auditorga tekshirish uchun huquq beradigan hujjat?

- A. Sertifikat
- B. Litsenziya
- C. Diplom
- D. Diplom va sertifikat
- E. Guvohnoma va sertifikat

7. «O’zbekiston auditorlarining kasb etikasi kodeksi» qachon qabul qilingan?

- A. 2002 yil 13 may
- B. 2004 yil 5 aprel
- C. 1999 yil 15 yanvar
- D. Kodeks hali qabul qilinmagan
- E. To’g’ri javob yo’q

8. «O’zbekiston auditorlarining kasb etikasi kodeksi» loyihasi nechta moddadidan iborat?

- A. 15 modda
- B. 22 modda
- C. 18 modda
- D. 25 modda
- E. 19 modda

9. Auditorlik kasbining maqsadi nimada namoyon bo’ladi?

- A. Korxona moliyaviy ma’lumotlari to’g’risida tegishli yuqori tashkilotlarga axborot berish
- B. Korxonaning moliyaviy-xo’jalik faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlarni huquqni muhofaza qilish organlariga berish
- C. Asosan jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun eng yuqori samaradorlikka erishish uchun oliy darajadagi professionalizm me’yorlariga mos ishlashdan iborat
- D. A va B
- E. to’g’ri javob keltirilmagan

10. Qonunga muvofiq auditorlik tashkiloti kapitalining qancha qismi bir yoki bir necha auditorlarga tegishli bo’lishi lozim?

- A. 25 % dan ko’p qismi
- B. 50 % dan ko’p qismi
- C. 51 % dan ko’p qismi
- D. 67 % dan ko’p qismi
- E. 75 % dan ko’p qismi

6-MAVZU: AUDITDA MUHIMLIK TUSHUNCHASI VA AUDITORLIK TAVAKKALCHILIGI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Moliyaviy hisobotning asosiy elementlari, muhimlik tushunchasi va uni aniqlash, uni darajalari, tekshiruvda muhimlik darajasidan foydalanish, auditorlik tavakkalchiligi, unga ta'sir etuvchi omillar, risklarning maqbul to'plami va uning elementlari.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Auditorlik tavakkalchiligining korxona faoliyatiga ta'siri qanday?
2. Auditda muhimlik deganda nimani tushunasiz?
3. Auditning umumiy rejasi va dasturini tuzishda nimaga audit riski va muhimlik darajalari miqdori ko'rsatilishi talab etiladi?
4. Korxonaning faoliyatini tavsiflash va ichki nazorat tizimiga baho berishda qaysi audit riskidan foydalaniladi?
5. Auditorda tavakkalchiligi va muhimlik darajasini aniqlashga misol keltiring?
6. Auditda muximlik va risklilik darajalari qanday bog'langan?
7. Buxgalteriya hisobot moddalarida nima sababdan risklar vujudga keladi?
8. Jiddiylik darajasini auditda qo'llash tartibi qanday amalga oshiriladi?
9. Auditorlik riski tushunchasi qanday ta'riflanadi?
10. Auditorlik risklarning maqbul to'plami, uning elementlari va ularni baholash tartibi qanday amalga oshiriladi?
11. Jiddiylik darajasi, uni aniqlashda qanday asosiy ko'rsatkichlar tizimiga baho beriladi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditorlik tekshiruvida muhimlik darajasini aniqlash tartibi.
2. Auditorlik riskining maqbul to'plamiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Auditorlik riskini aniqlash tartibi.
4. Muhimlik darajasi va auditorlik riskining o'zaro bog'liqligi.

5. Muhimlik darajasini auditda qo'llash.
6. Muhimlik darajasini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlar tizimi.
7. Auditorlik risklarning maqbul to'plami, uning elementlari.
8. Muhimlik va auditorlik riskini auditning boshqa amallari bilan bog'liqligi.
9. Muhimlik darajasini auditorlik hulosasini tayyorlashga ta'siri.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Auditorlik tashkiloti mijozining uchta katta magazinlari mavjud. Uning har birida bir nechta bo'limlari bo'lib, ular kamida 5 yilda bir marta hujjatli tekshirishdan o'tishi kerak. Auditor oldiga risk yuqori bo'lgan bo'limlarni mukammal tekshirish vazifasi qo'yilgan. Magazinlarning har birida ichki nazorat bo'limi mavjud. O'tgan yili magazinlarda auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan.

Topshiriq: Auditor riskni baholash uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?

2-Masala. «Ayubxon» firmasi sizning auditorlik tashkilotingizga tekshiruv o'tkazib berish yuzasidan murojaat qildi. Avvalgi auditorlik tashkiloti bilan shartnomaning buzilish sababi auditorlik xulosasining o'z vaqtida taqdim qilinmaganligidir.

«Ayubxon» firmasining ikkita bo'linmasi mavjud bo'lib, ularning birinchisi bosh ofis bilan bir joyda joylashgan. Birinchi bo'lim korxona va tashkilotlarga isitish va sovitish sistemasini o'rnatib beradi. Barcha ishlar iste'molchilarining talablariga binoan shartnomaga asosida amalga oshiriladi. Ikkinci bo'linma bosh ofisidan 25 km uzoqda joylashgan bo'lib, elektr buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Ikkala bo'limda ham buxgalter mavjud bo'lib, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot alohida tayyorlanadi va bosh ofisda konsolidatsiyalashgan hisobot tuziladi. Oxirga yillarda birinchi bo'lim daromadli bo'lib, ikkinchi bo'limda rentabellik pasaygan. Direktorlar Kengashi ikkinchi bo'limni sotib yuborish uchun haridor izlamoqda. Birinchi bo'limning menedjerlari yuqori malakali bo'lib, ishni to'g'ri tashkil qilishgan. SHuning uchun direktor aksiyalar kursini ko'tarish maqsadida tezroq auditorlik xulosasini olishni rejalashtirgan.

Topshiriq: Auditorlik riskiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlang.

3-masala. Mijozingizning uchta katta do'konni mavjud. Har bir do'kon bir necha bo'limdan iborat. Barcha bo'limlar eng kamida besh yilda bir marta batafsil tekshiruvdan o'tkazilishi kerak. Auditorlik riski yuqori bo'lgan bo'limlar juda sinchikovlik bilan tekshirilishi kerak. Ma'lumki, bu do'konlarda o'tgan yili auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan edi. Har bir do'konda ichki nazorat bo'limi mavjud.

Talab etiladi. Riskni baholash uchun auditor qanday ishlarni amalga oshirishi kerakligini aniqlang.

4-masala.

1. Moliyaviy hisobot 100% haqqoniy bo'lishi mumkin emas.
2. Auditorlik tekshiruvi natijasida ichki xo'jalik riski pasaytirilishi mumkin.
3. MCHJ rahbariyatining faoliyati ichki xo'jalik riskiga ta'sir ko'rsatadi.
4. Ichki xo'jalik riski MCHJning faoliyat turiga qarab o'zgaradi.
5. Auditor takomillashtirish to'g'risida takliflarini kiritish yo'li bilan (rahbariyatga xatlarida) nazorat riskini pasaytirishi mumkin.
6. Agar ichki xo'jalik va nazorat risklari yuqori bo'lsa, aniqlanmaslik riski ham yuqori bo'ladi.
7. Agar ichki xo'jalik va nazorat risklari past bo'lsa, auditor tekshiruvning sinchikovlilik darajasini pasaytirishi mumkin.
8. Aniqlanmaslik riski tekshiruvning barcha sohalari uchun bir xil darajaga ega — ta'minot, ishlab chiqarish, sotish jarayonlari va b.

Talab etiladi. YUqorida keltirilgan ta'kidlarning to'g'rilingini aniqlash.

5-masala. Quyidagi 5 va 6 jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida muhimlik darajasini aniqlang hamda uni buxgalteriya balansining muhim moddalirga taqsimlang(7, 8- jadvallarga asosan).

5-jadval.

“Buxgalteriya balansi” ma’lumotlari

AKTIV	(ming so’m)
Asosiy vositalar	28655
Nomoddiy aktivlar	2073
Materiallar	4373
Xaridor va buyurtmachilar	145016
Kassadagi pul mablag’lari	6862
Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	3500
Hisob-kitob schetidagi pul mablag’lari	5079
Jami	195558
PASSIV	
Ustav kapitali	10000
Qo’shilgan kapital	23807
O’tgan yillar taqsimlanmagan foydasi	32630
Taqsimlanmagan foya	20305
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar	58736
Majburiyatlar:	
Mexnatga xaq to’lash bo’yicha	4843
Byudjetdan tashqari fondlarga	2567
Byudjet oldidagi	21735
Olingan avanslar	17115
Kelgusi davr xarajatlari	3386
Boshqa qisqa muddatli majburiyailar	434
Jami	195558

6-jadval.

“Moliyaviy natijalar” to’g’risidagi hisobot ma’lumoti

Ko’rsatkichlar	Summa, ming.so’mda
Maxsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum	211564
Sotilgan maxsulot (ish, xizmat)lar tannarxi	188995
Sotish xarajatlari	387
Yalpi foya	22182
Boshqa operatsion daromadlar	11857
Boshqa operatsion xarajatlar	4597
Asosiy faoliyatning foydasi	29442
Moliyaviy faoliyatdan daromadalr	643
Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar	644
Umumxo’jalik faoliyatining foydasi	29441
Soliqqa tortilgungacha foya	29441
Sof foya	20305

7-jadval.

**Quyida keltirilgan jadvallar asosida ma'lumotlarni shakllantiring bazaviy
ko'rsatkichlar hisob-kitobi**

Bazaviy ko'rsatkich	Bazaviy ko'rsatkichni moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichi, summada.	Muhimlik darajasi, %	Muhimlik darajasi, so'm.

8-jadval.

Muhimlik darajasini balans aktiviga nisbatan taqsimlash

AKTIV	(ming so'mda)	Salmoq, %	Muhimlik darajasi, ming. so'mda
Asosiy vositalar	28655		
Nomoddiy aktivlar	2073		
Materiallar	4373		
Xaridor va buyurtmachilar	145016		
Kassadagi pul mablag'lari	6862		
Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	3500		
Hisob-kitob schetidagi pul mablag'lari	5079		
Jami	195558		

Talab qilinadi:

1. Muhimlik darajasini aniqlash uchun bazaviy ko'rsatkichlarni shakllantiring;
2. Umumiyligi muhimlik darajasini aniqlang;
3. Barcha hisob-kitoblarni auditorning ishchi hujjatida aks ettiring.

6-masala. Moliyaviy hisobot uchun umumiyligi muhimlik darajasi 400 ming so'm. Auditor kassa operatsiyalarini tekshirishda quyidagi xolatlarni aniqladi:

- 1) Kassadagi pul mablag'lari belgilangan limitdan ko'p chiqqan: 100 ming so'm;
- 2) Jismoniy shaxslar bilan asossiz hisob-kitob ishlari amalga oshirilgan NKM dan foydalanimagan holda.

Talab qilinadi:

1. Yo'1 qo'yilgan xato va kamchiliklarni muhimligini aniqlang.
2. Aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha korxona rahbari va kassirga qanday choralar ko'rildi.
3. Auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

7-masala. Keltirilgan ma'lumotlar asosida umumiyligini muhimlik darajasini aniqlang.

9-jadval.

"A" MCHJ 31 dekabr 2018 y. xolatiga buxgalteriya balansi

Ko'rsatikich	Summada ming so'mda.
AKTIV	
1. Uzoq muddatli aktivlar – jami shu jumladan: Asosiy vositalar	45 282,3
2. Joriy aktivlar – jami shu jumladan: Materiallar	45 282,3 2 832,6 675,9
Debitorlar	1 823,1
Pul mablag'lari	40,1
Boshqa joriy aktivlar	293,5
BALANS	48 114,9
PASSIV	
1. O'z mablag'lari manbalari – jami shu jumladan: Ustav kapital	28 975,1
Qo'shilgan kapital	19 000,0
Rezerv kapital	7 362,1
Taqsimlanmagan foyda	981,3
2. Majburiyatlar – jami shu jumladan: Kredit va qarzlar	1 631,7 19 139,8 1 275,6
Kreditorlik qarzlari	17 864,2
BALANS	48 114,9

10-jadval.

“A” MCHJ 31 dekabr 2018 y. xolatiga
Moliyaviy natijalar to‘g’risidagi hisobot

Ko’rsatikich	Summa ming so’mda.
1. Sotishdan sof tushum	7 135,6
2. Sotilgan maxsulotlar ishlab chiqarish tannarxi	5 971,3
3. Yalpi foyda	1 164,3
4. Boshqa daromadlar	1 472,3
5. Boshqa xarajatlar	656,5
6. Sof foyda	1980,1

11-jadval.

**Quyida keltirilgan jadvallar asosida ma’lumotlarni shakllantiring bazaviy
ko’rsatkichlar hisob-kitobi**

Bazaviy ko’rsatkich	Bazaviy ko’rsatkichni moliyaviy hisobotdagi ko’rsatkichi, summada.	Muhimlik darajasi, %	Muhimlik darajasi, so’m.

8-masala. SHaxzod” MCHJ auditor sifatida Sizning tashkilotingizni birinchi marta tanladi. O’tgan auditorlik tashkiloti bilan shartnoma xulosaning o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi sababli to‘xtatilgan edi.

MCHJning ikkita mustaqil bo‘linmasi bor. Bosh ofis va birinchi bo‘linma bir joyda joylashgan. Birinchi bo‘linma ofis, zavod va boshqa korxonalar uchun isitish tizimlarini ishlab chiqaradi. Barcha ishlar iste’molchilar buyurtmasiga asosan bajariladi. Ikkinci bo‘linma birinchi bo‘linmadan 250 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, maishiy elektrtexnika ishlab chiqaradi.

Har bir bo‘linmaning o‘z buxgalteri bor. Moliyaviy natijalar to‘g’risidagi

hisobot va balans alohida tayyorlanadi, so‘ngra bosh ofisda konsolidatsiyalashgan hisobot tuziladi. Oxirgi yillari birinchi bo‘linma juda daromadli bo‘lib ketdi, shu vaqtning o‘zida ikkinchi bo‘linmaning rentabelligi tushib ketdi. Kuzatuv kengashi ikkinchi bo‘linma uchun xaridorlarni qidirish bilan shug‘ullanyapti. Agar ular topilmasa, unda u yopiladi.

Birinchi bo‘linmaning menedjerlari yuqori professionalligi bilan farq qiladi va yaxshi nomga ega. Bu bo‘linma faoliyati natijalarini raqobatchilardan oldinroq e’lon qilish yo‘li bilan rahbarlar korxona aksiyalari kursini ko‘tarish umididalar. SHuning uchun ular moliyaviy natijalar bo‘yicha auditorlik xulosasining iloji boricha ertaroq tayyorlanishini istashyapti. Ular tijorat ma’lumotini shunchalik "yashirishyapti"ki, xatto biznes taxlilini yoritib beruvchi bir necha jurnalistlarga, birinchi bo‘linma bo‘yicha joriy yilning foydasi o‘tgan yilgi foydadan hech bo‘lmaganda 30%ga oshiq bo‘lishi haqidagi o‘z kutilayotgan taxminlarini e’lon qilishdi.

Talab etiladi. Risk indikatorlarini va ularni kechib o‘tish yo‘larini sanab o‘tish.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Auditor qanday hollarda muhimlikni ko’rib chiqish lozim.

- A. Auditorlik amallarining xususiyatlarini aniqlashda
- B. Auditorlik vaqt va chuqurligini aniqlashda
- C. Xatolar ta’sirini aniqlashda
- D. Barcha javoblar to’g’ri
- E. To’g’ri javob berilmagan

2. Auditorlik riskining maqbul to’plamiga qanday shart-sharoitlar asosiy ta’sirini ko’rsatadi.

- A. Mijoz - korxona faoliyatining ko’lami
- B. Mulkchilikning tashkiliy- xuquqiy shakllari
- C. Kreditorlik qarzlarning miqdori va tavsifi
- D. A, B va S javoblar to’g’ri
- E. To’g’ri javob berilmagan

3. Risklar maqbul to'plamining eng yuqori chegarasi -5%,IR-90%, CR-80%, ishonchlilik darajasi - ...

- A. 82,1%
- B. 73,6%
- C. 80%
- D. 93,1%
- E. To'g'ri javob berilmagan

4. Risklar maqbul to'plamining eng yuqori chegarasi -5%,IR -70%, CR-40%, aniqlanmaslik riski-...

- A.17,9%
- B.6,9%
- C.13,4%
- D.9,6%
- E. to'g'ri javob berilmagan.

5. Muhimlik darajasi qaysi bosqichda aniqlanadi?

- A. Rejalashtirish bosqichida
- B. Tekshiruv o'tkazish chog'ida
- C. Auditorlik xulosasini tuzish jarayonida
- D. Uchchallasida ham aniqlanadi.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

6. Rahbariyat va xodimlar malakaviy darajalarining pastligi qaysi riskka ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi..

- A. Ichki xo'jalik riski
- B. Nazorat riski
- C. Aniqlanmaslik riski
- D. Ishonchlilik riski

E. To'g'ri javob berilmagan

7. Hisobotdagi har bir satr bo'yicha moddiylik alohida satrlar bo'yicha yig'ilishi uchun qaysi usuldan foydalilanildi?

- A. Analiz usuli
- B. Sintez usuli
- C. Deduktsiya usuli
- D. Induktsiya usuli
- E. To'g'ri javob mavjud emas

8. Auditor auditni rejorashtirish davrida ajratib bo'lmaydigan riskini 70%, ichki nazorat riskini 40%, aniqlanmaslik riskini 12% qilib belgiladi. Shunda auditorlik riski necha foizga teng bo'ladi?

- A. 3,16%
- B. 3,36%
- C. 3,46%
- D. 2,15%
- E. To'g'ri javob mavjud emas

9. Muhimlik darajasi va auditorlik riski o'zaro qanday bog'liqlikda?

- A. Bog'liq emas
- B. Teskari proportsional
- C. To'g'ri proportsional
- D. Progression bog'liqlikda
- E. To'g'ri javob mavjud emas

10. Aniqlanmaslik riski bu

- A. Auditorlik tekshirushi natijalari bo'yicha auditorlar tomonidan sub'ektiv aniqlanadigan ko'rsatkich
- B. Buxgalteriya schyotida, balans moddasida, bir turdag'i xo'jalik muomalalari

guruhiba uchraydigan kamchiliklarni absalyut qiymati

C. Korxonaning mavjud va muntazam qo'llanilib kelinayotgan buxgalterlik hisobi tizimi va ichki nazorat tizimi vositalarini nisbiy miqdori.

D. Auditorlik tekshirushi jarayonida qo'llaniladigan auditorlik amallarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda jiddiy hisoblangan xatolar hamda kamchiliklarni aniqlash imkoniy yo'qligining ehtimolidir

E. Yuqoridagilarni barchasi to'g'ri

7-MAVZU: AUDITORLIK TEKSHIRISHNI REJALASHTIRISH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Auditni rejorashtirish tamoyillari, auditni dastlabki rejorashtirish, auditning umumiy rejasini tuzish, auditorlik guruhini shakllantirish, audit dasturi, audit amallari, tekshiruvda risk va jiddiylikni esktrapolyasiyalash tartibi, auditorning ishchi hujjatlari, bajariladigan ishlar hajmi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Auditni rejorashtirishning zaruriyati nimadan iborat?
2. Audit qanday maqsad uchun rejorashtiriladi?
3. Xo‘jalik sub’ektining qaysi hujjatlari tekshirish uchun rejorashtiriladi va nima uchun?
4. Mijozning hisob tizimi batafsil o‘rganish uchun auditor kuzatishning qanday usullaridan foydalanishi mumkin?
5. Auditorga mijozning tijorat to‘g‘risidagi ma’lumotlari nima uchun zarur bo‘ladi?
6. Auditor nazoratni baholash uchun qanday tadbirlarni bajarish kerak bo‘ladi?
7. Auditor ishlarini rejorashtirishda uni o‘tkazishni qanday umumiy qoidalaridan foydalilanildi?
8. Audit ishlarini kompleks rejorashtirishning umumiy qoidalari nimalardan iborat?
9. Audit ishlarini kompleks rejorashtirishning uzluksizlik qoidasi (prinsipi) nimadan iborat?
10. Rejorashtirishning optimallik prinsipi nimadan iborat?
11. Auditni rejorashtirishning qanday asosiy bosqichlari mavjud?
12. Audit ishlarini rjalashtirishning natijalaridan qanday foydalilanildi?
13. Auditni rejorashtirish hajmi nimalarga bog‘liq?
14. Audit ishlarini rejorashtirishning natijalari qanday hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi?

15. Auditni dastlabki rejalashtirishning mazmuni nimadan iborat?
16. Auditning umumiy rejasi va dasturini tuzish strategiyasi nima?
17. Auditning umumiy rejasining mazmunini izohlab bering?
18. Audit dasturining mazmunini izohlab bering?
19. Korxona bilan bog‘liq umumiy tavakkalchilik tushunchasiga nimalar kiradi?
20. Auditdagи aniqlanmagan tavakkalchilik nima?
21. Tavakkalchilik darajasini baholashning qanday kriteriyalari mavjud?
22. Ichki tavakkalchilik nima?
23. Auditorlik ishchi hujjatlarining ahamiyati nimadan iborat?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning axamiyati va uni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar tavsifi
2. Auditni rejalashtirish bosqichlari tavsifi.
3. Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish.
4. Auditorlik tekshiruvining ishchi dasturini tayyorlash tartibi.
5. Auditni dastlabki rejalashtirish amallari tavsifi

MAVZU BO’YICHA MASALALAR

1-masala. MCHJ-mijozning buxgalterlik, iqtisodiy va huquqiy xujjatlari mavjud (masalan, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, xususiy kapital to‘g‘risida hisobot, pul mablag‘lari to‘g‘risida hisobot, buxgalteriya balansiga ilova, tushuntirish xati, ishlab chiqarish dasturi, buyruqlar, xo‘jalik shartnomalari, shtat jadvali, xujjatlar aylanushi grafigi, o‘tgan yil uchun auditorlik xulosasi va boshqalar).

Talab etiladi. Rejalashtirish jarayonida auditor olishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash.

Qaysi muolajalar yordamida tekshiruv o‘tkazishni rejalashtirish kerak (umumiy yondoshuv).

2-masala.

1. Auditning umumiy rejasi va dasturini tuzing?
2. Mijozdan so‘rab olinadigan hujjatlarning ro‘yxatini tuzing?
3. Auditni rejalashtirish to‘g‘risida hisobot tuzing.
4. Audit o‘tkazish to‘g‘risida shartnomaning loyihasini tuzing.

Masalani bajarish uchun materiallar:

- 1.Hisob siyosatiga oid buyruqlar.
- 2.Buxgalteriya balansi – 1- shakl.
- 3.Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot – 2- shakl.
- 4.Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot - 4- shakl.
- 5.Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot - 5- shakl.

Masalani bajarish uchun ko‘rsatmalar:

1.Korxonaning ta’sis hujjatlari va hisobot ma’lumotlarini o‘rganish orqali bajariladi va bu o‘z navbatida «Xo‘jalik sub’ekti to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar» bo‘limi uchun material sifatida xizmat qiladi.

2.Ichki nazorat tizimiga baho berishda auditorlik faoliyatida «Audit o‘tkazishda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga baho berish va o‘rganish» standartlaridan foydalaniladi. Olingan ma’lumotlar auditni rejalashtirish to‘g‘risidagi hisobotning «Ichki nazorat tizimi holatini baholash» bo‘limi uchun foydalaniladi.

3.Auditning umumiy rejasi va dasturi korxonaning faoliyatini o‘rganish asosida ichki nazorat tizimini baholash va moliyaviy hisobotni tahlilini hisobga olgan holda tuziladi; auditorlik faoliyati standartlariga mos holda rasmiylashtiriladi. (12 ,13- jadvallar).

12-jadval

Auditning umumiy rejasi

Nº	Rejalashtirilgan ishlar turi	O‘tkazish davri	Bajaruvchi	Izoh
1				

13-jadval**Auditning dasturi**

Nº	Bo‘lim raqami	Audit bo‘limlari bo‘yicha auditorlik muolajalar ro‘yxati	O‘tkazis h davri	Baja- ruvchi	Ishchi hujjat-lar	Izoh
1						

4. Auditning rejasi va dasturida tekshiruv o‘tkazishda qo‘llaniladigan auditorlik tahliliy amallarini 14-jadval ko‘rinishida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar, tovar-moddiy zahiralar, mahsulot ishlab chiqarish va sotish, pul mablag‘lari, hisob-kitoblar, korxona xususiy kapitali, moliyaviy natijalar auditni kabi masalalar bo‘yicha quyidagi jadval shaklida bayonetning.

14-jadval

Nº	Auditorlik tahliliy nazorat amallari	Auditorning ishchi hujjatlari
1		

5. Xo‘jalik sub’ektidan so‘raladigan hujjatlar ro‘yxatini tuzishda hisob shaklini va hisob ma’lumotlarini qayta ishslash usulini hisobga olish zarur bo‘ladi. Hujjatlar ro‘yxatini 15-jadval ko‘rinishida taqdim qilish mumkin.

15-jadval**Tekshirish uchun so‘raladigan hujjatlar ro‘yxati**

Nº	Bo‘lim raqami	Tekshirish ob’ekti	Hujjatlar nomi	Taqdim qilish muddati	Olish muddati	Izoh

6. Bajariladigan auditorlik ishlarini umumlashtirishning maqsadi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ichki nazoratning holatini aniqlash;
- auditor o‘tkazish uchun shartnomaning maqsadga muvofiqligi;
- rejalashtirilgan auditorlik protseduralar turlarini ko‘rsatilgan holda tekshiriladigan ob’ektlarni aniqlash va dasturini tuzish;

- shartnama bo'yicha auditorlik xizmat uchun sarflanadigan vaqtini va uning bahosini aniqlash.

1-6 topshiriqlarni bajarish natijasida olingan materiallar asosida auditorlik hisoboti tuziladi.

Hisobotning taxminiy tarkibi va mazmuni.

1. Xo'jalik sub'ekti to'g'risida umumiy ma'lumotlar (korxona nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, manzili, ta'sischilar va ustav kapitali to'g'risida ma'lumotlar va rahbarlari).

2. Tashkiliy tarkibi va boshqaruv tuzilishi. (Bo'limlar tarkibi, filiallarning mavjudligi, boshqaruv organlari va boshqalar).

3. Buxgalteriya hisobining tashkil qilinishi (hisob shakli va tizimi, hujjatlashtirish tizimi, hisob ishlarini tasnifi).

4. Ichki nazorat tizimini baholash.

5. Muammoli jarayonlar, sohalar va audit tavakkalchiligi.

6. Auditning dasturi.

7. Shartnama bo'yicha sarflanadigan zarur ish vaqtini va to'lov bahosi hisob-kitobini 16-jadval ko'rinishida rasmiylashtirish mumkin.

16-jadval

SHartnama bo'yicha sarflanadigan vaqt va baho hisob-kitobi

Nº	Bo'lim	Auditorlik guruhining rahbari	Auditor	Yordamchi	Ekspert	Jami
1	Rejalashtirish					
2	Auditorlik tekshiruv					
	Pul mablag'lari					
	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar					
	Ishlab chiqarish zaxiralari					
	Hisob-kitob muomalalari					
	Moliyaviy natijalar					
	Kapital, fondlar va rezervlar					
	Moliyaviy hisobot					
3	Tekshirish natijalarni rasmiylashtirish					
	Umumiylar sarflangan vaqt					
	1 soat stavkasi					
	Umumiylar summasi					

Tuzilgan sana

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriya hisobining u yoki bu usullarini mustaqil ishlab chiqadigan bo'lsa u holda auditor nimalarga e'tibor berishi va nimalarni tekshirishi lozim.

- A. Korxonada yuritilayotgan hisob siyosati “Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga” mos kelishini
- B. Statistika, moliya va soliq organlari talablariga mosligini
- C. Buxgalteriya hisobiga oid me'riy hujjatlarda belgilangan qoida va talablarga mos kelishini
- D. Javoblarning barchasi to'g'ri
- E. To'g'ri javob berilmagan

2. Auditorlik tekshiruvini o'kazish to'g'risida shartnomani bajarmaganligi yoki qoniqarsiz bajarganligi uchun buyurtmachi va bajaruvchi amaldagi qonunchilikka muvofiq qanday summada mulkiy javobgarlika tortiladi?

- A. 5 minimaldan 10 minimalgacha
- B. Mazkur shartnoma summasidan ikki barobar miqdorida
- C. Yuqori tashkilot organlari xulosasiga binoan
- D. Mazkur shartnoma summasi doirasida
- E. To'g'ri javob berilmagan

3. Auditorlik tekshiruvi ob'ektlari auditini rejalashtirish qaysi AFMS orqali tartibga solinadi?

- A. 3-son AFMS
- B. 13-son AFMS
- C. 14-son AFMS
- D. 90-son AFMS
- E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Auditni rejalashtirish jarayoni qachon boshlanadi?

- A. Auditorlik tashkiloti bilan xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'rtasida shartnoma tuzilgandan so'ng boshlanadi
- B. Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektga pul to'laganidan so'ng boshlanadi
- C. Auditorlik tashkiloti bilan xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'rtasida shartnoma tuzilgunga qadar boshlanadi
- D. Auditorlik tashkiloti bilan ekspert o'rtasida shartnoma tuzilgunga qadar boshlanadi
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. 3-son AFMSga muvofiq auditni rejorashtirish necha bosqichga bo'linadi?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5
- E. To'g'ri javob mavjud emas

6. Rejorashtirishning qaysi tamoyili tekshiruvda ishtirok etadigan auditorlarga kelishilgan topshiriqlar belgilanishi va rejorashtirish bosqichlarining muddatlar hamda tarkibiy bo'linmalar bo'yicha bog'liqligida ifodalanadi?

- A. Mustaqillik
- B. Uzluksizlik
- C. Oshkoraliq
- D. Konfidentsiallik
- E. To'g'ri javob mavjud emas

7. Auditoring umumiy rejasida qanday ko'rsatkichlar aks ettiriladi?

- A. Audit o'tkazish muddati
- B. Amalga oshiriladigan ishlarning davomiyligi

- C. Auditor qo'llaydigan usullar
- D. Bajariladigan ishlar hajmi
- E. Barcha javoblar to'g'ri

8. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish qaysi jarayondan boshlanadi?

- A. Moddiylik darajasini aniqlashdan
- B. Tekshiriladigan korxona faoliyatini bat afsil o'rganishdan
- C. Korxona hisob siyosatini o'rganishdan
- D. Tavakkalchilik darajasini aniqlashdan
- E. To'g'ri javob mavjud emas

9. 3-son AFMSga binoan auditor qaysi hujjatda audit o'tkazish muddatlari va audit o'tkazish grafigini tuzishni, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzishni nazarda tutishi lozim?

- A. Umumiy rejada
- B. Audit dasturida
- C. Auditning umumiy dasturida
- D. Shartnomada
- E. To'g'ri javob mavjud emas

10. Auditni rejalashtirish bosqichlari to'g'ri va tartib bilan ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A. 1-auditning umumiy rejasini tayyorlash, 2- audit dasturini tayyorlash, 3-bevosita audit o'tkazish
- B. 1-auditni daslabki rejalashtirish, 2-auditni dasturini tayyorlash va tuzish
- C. 1-audit maqsadini belgilash, 2-audit dasturini tuzish, 3-audit o'tkazish
- D. 1-auditni daslabki rejalashtirish, 2-auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish, 3-audit dasturini tayyorlash va tuzish
- E. 1-auditni rejalashtirish, 2-audit dasturini tayyorlash va tuzish, 3-auditni o'tkazish.

8-MAVZU: AUDITORLIK TEKSHIRISH VAQTIDA
BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI VA ICHKI NAZORATINI
O'RGANISH HAMDA BAHOLASH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Tekshiriladigan mijoz faoliyatini o'rganish, buxgalteriya hisobini tashkil etilishini o'rganish, korxonani hisob siyosati va uni o'rganish, ichki nazorat tizimi, nazorat muhiti, nazorat amallari, ichki nazorat tizimini baholash me'yorlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ichki nazorat tizimi deganda nima tushunasiz?
2. Buxgalteriya hisobi tizimi deganda nima tushunasiz?
3. Auditorlik tekshiruvida ichki nazorat tizimini ahamiyati nimalardan iborat?
4. Korxonalarda INT va BXT elementlari nimalardan iborat?
5. Auditor korxona ichki nazorat tizimini qanday baholaydi?
6. Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini qanday o'rganish mumkin?
7. Buxgalterlik hisobining tashkil etilishini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
8. Korxona buxgalteriyasining tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmada ko'rsatilgan har bir xodimning vazifalari va mas'uliyatlarining bayoni qanday o'rganiladi?
9. Hisob siklining muhim uchastkalari bo'yicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
10. Korxona hisob siyosatini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
11. Ichki nazorat tizimini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
12. Nazorat muhiti deganda nimalarni tushunasiz?
13. Nazorat amallari deganda nimalarni tushunasiz?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o'rganish.
2. Buxgalterlik hisobining tashkil etilishini o'rganish.
3. Hisob tsiklining muhim uchastkalari bo'yicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish.
4. Korxona hisob siyosatini o'rganish.
5. Ichki nazorat tizimini o'rganish.
6. Nazorat muhiti va nazorat amallari

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Sizga mijozingiz “MUBINA” kompaniyasi quyidagi keltirilgan muammoni hal etish bo'yicha murojaat etdi. Kompaniyada quyidagi funksiyalarni bajaruvchi 3 ta ma'muriyat xodimi mavjud va bu xodimlar quyidagi funksiyalarni bajarishlari lozim:

1. Bosh kitobni yuritish.
2. To'lanadigan schyotlar registrlarini yuritish.
3. Olinadigan schyotlar reja.
4. CHeklarni imzolashga tayyorlash.
5. To'lov jurnalini yuritish.
6. Bankdagi schyotlarni nazorat qilish.
7. Pul tushumlarini yig'ish va ularni bankdagi hisob-kitob schyotiga o'tkazish.

Talab etiladi:

1. Keltirilgan muammo yuqorida keltirib o'tilgan xodimlar bo'yicha bajariladigan funksiyalarning to'g'ri taqsimlanmaganidadir. Siz ushbu funksiyalarni xodimlar o'rtasida shunday taqsimlangki, natijada kompaniyada ichki nazorat yuqori darajada tashkil etilsin.
2. Har bir funksiyani bajaruvchi xodimlarni lavozimi bo'yicha ajratib chiqing.
3. Hisob siyosatini me'yoriy hujjatlar va qabul qilingan Nizom talablariga muvofiqligini tekshirish.

2-masala. Hisob siyosati auditining asosiy vazifalari:

- 1.Hisob siyosatini to‘g‘ri tashkil qilish.
- 2.Hisob siyosatini O‘zbekiston Respublikasi «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» buxgalteriya hisobining milliy standarti hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tekshirish.

Topshiriq::

- 1.Hisob siyosatini yuritish buyrug‘i bilan tanishing.
- 2.Buyruqning «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» BHMSga muvofiqligiga baho bering.
- 3.Audit o‘tkazish jarayonida hisob siyosatini zaruriy jihatlarini auditor ishchi hujjatida aks ettiring.
- 4.Hisob siyosatini korxonalar ichki nazoratini tashkil qilish ta’sirini baholang.

Topshiriq:ni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar.

- 1.Bajarilgan ishlar natijalari «Tekshirish nazorat varag‘i» ish hujjatiga yozilgan.
- 2.Hisob siyosatiga ichki nazoratning bir elementi nuqtai nazaridan baho bering.

17-jadval

Savol	Javob		Izoh
1. Hisob ishlarini tashkil qilish 1.1.Hujjatlar aylanishi grafigini mavjudligi. 1.2.Ishchi rejesini mavjudligi.	Ha	Yo‘q	
2. Eskirish hisoblash tartibi. 2.1. Asosiy vositalar bo‘yicha: To‘g‘ri chiziqli usul. Qoldiqni kamayish usuli. Kumulyativ usul. Ishlab chiqarish usuli.			
2.2. Nomoddiy aktivlar bo‘yicha. To‘g‘ri chiziqli usul. Ishlab chiqarish usuli.			
2.3. Xo‘jalik jihozlari va inventarlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha: 100% yoki 50% li usul			
3. Asosiy vositalarning ta’mirlash hisobi: 3.1 Ta’mirlashning amalga oshirish yuzasidan xarajatlarni qo‘shish. 3.2 Asosiy vositalarni tamirlash uchun zahira tashkil qilish. 3.3 Haqiqiy xarajatlarni kelgusi davr xarajatlari hisobiga hisobdan chiqarish.			

4. Moddiy boyliklar kirimi hisobi			
5. Materiallarni baholash tartibi:			
5.1 O'rtacha qiymat bo'yicha (AVECO).			
5.2 LIFO			
5.3 FIFO			
6. Tovarlarning baholash usullari:			
6.1 Sotib olish bahosi bo'yicha.			
6.2 Sotish bahosi bo'yicha.			
7. Ishlab chiqarish xarajatlari guruhlash va ularni hisobdan chiqarish:			
7.1 To'la ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha.			
7.2 Marjinal usul bo'yicha yoki qisman ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha.			
8. Bevosita xarajatlarni mahsulot va xizmatlar turlari bo'yicha quyidagilarga mutanosib ravishda taqsimlash:			
8.1 Asosiy ish haqi bo'yicha.			
8.2 To'g'ri (bevosita) xarajatlar bo'yicha.			
8.3 Moddiy xarajatlar bo'yicha:			
8.4 Har bir faoliyatdan tushgan tushum bo'yicha (bunda jami tushum 100% deb qaraladi); Boshqa usullar.			
9. Tugallanmagan ishlab chiqarishni balansda aks ettirish usullari:			
9.1 Haqiqiy tannarx bo'yicha;			
9.2 Reja tannarx bo'yicha;			
9.3 Xarajatlarning bevosita moddalari bo'yicha;			
10. Tayyor mahsulotni baholash tartibi:			
10.1 Haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha;			
10.2 Reja tannarx bo'yicha;			
11. Soliqlar yuzasidan mahsulotlar hisobi tartibi:			
11.1 Tovarlar (ish, xizmatlar)ni jo'natish (ko'rsatish) hamda haridorlardan hisob- kitob hujjatlarini qabul qilish tadbirlari bo'yicha;			
11.2 Schyotni to'lash tartibi bo'yicha;			
12. Kurs farqlari hisob usullari:			
12.1 9540->Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyoti yordamida.			
13. Fondlar va rezervlar mavjudligi:			
13.1 Zahira fondi;			
13.2 Kelgusi davr xarajat va to'lovlari zaxirasi;			
13.3 Ta'mirlash bo'yicha;			
13.3.1 Ta'til haqi to'lovi bo'yicha;			
13.3.2 va boshqalar;			
13.3.3 Maxsus fondlar.			

3-masala. Auditning asosiy maqsadi — moliyaviy hisobotning natijalari bo'yicha fikr ifoda etish maqsadida uni tekshirish. Bu tekshiruv ma'lum usul va metodlarni qo'llashni talab etadi.

Talab etiladi. YUqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, nega auditor quyidagi muolajalarni bajarishini tushuntirib berish:

- 1) ichki nazorat tizimini baholaydi;
- 2) hisob yozuvlarini yuritish tizimini tekshiradi;
- 3) xujjatlarni ularda aks etgan operatsiyalarning ruxsat etilganlik predmeti maqsadida tekshiradi;
- 4) alohida nizomlarning tasdig‘ini (isbotini) izlaydi;
- 5) muvofiqlikka oid testlarni bajaradi.

4-masala. Auditorlik tekshiruvi jarayonida korxona yil oxirida birlamchi buxgalteriya hujjatlarini inventarizatsiya qilganligi, endi saqlash muddati tugaganligi munosabati bilan ularning bir qismini yo’q qilishni rejalashtirayotganligi aniqlandi. Auditorlardan korxona mijoz-korxona buxgalterlari tomonidan bu borada quyidagicha savollar bilan murojaat qilindi:

“Nima qilsak to’g’ri bo’ladi: qog’ozlarni arxivga saqlashga topshirish kerakmi yoki ularni yo’q qilish mumkinmi? Qanday hujjatlarni yo’q qilish mumkin? Bunday holda yo’q qilish dalolatnomasi qanday tuziladi, u qaysi shaklda bo’ladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?”

Talab qilinadi:

1. Auditorlar tomonidan korxona buxgalterlariga yuqoridagi holat bo'yicha qanday amaliy tavsiyalar yoki tushuntirish ishlari amalga oshirilishi lozim?
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

5-masala. “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonunning 23-moddasida buxgalteriya hujjatlari va moliyaviy ma'lumotlar kamida uch yil, moliyaviy hisobot esa qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida saqlanadi deyilgan. Buxgalteriya birlamchi hujjatlari, shu jumladan bank hujjatlari, omborxona kirim-chiqim reestri va (kvitantsiya) to’lov pattalarini saqlash muddati necha yilni tashkil etadi?

1. Tashkilotda jinoiy ish tugatilib, sud hukmi chiqqandan keyin hujjatlar qancha muddat saqlanadi?

2. Keyin tayinlangan tekshiruvda jinoiy ish tugatilgan davrdagi hujjatlarning talab qilinishi to'g'rimi yoki bunda sud hukmi etarli hisoblanadimi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Korxona iqtisodiga ta'sir qiladigan ichki omillarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Tarmoq holati
- B. Mamlakat soliq siyosati
- C. Mamlakatdagi mavjud inflyatsion holat
- D. Korxonaning uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari
- E. To'g'ri javob mavjud emas

2. Buxgalterlik hisobi tizimini bayon qilish quyidagi hujjatlardan qaysi birini o'z ichiga olishi mumkin?

- A. Hisob tsikllari yo'nalishida namunaviy muomalalar bo'yicha provodkalar bayoni
- B. Hisobvaraq-faktura
- C. To'lov talabnoma
- D. Ish haqini hisoblash qaydnomasi
- E. To'g'ri javob mavjud emas

3. Auditorlik tekshiruviga ko'ra korxona hisob siyosati kalendar yili davomida o'zgartirilgan. Bu 1-son BHMSning qaysi bandiga zid hisoblanadi?

- A. 50-bandiga
- B. 54-bandiga
- C. 56-bandiga
- D. 59-bandiga
- E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Hisob siyosati to'g'risidagi taqdim etilgan buyruq (farmoyish) auditning qaysi usuliga ko'ra tekshiriladi?

- A. Skanerlashga ko'ra
- B. Inventarizatsiyaga ko'ra
- C. Kuzatishga ko'ra
- D. Test sinoviga ko'ra
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. Ichki nazorat tizimi nechta tarkibiy qismdan iborat?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5
- E. To'g'ri javob mavjud emas

6. Korxonada ichki nazorat uchun qulay bo'lgan o'zaro xizmat munosabatlarini aniqlaydigan belgilar yig'indisi nima deb ataladi?

- A. Nazorat muhiti
- B. Korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi
- C. Nazorat amallari
- D. Ichki nazorat tizimi
- E. To'g'ri javob mavjud emas

7. Tegishli xo'jalik muomalalarini yozishga taalluqli hisob siyosati va amallar nima deb ataladi?

- A. Nazorat muhiti
- B. Korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi
- C. Nazorat amallari
- D. Ichki nazorat tizimi
- E. To'g'ri javob mavjud emas

8. Korxona xodimlari tomonidan bajariladigan maxsus tekshiruvlar nima deb ataladi?

- A. Nazorat muhiti
- B. Korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi
- C. Nazorat amallari
- D. Ichki nazorat tizimi
- E. To'g'ri javob mavjud emas

9. Ichki nazorat tuzulmasi qanday tarkibiy qismlarga bo'lingan?

- A. Taftish muhiti, nazorat muhiti
- B. Hisob tizimi, nazorat amallari
- C. Ichki tekshirish va nazorat qilish
- D. Taftish va tekshiruv muhiti
- E. Nazorat muhiti, korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi, nazorat amallari

10. Ichki nazorat muhiti nima?

- A. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining xabardorligi
- B. Ichki nazorat tizimini o'rnatish
- C. Ichki nazorat tizimini qo'llab-quvvatlash
- D. Yuqoridagilarning barchasi
- E. To'g'ri javob yo'q

9-MAVZU: AUDITORLIK DALILLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: Auditorlik dalillar, ularni oldiga qo‘yilgan talablar, auditorlik dalil turlari, dalillarni olish manbalari, dalillarni to‘plash ketma-ketligi, auditorlik amallari va dalillari o‘rtasidagi bog‘liqlik, dalillarni olish usullari, auditorlik dalillaridan auditning tekshiruv ishi natijalaridan foydalanish.

NAZORAT SAVOLLARI

1. “Ishchi hujjatlar” tushunchasini qanday tushunasiz?
2. Auditor tomonidan qanday ishchi hujjatlar tuzilishi mumkin?
3. Mijozga qanday ishchi hujjatlar ko‘rsatilishi mumkin?
4. Auditorlik dalillar nima?
5. Auditorlik dalillarning tayinlanishi qanday tashkil ztiladi va uning oldiga qanday talablar qo‘yiladi?
6. Auditorlik dalillarning qanday turlari mavjud?
7. Auditorlik dalillarning qanday manbalari mavjud?
8. ishchi hujjatlar qanday talablarga javob berishi lozim?
9. Auditorlik amallari va auditorlik dalillarni to‘plash qanday amalgaloshiriladi?
10. Auditorlik dalillarni olishning qanday usullari mavjud?
11. Analitik protseduralar (tahliiliy amallar)nima?
12. Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari deganda nimalarni tushunasiz?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditorlik dalillar va ularning turlari.
2. Auditorlik dalillarini olish manbalari tavsifi.
3. Auditorlik dalillarni olish usullari tavsifi.
4. Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari.
5. Auditorlik dalillarini to‘plash amallari
6. Auditorlik dalililariga qo‘yilgan talablar

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Hisob ko'rsatkichlarining to'g'riligini isbotlovchi ma'lumotlarning to'rt guruhi mavjud:

- 1) amaldagi tekshiruv natijasida olingan tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining inventarizatsiya natijalari;
- 2) 2000 "Asosiy ishlab chiqarish" scheti bo'yicha jurnal-orderlar va boshlang'ich xujjatlar;
- 3) 2800 "Tayyor mahsulotlar" scheti bo'yicha jurnal-orderlar va boshlang'ich xujjatlar;
- 4) auditor ishtiroki bilan MCHJda o'tkaziladigan inventarizatsiya natijasida olinadigan, zaxiralar hisobi aniqligini tasdiqlovchi dalillar.

Talab etiladi. Keltirilgan dalillarning ishochlilik darajasini aniqlash.

2-masala. Quyidagi manbaalardan olingan xujjatlar mavjud:

- 1) uchinchi shaxslardan;
- 2) mijozlardan, tashqi ma'lumotlar asosida;
- 3) mijozlardan, ichki ma'lumotlar asosida;
- 4) auditor tomonidan yig'ilgan MCHJ-mijozning buxgalteriya yozuvlari asosida.

Talab etiladi. Berilgan dalillarni ularni ishonchliligi nuqtai nazaridan baholash.

3-masala. Kuzatuv kengashi yig'ilishlarining bayonnomalarini tekshirish – dalillarni olish jarayonining ajralmas qismidir.

Talab etiladi. Bayonnomalarning tekshiruvi nima uchun muhimligini tushuntirish va bu holda auditor qanday ma'lumotlarni olishni mo'ljallaydi.

1. Agar mijoz axborotning konfidensialliligi sababli mavjud xujjatlarga ruxsatni chekleta, auditor qo'llashi kerak bo'lgan hatti-harakatlarni aniqlash.
2. Auditor bayonnomalarni o'qish vaqtida korxonanining muhim bo'linmalaridan birini sotish bo'yicha Kuzatuv kengashining qarori yo'qligini

aniqlagan holda, auditor qo'llashi kerak bo'lgan qadamlarni sanab o'ting.

4-masala. Qurilish MCHJ ekspluatatsii maqsadlari uchun o'z erida bino qurdi. Auditor qurilish bilan bog'liq harajatlarni aks etiruvchi xujjatlarni oldi.

Talab etiladi. Qurilish tannarxining to'g'ri hisoblanganligini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi dalillarni topish.

1. Mustaqil uchinchi shaxslardan hisobotda aks etgan harajatlarning to'g'riliqi haqida tasdiq olish.

5-masala. "Zarina" MCHJ auditorlik tekshiruvidan o'tkazilayotgan vaqtida auditor tomonidan quyidagi dalillar yig'ilgan edi:

- 1) MCHJ xodimi tomonidan tayyorlangan amaldagi harajatlarning taxlili;
- 2) MCHJ ixtiyorida aksiyalar mavjudligini tasdiqlovchi aksionerlar reestridan ko'chirma;
- 3) auditor ishtirokida o'tkazilgan inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy qiymatliklar inventarizatsiya dalolatnomasi.

Talab etiladi. Dalillarni ularning muhimlilik darajasi bo'yicha tartiblash.

6-masala. "SHaxzod" MCHJ 2019 yilda moliyaviy hisobotni tasdiqlash bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnama tuzish taklifi bilan auditorlik tashkilotiga murojaat qildi.

MCHJ qimmatli qog'ozlar bozorida 2015 yildan beri o'z faoliyatini amalga oshiradi. Faoliyatning 2015-2019 yillar uchun moliyaviy natijalari barqaror va yuqori.

MCHJning moliyaviy hisobotini tekshirish jarayonida auditorlik tashkiloti bino qurilishiga qo'yilgan kapital qo'yilmalarining to'g'ri baholanganligini tasdiqlashi kerak.

Talab etiladi. Yangi bino qurilishi qismida "Kapital qo'yilmalar" moddasini tasdiqlayotgan vaqtida auditor qanday dalillarni olishi kerakligini aniqlash.

7-masala. “Diyor” MCHJ qurilish MCHJ tomonidan “Diyor” MCHJning ombor binolari atrofida joylashgan hududda ta’mir ishlarini amalga oshirish jarayonida etkazilgan zararni baholanishini aniqlash uchun xizmatlarni amalga oshirish bo‘yicha shartnoma tuzish taklifi bilan auditorlik tashkilotiga murojaat qildi.

Variantlar:

1. Omboz binolari atrofida joylashgan hududning ta’miri yong‘in kelib chiqishning sababi bo‘lgan. Bu yong‘in oqibatida butun moddiy qiymatliklar yonib ketgan.
2. Omboz binolari atrofida joylashgan hududning ta’miri suv bilan ta’minalash tarmoqlari shikastlanishining sababi bo‘lgan. Buning natijasida omboz binolarini suv bosgan va moddiy qiymatliklar ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qisman yoki to‘liq yaroqsiz holatga kelgan.

Talab etiladi:

1. Etkazilgan zararni baholanishini aniqlash uchun auditor qanday dallillarni yig‘ishi kerakligini aniqlash.
2. Auditor etkazilgan zararni baholanganligini qanday aniqlashi mumkin.

8-masala. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining to‘g‘riligini tasdiqlovchi quyidagi auditorlik dalillari mavjud:

Haqiqiy tekshirish vaqtida aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarish xajmini ko‘rsatuvchi inventarizatsiya ma’lumotlari

2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti bo‘yicha birlamchi hujjat va jurnal-orderlar

2810- «Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti bo‘yicha birlamchi hujjat va jurnal- orderlar.

Auditoring o‘zi ishtirok etgan ishlab chiqarish zahiralarining inventarizatsiya ma’lumotlari.

Topshiriq: Keltirilgan auditorlik dalillarini ishonchlilik darjasasi bo‘yicha tizimga keltiring.

9-masala. Qurilish tashkiloti o‘ziga tegishli bo‘lgan er maydonida o‘z maqsadlarida foydalanish uchun bino qurdi. Auditor qurilish bilan bog‘liq xarajatlarni miqdorini aks ettiruvchi barcha hujjatlarni to‘pladi.

Talab qilinadi: Qurilish tannarxining to‘g‘ri hisoblanganligini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi auditorlik dalillarini topish.

Hisobotda aks ettirilgan xarajatlarning to‘g‘riligini 3-shaxslardan olingan ma’lumotlar asosida tasdiqlash.

10-masala. «MUBINA» firmasini tekshirish jarayonida auditor quyidagi auditorlik dalillarini to‘pladi:

- 1) «MUBINA» firmasi xodimi tomonidan tayyorlangan haqiqiy xarajatlar tahlili;
- 2) «MUBINA» firmasiga tegishli bo‘lgan aksiyalar miqdori va mavjudligini tasdiqlovchi aksionerlar reestridan ko‘chirma;
- 3) Auditoring o‘zi ishtirok etgan tovar-moddiy zahiralar inventarizatsiyasi dalolatnomasi.

Talab qilinadi: Ushbu auditorlik dalillarining ishonchlilik darajasini aniqlang.

11-masala. Auditor tomonidan kuyidagi auditorlik amallari bajarildi:

- 1) transport vositalarini ro‘yxatga olish hujjatlari tekshirildi;
- 2) transport vositalarini kabul qilishdagi birlamchi hujjatlar va dalalatnomalar tekshirildi;
- 3) transport vositalarining haqiqiy mavjudligi aniqlandi;
- 4) transport vositalarini sotgan mol etkazib beruvchilardan og‘zaki tasdiq olindi.

Talab qilinadi: YUqorida bajarilgan auditorlik amallarining qaysi biri korxonaning transport vositalariga egalik qilish huquqini isbotlab beradi?

12-masala. Quyida keltirilgan dalillarni manbasi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot, tashqi yoki boshqa shu kabilar)ga ko‘ra turkumlang va ularni muhimliligi va ishonchliliga ko‘ra tartib bilan qo‘yib chiqing:

- 1) kreditorlarning oylik hisobotida ko‘rsatilgan summalar;
- 2) tasdiqlangan hujjatlarni ro‘yxatga olish jurnalining «Schyotlar bo‘yicha to‘lovlar» bo‘limida ko‘rsatilgan summalar;
- 3) auditorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘llangan kreditorlar xatidagi ko‘rsatilgan summalar;
- 4) direktorlar Kengashi majlisidan ko‘chirmada ko‘rsatilgan summalar.

13-masala. Auditorlik dalillar bo‘yicha ishchi standart talabiga ko‘ra, auditor muhimlilikka ko‘ra test o‘tkazishning quyidagi keltirilganlarning biridan foydalanishi mumkin a) Xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha testlar o‘tkazish; b) qoldiqlar bo‘yicha testlar o‘tkazish; v) analitik amallar.

Quyida esa alohida auditorlik amallari sanab o‘tilgan va Siz ularni yuqorida aytib o‘tilgan muhimlilikka ko‘ra test o‘tkazishning qaysi turiga kirishini jadval asosida keltirib o‘ting:

1. Haqiqiy natijalar bilan rejadagi ko‘rsatkichlarni solishtirish.
2. CHeklar reestrida qayd etilgan «To‘langan» cheklar bo‘yicha provodkalarni topshirish.
3. To‘lashga doir hisoblangan foizlarni qayta hisob-kitobini o‘tkazish.
4. Zahiralar aylanuvchanlik koeffitsentini hisoblash va tarmoq bo‘yicha taqqoslash.
5. Yil oxiriga bank schyotlarini tekshirish.
6. Realizatsiya jurnali provodkalari bilan schyot-fakturalar hisobini solishtirib tekshirish.
7. Yil oxiriga mavjud korxona kanselyariya zahiralarini inventarizatsiyadan o‘tkazish.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Quyidagilardan qaysinisi auditorlik dalillarning eng ishonchli hisoblanadi?

- A. Uchinchi shaxsnинг og’zaki bildirishlari
- B. Uchinchi shaxsnинг dastlabki hujjatlari
- C. Auditorning bevosita kuzatish va moliya xo’jalik muomalalarini o’rganishi natijasida olingan dalillar
- D. Mijoz korxonani inventarizatsiya kilishdan olingan ma’lumotlar
- E. To’g’ri javob yo’q.

2. Auditorlik amali nima?

- A. Bu mijoz korxonani inventarizatsiya qilishdir.
- B. Bu muayyan audit uchastkasida dalillarni olish uchun auditor tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning ma’lum tartibda va ketma-ketligidir.
- C. Bu uchinchi shaxsnинг og’zaki bildirishlarini yig’ishdir.
- D. Bu mijoz korxonaning bir hujjatlarini boshqalar bilan solishtirishdir.
- E. To’g’ri javob yo’q.

3.Tahliliy amallar nima?

- A. Bu auditor tomonidan olingan ma’lumotlarni baholash, g’ayrioddiy va buxgalteriya hisobida noto’g’ri aks ettirilgan xo’jalik faoliyati faktlarini aniqlash
- B. Bu sintetik va analitik hisob registrlarida dastlabki hujjatlar ma’lumotlarni aks ettirish
- C. Bu mijoz korxonani inventarizatsiya qilish
- D. Bu mijoz korxonaning arifmetir hisob-kitoblarini tekshirish
- E. To’g’ri javob yo’q

4. Auditorlar auditorlik amallarini bajarish chog’ida quyidagilardan qaysinisi bajaradi?

- A. Korxonani tahlil qiladi

- B. Mijoz korxonani inventarizatsiya qiladi
- C. Uchinchi shaxsning og'zaki bildirishlarini yig'adi
- D. Dalillovchi ma'lumotlarni to'playdi
- E. To'g'ri javob yo'q

5. Quyidagilardan qaysinisi auditorlik dalillarini to'plash ketma-ketligiga taalluqli emas?

- A. Auditorlik tekshiruvlari uchun axborotlarni to'plash.
- B. Auditorlik amallarni bajarish va audit jarayonida aniqlangan dalillarni bayon qilish.
- C. Auditorning bevosita kuzatish va moliya xo'jalik muomalalarini o'rGANISHI natijasida olingan dalillar.
- D. To'plangan dalillarni baholash.
- E. To'g'ri javob yo'q.

6. Quyidagilardan qaysinisi auditorlik dalillarini to'plash usullariga taalluqli emas?

- A. Mijoz korxonaning arifmetik hisob-kitoblarini tekshirish.
- B. Ayrim xo'jalik muomalalarni hisobga olish qoidalariiga rivoja kilinishini tekshirish
- C. Inventarizatsiya
- D. To'plangan hujjatlarni baholash
- E. To'g'ri javob yo'q

7. Quyidagilardan qaysinisi auditorlik tashkilotining ish hujjatlari hisoblanmaydi?

- A. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hujjatlarining nusxalari
- B. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning tushuntirishlari, bildirishlari
- C. Auditorlik tashkilotining tahliliy hujjatlari
- D. Auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llanilgan amallar

E. Noto'g'ri javob yo'q

8. Auditorlik dalillari olinish manbasiga ko'ra qaysi turlarga bo'linadi.

- A. Yozma va og'zaki
- B. Tasdiqlovchi, hujjatlashtirilgan
- C. Ichki, tashqi va aralash dalillar
- D. Manbali olingan dalillar
- E. Maxsus tahlil o'tkazilgan dalillar

9. Auditorlik to'plash ketma-ketligidagi eng oxirgi pog'ona qaysi pog'ona hisoblanadi?

- A. Auditorlik tekshiruvlari uchun axborotlarni to'plash
- B. Auditorlik amallarini bajarish va audit jarayonida aniqlangan dalillarni bayon qilish
- C. Auditorlik dalillarini to'plashning maqsadini shakllantirish
- D. Dalillarni baholash
- E. Ekspert dalillariga qo'shimchalar qilish

10. Auditorlik ish hujjatlariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Analistik va sintetik registrlar
- B. Auditni rejalashtirish to'g'risidagi yozuvlar
- C. Muqobil balans
- D. Hujjatlarga qilingan xulosalar
- E. B va D javoblar

10-MAVZU: EKSPERT ISHLARIDAN VA BOSHQA AUDITORLIK TASHKILOTI MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Ekspertlar xizmatidan foydalanish, ekspert ishining maqsadi va hajmi, ekspert xulosasi, ekspert xulosasining tarkibi, ekspert xulosasidan foydalanish

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ekspert deganda kimlar nazarda tutiladi?
2. Auditda ekspert ishlaridan nima maqsadda foydalilanildi?
3. Auditorlik tekshiruvi vaqtida jalb qilinishi mumkin bo'lgan qanday mutaxassislar ekspert deb qabul qilinishi mumkin?
4. Ekspertlar oldiga qanday cheklovlar qo'yilgan?
5. Auditorlik tekshiruvida ekspert ishi natijalaridan qanday foydalilanildi?
6. Ekspert tushunchasi nima?
7. Ekspert xulosasi nimani anglatadi?
8. Boshqa auditorlarning ishi natijalaridan qay tartibda foydalanish mumkin?
9. Asosiy auditor qanday ma'noni anglatadi?
10. Boshqa auditor qanday ma'noni anglatadi?
11. Asosiy va boshqa auditorlarning qanday javobgarliklari bor?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Ekspert tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ekspert ishidan auditorlik dalili sifatida foydalanish tartibi.
3. Ekspert xulosasi.
4. Boshqa auditorlarning ishi natijalaridan foydalanish tartibi.
5. Asosiy auditor va bosh auditorlarning funksiya va vazifalari.
6. Ekspertning huquqlari, majburiyatları va javobgarliklari.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-Masala. Auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan tekshiruv vaqtida ushbu korxonada chet eldan asbob-uskunalar olinganligi ma'lum bo'ldi. Auditor chet el asbob uskunalarini qabul qilish, ularning bahosini to'g'ri aniqlash bo'yicha ma'lum qiyinchiliklarga uchradi. SHu sababli, bojxona xodimini hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini, boj va soliqlarning to'g'ri to'langanligini aniqlab berish uchun ekspert sifatida taklif qildi.

Topshiriq: Bojxona xodimi ekspert vazifasini bajarishi mumkinmi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to'g'ri?

- A. Auditorlik tashkiloti audit o'tkazish chog'ida ekspert xizmatidan faqat, auditorlik tashkiloti rahbari roziligi bilan foydalanishi mumkin
- B. Auditorlik tashkiloti audit o'tkazish chog'ida ekspert xizmatidan faqat, audit o'tkazayotgan shaxs roziligi bilan foydalanish mumkin
- C. Auditorlik tashkiloti audit o'tkazish chog'ida ekspert xizmatidan faqat, korxona rahbari roziligi bilan foydalanish mumkin
- D. Auditorlik tashkiloti audit o'tkazish chog'ida ekspert xizmatidan faqat, korxona joylashgan tuman xokimi roziligi bilan foydalanish mumkin
- E. Auditorlik tashkiloti audit o'tkazish chog'ida ekspert xizmatidan faqat, soliq idorasi rahbari roziligi bilan foydalanish mumkin

2. Ekspertiza xizmati bo'yicha pudrat shartnomasi

- A. Auditorlik firmasi direktsiyasi bilan korxona o'rtasida tuziladi
- B. Korxona bilan taklif qilinayotgan mutaxassis o'rtasida tuziladi
- C. Hech qanday shartnomaga tuzilmaydi
- D. Auditorlik firmasi direktsiyasi bilan taklif qilinayotgan mutaxassis o'rtasida tuziladi
- E. To'g'ri javob berilmagan

3. Ekspertiza xizmati bo'yicha pudrat shartnomasi bo'yicha haq to'lash pudrat uchun

- A. Kartochka naryadini topshirganda amalga oshiriladi
- B. To'lov qaydnomasi tpsHIRILGANDA amalga oshiriladi
- C. Dalolatnama topshirilganda amalga oshiriladi
- D. Nakladnoy topshirilganda amalga oshiriladi
- E. Buxgalteriya ma'lumotnomasi topshirilganda amalga oshiriladi

4. Pudratchi aybi bilan shartnomani bajarish imkonи bo'limganda buyurtmachi haqning necha foizini to'lash shart?

- A. Haqning 50% ini to'lash shart
- B. Haqning 25% ini to'lash shart
- C. Haq to'lamasdan buzishga haqli
- D. Haqning 100% ini to'lash shart
- E. To'g'ri javob berilmagan

5. Qaysi hollarda audit o'tkazish vaqtida ekspert ishidan foydalanish mumkin emas?

- A. Ekspert-korxona rahbari bo'lsa
- B. Ekspert-korxona kreditori bo'lsa
- C. Ekspert bilan yaqin qarindoshlik aloqalari bo'lsa
- D. To'g'ri javob berilmagan
- E. Barcha javoblar to'g'ri

6. Ekspert xulosasida quyidagilarning qaysi biri aks ettiriladi?

- A. Kirish, xotima
- B. Kirish, tekshirish, tushuntirish, xotima
- C. Kirish, tushuntirish, dalillar tarkibi, xotima
- D. Tekshirish, tushuntirish, dalillar tarkibi, xotima
- E. Kirish, tekshirish, xotima

7. Izlanish jarayoni va uning natijalari bayoni ekspert xulosasining qaysi qismiga tegishli?

- A. Kirish
- B. Tekshirish
- C. Dalillar tarkibi
- D. Tushuntirish
- E. Xotima

8. Taxminlarni o’rganish vaqtida qabul qilingan tushuntirish va asoslashlar ekspert xulosasining qaysi qismida ko’rsatiladi?

- A. Kirish
- B. Tekshirish
- C. Dalillar tarkibi
- D. Tushuntirish
- E. Xotima

9. Ekspert xulosasida qanday majburiy rekvizitlar bo’lishi lozim?

- A. Hujjat nomi
- B. Hujjatning sanasi
- C. Ekspertning shaxsiy imzosi
- D. A, B
- E. A, B, C

10. Ekspert xulosasi kimga taqdim qilinadi?

- A. Auditorlik tashkilotining ishchi hujjatlariga qo’shiladi
- B. Korxona rahbariga beriladi
- C. Ekspertning o’zida qolib, u og’zaki tushuncha beradi
- D. Soliq idorasiga taqdim etiladi
- E. To’g’ri javob berilmagan

11-MAVZU: AUDITORLIK TANLASH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Auditorlik tanlash turlari, tanlash ko‘lami, kuzatish birligi, tanlash birligi, tanlash uslublari, tanlab olish hajmi, reprezentativ tanlash, tanlangan ma’lumotlarni tekshiriladigan to‘plamga tadbiq qilish, stratifikatsiyalash, tasodifiy tanlash, sistematik tanlash, uyg‘unlashgan tanlash, tanlash riski.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tanlash nima va u auditda tanlash qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Auditor tekshiruvda tanlovn ni qo‘llashdan maqsadi nima?
3. Tanlashning qanday turlari mavjud va u nimalarga qarab foydalaniladi?
4. Auditorlik tanlashning qaysi usuli samaraliroq va uning qaysi birini tanlashni kim tayinlaydi, u nimaga qarab belgilanadi?
5. Auditorlik tanlashning natijasi nimada aks etadi?
6. Auditorlik tanlashning qanday usullari mavjud?
7. Muvofiq (mos) kelishni tanlab tekshirish deganda nimani tushunasiz?
8. Mohiyatan tanlab tekshirish. Tanlash ko‘lami qanday ta’riflanadi?
9. Kuzatish birligi. Tanlash birligi. Tanlash uslublari qanday ta’riflanadi?
10. Saylab olish hajmi. Salmoqli (reprezentativ) tanlash qanday ta’riflanadi?
11. Tanlangan ma’lumotlarni tekshiriladigan to‘plamga qanaday tadbiq qilinadi?
12. Sistematik tanlash qanday ta’riflanadi?
13. Uyg‘unlashgan tanlash qanday ta’riflanadi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditorlik tanlash tushunchasi.
2. Auditorlik tanlash usullari.
3. Muvofiq (mos) kelishni tanlab tekshirish.

4. Mohiyatan tanlab tekshirish.
5. Tanlash ko'lami va kuzatish birligi hamda tanlash birligi.
6. Tanlash uslublari va saylab olish hajmi.
7. Salmoqli (reprezentativ) tanlash va tanlangan ma'lumotlarni tekshiriladigan to'plamga tadbiq qilish.
8. Tekshiriladigan to'plam va tasodifiy tanlash
9. Tanlash uslubini shakllantirish, tanlash xatarlari va natijalarni baholash.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-Masala. Umumi hujjatlar soni 500ta bo'lib, tanlab tekshiriladigan hujjatlar 50ta.

Topshiriq: Tanlab olish intervalini va tasodifiy tanlash tartibini aniqlang?

2-Masala. Auditor mol etkazib beruvchilar bo'yicha 60 ta hujjatni tekshirib chiqdi va 2 ta hujjatda xatolik aniqlandi. Mol etkazib beruvchilar bo'yicha umumi hujjatlar soni 400 ta.

Topshiriq: Ushbu aniqlangan xatolikning umumi to'plamga ta'sirini aniqlang?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Auditorlik tanlashning populyatsiyasi nimani o'zida ifoda etadi?

- A. Aniqlanadigan elementlar segmentini
- B. Aniqlanadigan segmentni
- C. Aniqlanadigan elementlarning guruhidir
- D. Depression bog'liqlikni
- E. To'g'ri javob mavjud emas

2. Nazorat vositalarini test sinovidan o'tkazishda tanlash risklarining qanday turlari mavjud?

- A. Tanlash natijalari nazorat tizimining ishonchsizligidan dalolat berib, ayni

paytda haqiqatan bu tizim ishonchli bo'lganida to'g'ri gipotezani chiqarib tashlash riski;

- B. Tanlash natijalari nazorat tizimining ishonchlilidan dalolat berib, ayni paytda ushbu tizim ishonchsiz bo'lganida noto'g'ri gipotezani qabul qilish ehtimoli.
- C. Umuman risk mavjud emas
- D. A va B
- E. To'g'ri javob mavjud emas

3. Mohiyatan tanlab tekshirishning vazifasi nimadan iborat?

- A. Ichki nazoratning buzilishini qiymat ifodasida o'lchashdan
- B. Hisob siyosatini tekshirishdan
- C. Buxgalteriya hisobi tizimini tekshirishdan
- D. Ichki nazorat me'yorlarining tez-tez buzilib turishini aniqlashdan
- E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Auditorlik tanlash - ?

- A. Bu alohida hujjatlar, yozuvlar va hokazolar ko'rinishidagi tekshiriladigan to'plamni shakllantirish uchun ma'lum qoidalar asosida tanlab olingan elementlardir
- B. Bu alohida yozuvlar ko'rinishidagi tekshiriladigan to'plamni shakllantirish uchun ma'lum qoidalar asosida tanlab olingan elementlardir
- C. Bu alohida hujjatlar, yozuvlar va hokazolar ko'rinishidagi tekshiriladigan to'plamni shakllantirish uchun ma'lum qoidalar asosida tanlab olingan moddalardir
- D. Bu alohida hujjatlar, yozuvlar va hokazolar ko'rinishidagi tekshiriladigan to'plamni shakllantirish uchun tanlab olingan elementlardir
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. Muvofiq (mos) kelishni tanlab tekshirishning vazifasi nimadan iborat?

- A. Ichki nazoratning buzilishini qiymat ifodasida o'lchashdan
- B. Hisob siyosatini tekshirishdan
- C. Buxgalteriya hisobi tizimini tekshirishdan

- D. Ichki nazorat me'yorlarining tez-tez buzilib turishini aniqlashdan
- E. To'g'ri javob mavjud emas

6. Tanlab tekshirish nimalarни о'з ichiga oladi?

- A. Tanlash ko'lami, kuzatish birligi
- B. Tanlash birligi, tanlash uslublari
- C. Saylab olish hajmi, salmoqli (reprezentativ) tanlash
- D. A va B
- E. A, B va D

7. Qanday tanlashga uyg'unlashgan tanlash deb ataladi?

- A. Tasodifiy sonlar jadvali bo'yicha tanlash
- B. Tasodifiy va sistematik tanlash usullarining yig'indisi
- C. Bunda elementlar tasodifan tanlangan ma'lum bir sondan boshlab, har bir doimiy interval tanlab olingan usul
- D. A va B
- E. A, B va D

8. Tanlov o'tkazishda auditorlik tashkiloti o'r ganiladigan butun to'plamni alohida guruhlar (quyi to'plamlar)ga bo'lish nima deb ataladi?

- A. Stratifikatsiyalash
- B. Dispersiyalash
- C. Ekstrapolyatsiyalash
- D. Determinlash
- E. To'g'ri javob mavjud emas

9. Auditorlik tashkiloti auditorlik tanlashning barcha bosqichlarini va uning natijalari tahlilini qaysi hujjatda aks ettiradi?

- A. Auditorlik shartnomada
- B. Auditorlik hisobotida

- C. Auditorlik xulosasida
- D. Auditorning ishchi hujjatlarida
- E. To'g'ri javob mavjud emas

10. Tekshiriladigan to'plamning barcha elementlaridan teng miqdorda tanlanish ehtimolining ta'minlanishi nima deb ataladi?

- A. Dispersiya
- B. Ekstrapolyatsiya
- C. Reprezentativlik
- D. Stratifikatsiya
- E. To'g'ri javob mavjud emas

12-MAVZU: AUDITORLIK TEKSHIRUVINING YAKUNIY BOSQICHI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Tekshiruvning yakuniy bosqichi, audit natijalarini baholash, auditorlik hisoboti, uning tarkibi, tuzish tartibi, auditorlik xulosasi va uning tarkibi, xulosa turlari, xulosa tuzishdan voz kechish, hisobot va xulosa uchun javobgarlik.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Audit natijalariga qanday baho beriladi?
2. Auditorning ishchi hujjatlarini tahlil qiling deganda nimalar nazarda tutilgan?
3. Auditorlik xulosasi qanday tuziladi, uning tarkibi nimalardan iborat bo‘ladi va ularda asosan qanaqa ma’lumotlar aks etadi?
4. Auditorlik xulosa kimga taqdim etiladi?
5. Auditorlik xulosasining kirish qismida nima aks etadi?
6. Auditorlik xulosasining analitik qismida nima aks etadi?
7. Auditorlik xulosasining xulosa qismida nima aks etadi?
8. Audit standartlari bo‘yicha xulosasining nechta va qanday turlari, shakllari mavjud va ular nimalarga asoslanib rasmiylashtiriladi?
9. Qanday holatlar auditorlik xulosasining turini aniqlaydi:
 - ijobiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi;
 - modifikatsiyalangan fikr;
 - salbiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi;
 - izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi;
 - fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi.
10. Tekshirish natijalarini baholashda muhimlilik tamoyiliga asoslaniladimi, bunga sabab nima?
11. Aniqlangan xatolar jiddiyligiga baho bering.
12. Aniqlangan xatoliklarni to‘g‘rilash yuzasidan maslahatlar bering hamda keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar haqida ma’lumotlar bering.

13. Holatlar bo‘yicha xulosalarni 1-jadvalda aks ettiring, shuningdek auditorlik xulosasining analitik va yakuniy qismini tayyorlash uchun olingan natijaviy ma’lumotlarga izoh yozing.

14. Auditorlik xulosasining sanasi va auditorlik xulosasidagi imzolar to‘g‘risida nimalar bilasiz?

15. Auditorlik xulosasida adresat qanday ko‘rsatiladi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash.
2. Auditorlik xulosasi va hisoboti.
3. Auditorlik hisoboti uchun javobgarlik.
4. Auditorlik xulosasining tuzilishi.
5. Auditorlik xulosalarining turlari.
6. Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish.
7. Auditorlik xulosasi uchun javobgarlik

MAVZU BO‘YICHA MASALALAR

Topshiriqni bajarish uchun shartlar:

1. Ma’lumotlarning yakunini 18-jadval ko‘rinishida rasmiylashtirish lozim.
2. Auditorning ishchi hujjatlarini tahlil qilishda sifat nazoratini o‘tkazish kerak bo‘ladi. CHunki, xulosani ob’ektiv berish uchun etarli auditorlik dalil hujjatlarini yig‘ish lozim bo‘ladi.
 - ishchi hujjatlarni tahlil qilishda auditor ishonch hosil qilish kerakki, audit dasturi talablariga amal qilinishini (bajarilgan ishlar xarakteri va hajmi qayd etilishi);
 - ishchi hujjatlar aniq shaklda, sodda va izohsiz taqdim qilinishi;
 - ishchi hujjatlardagi ma’lumotlar hisob va hisobotning mazmunini tashkil qilishi va auditorlik xulosaning analitik qismiga xulosa berishga muvofiqligi;

3. Auditorlik xulosasi 70-son «Moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi» nomli AFMS (Ilova ko‘rsatilgan talablariga muvofiq tayyorlanishi lozim.

4. Auditorlik xulosaning kirish qismini tuzish uchun ilovadagi ma’lumotlardan foydalilanadi.

5. Auditorlik xulosaning analistik qismi ishchi hujjatlardagi ma’lumotlarga muvofiq ilovadagi holatlarda tanlab olingan variantlarga asosan tuziladi.

6. Auditorlik xulosaning turi mashg‘ulotlardagi tanlab olingan variantlarning ma’lumotlarini umumlashtirish asosida aniqlanadi.

18-jadval.

Tekshirish natijalari

Ishchi hujjatlar manbalariga asoslanib dalil keltirish	Qoida buzilishning mohiyati	Ta’siri					
		Balans		Soliq solish bazasi		Soliqlar	
		Aktiv	Pas-siv	Ko‘rsat-kich	Summa	Soliq turi	Summa
	Jami:						

19-jadval

Holatlar yuzasidan yakun

Tekshirish rejasি	Holat	Aniqlangan xatolik mohiyati	Qaysi me’yoriy hujjat buzilgan	Aniqlangan xatolik jiddiyligi	Ta’siri		Xatolarni to‘g‘rilash yo’llari
					Moliyaviy hisobotga	Soliqqa tortiladi gan bazaga	

1-masala. «SOLIHA» korxonasi qurilish mollari sotish bilan shug‘ullanadi. Qurilish mollarini sotish naqd pulga va pul o‘tkazish yuli bilan amalgalashiriladi. 201X yilda «Odina» MCHJ ning sotishdan tushgan sof tushumi 75000 ming so‘mni, shu jumladan naqd pulga sotilgan tovarlar hajmi 7250 ming so‘mni tashkil etgan. Naqd pulga sotilgan tovarlar nazorati va hisobi talab darajasida yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli auditor zarur auditorlik amallarini qo‘llab, etarli dalil to‘play olmadi.

Talab qilinadi:

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday xulosa berishi kerak?

2-masala. Auditorlik hisobotini imzolashdan oldin, auditor shuni aniqladiki, mijozning filiallaridan biriga kuchli shamol tufayli katta zarar etkazilgan. Bu hodisa moliyaviy hisob sanasidan keyin ro'y bergen. Zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplanmaydi.

Talab qilinadi: Bu hodisa kompaniyaning moliyaviy hisobotiga ta'sir ko'rsatadimi? Agar shunday bo'lsa buxgalteriya hisobida nima o'zgaradi?

3-masala. Audit o'tkazish davrida keyingi yilning boshida shartnomaga tuzilgan bo'lib, unga ko'ra sizning mijozingiz tovar-moddiy boyliklar sotadi va hisobot yilidagiga nisbatan 10 marta ko'proq daromad olishini aniqladingiz.

Talab qilinadi: Bu xo'jalik muomalasi tekshirilayotgan yil hisobotiga va auditor xulosasiga qanday ta'sir qiladi?

4-masala. Dorman Home Builders kompaniyasi bosh buxgalteri kasalligi tufayli, tugayotgan hisobot davri uchun malakasi yuqori bo'lмаган buxgalter yordamchisi kompaniyaning buxgalteriya balansini tuzdi. Tuzilgan balansda bir qator xatoliklar mavjud. Yordamchi buxgalter qisman balans to'g'risida tushunchaga ega ekanligi va uning barcha muomalalarining natijalarini qo'shilishi, ya'ni yig'ish orqali tuzilishini bilganligi bois kompaniya balansini tuzdi. Lekin natijalar balans (tenglik)ni keltirib chiqarmadi va tenglikni keltirib chiqarish uchun u xususiy kapital summasiga korrektirovka kiritish orqali balansni chiqardi. Balans moddalari summalarini to'g'ri aks ettirilgan, ammo xususiy kapital summasida xatolik mavjud.

**Dorman Home Builders kompaniyasining
201X yil 1 yanvar holatiga buxgalteriya balansi**

Aktiv	Summa	Majburiyatlar	Summa
Kassa	2,000	Olinadigan schyotlar	3000
Kantselyariya tovarlari	1,000	Xizmat ko'rsatishdan olingan daromad	35,000
Kapital qo'yilmalar	22,000	Mulk solig'i bo'yicha xarajatlar	800
Reklama xarajatlari	500	To'lanadigan schyotlar	8,000
Ofis mebeli	10,000	Xususiy kapital	
To'lanadigan qarzlar	16,000		
Ijara xarajatlari	4,000	Jami xususiy kapital	8,700
Jami aktivlar	55,500	Jami majburiyatlar va xususiy kapital	55,500

Talab qilinadi:

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. 201X yil 1 yanvar holatiga to'g'ri buxgalteriya balansini tuzing. Aktivlar va majburiyatlar summasini hisoblang.
3. Xususiy kapitalning to'g'ri summasini chiqarish uchun farqlarni aniqlang.
4. Yuqorida keltirilgan moddalarning ayrimlari nima uchun buxgalteriya balansida aks ettirilmasligi kerakligini izohlang.

5-masala. Audit o'tkazish davrida keyingi yilning boshida shartnoma tuzilgan bo'lib, unga ko'ra sizning mijozingiz tovar-moddiy boyliklar sotadi va hisobot yilidagiga nisbatan 10 marta ko'proq daromad olishni aniqladingiz.

Talab qilinadi:

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Bu xo'jalik muomalasi tekshirilayotgan yil hisobotiga va auditor xulosasiga qanday ta'sir qiladi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish qaysi jarayonida vujudga keladi?

- Audit rejasining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi

natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida

- B. Audit dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida
- C. Audit rejasи va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish jarayonida
- D. Audit rejasи va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

2. Auditor qaysi hollarda katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni ob'ektiv baholashi shart emas?

- A. Tekshiruv uchun zarur bo'lган, auditorga o'з vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalik muomalalari mavjud bo'lganda
- B. Mutaxassislar hisob-kitoblarida nomuvofiqliklar bo'lganda
- C. Inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash vedomostlari bilan rasmiylashtirilgan, lekin etarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar bo'lganda
- D. Katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganida
- E. To'g'ri javob mavjud emas

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining umumiyl tavsifi auditorlik hisobotining qaysi qismida ko'rsatiladi?

- A. Adresat
- B. Kirish
- C. Tahlil
- D. Yakuniy
- E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Auditorlik xulosasi nechta qismdan iborat?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. Auditorlik xulosasiga qaysi qatorda to'liqroq va aniqroq javob berilgan?

- A. Moliyaviy hisobotning to'g'riliqi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat
- B. Buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat
- C. Moliyaviy hisobotning to'g'riliqi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'ektga taqdim etilgan hujjat
- D. Moliyaviy hisobotning to'g'riliqi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining maxfiy fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat
- E. To'g'ri javob mavjud emas

6. Auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechish ayrim qaysi hollarda yuzaga keladi?

- A. Auditor mustaqilligini yo'qotganida
- B. Balans tuzilgan sanadan keyin jiddiy hodisalar sodir bo'lganda
- C. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan audit o'tkazish sohasi cheklab qo'yilganida

- D. Ayrim murakkab vaziyatlar tufayli audit o'tkazish sohasi cheklab qo'yilganida
- E. Barchasi to'g'ri

7. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar auditorlik hisobotining qaysi qismida ko'rsatiladi?

- A. Adresat
- B. Kirish
- C. Tahlil
- D. Yakuniy
- E. To'g'ri javob mavjud emas

8. Auditorlik tekshiruvi hajmining cheklanganligi deb nimaga aytildi?

- A. Bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt vakillari yoki uchinchi shaxslarning, boshlab qo'yilgan auditorlik tekshiruvini, auditor auditorlik xulosasi tayyorlash uchun etarli deb hisoblaydigan hajmda o'tkazishga to'sqinlik qilishga qaratilgan ochiqdan-ochiq ko'rsatadigan hatti-harakatlari yoki harakatsizligidir
- B. Auditorlik tekshiruvida inventarizatsiyani o'tkazilmasligidir
- C. Bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt vakillari yoki uchinchi shaxslarning, boshlab qo'yilgan auditorlik tekshiruvini, auditor auditorlik xulosasi tayyorlash uchun sifatli o'tkazishga to'sqinlik qilishga qaratilgan ochiqdan-ochiq ko'rsatadigan hatti-harakatlari yoki harakatsizligidir
- D. To'g'ri javob mavjud emas
- E. Barchasi to'g'ri

9. Auditor auditorlik xulosasini berishdan bosh tortishi hamda salbiy auditorlik xulosasi berishi orasida qanday farq bor.

- A. Hech qanday farq mavjud emas, bu ikkisi bir xil.
- B. Agarda auditor xulosasini berishdan bosh tortsa demak auditorda buxgalteriya hisoboti ishonchliligi borasida hech qanday fikr tug'ilmagan.

- C. Qaror qilish sababi bir xil, ammo rad etish mijoz uchun ma'qul tushadi.
- D. A va C
- E. To'g'ri javob yo'q

10. Auditorlik hisoboti nechta qismdan iborat?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5
- E. 6

13-MAVZU. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITI

13.1. ASOSIY VOSITALAR AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Asosiy vositalar, ularning auditini o‘tkazish bo‘yicha dastur tuzish, auditda foydalanadigan ma’lumot manbalari, asosiy vositalar hisobini hujjatlashtirish, asosiy vositalarning analistik va sintetik hisobi audit, asosiy vositalarni soliqqa tortishni tekshirish, lizing munosabatlari va ijara majburiyatlari audit, xo‘jalik va pudrat usulida bajarilgan ishlar audit.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Asosiy vositalar hisobini audit qilishda qanday me’yoriy hujjatlarga asoslaniladi?
2. Asosiy vositalarni to‘g‘ri baholanganligini qanday tekshirib ko‘rish mumkin?
3. Asosiy vositalarni mavjudligi va saqlanishini tekshirish uchun qanday auditorlik protseduralari qo‘llaniladi?
4. Asosiy vositalar hisobini audit qilishda qanday hujjatlar va buxgalteriya schyotlari tekshirish manbalari bo‘lib xizmat qiladi?
5. Asosiy vositalarni kirim qilinishi qanday tekshiriladi (tekinga, jismoniy va yuridik shaxslardan sotib olish, qurish, hissa qo‘shish orqali va hokazo)?
6. Transport vositalarini sotib olishni tekshirish xususiyatlari nimadan iborat?
7. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi (tugatilishi) qanday tekshiriladi?
8. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashni to‘g‘riligini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
9. Asosiy vositalarni ta’mirlash bo‘yicha muomalalarni tekshirishda nimalarga e’tibor beriladi?
10. Tekinga berilgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishini tekshirish xususiyatlari nimalardan iborat?
11. Ijaraga berilgan asosiy vositalarni tekshirish qanday amalga oshiriladi?

12. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda qanday me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi?

13. Lizing munosabatlari va ijara majburiyatları auditi qanday amalga oshiriladi?

14. Xo'jalik usuli va pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari auditining qanday xususiyatlari mavjud?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Asosiy vositalar auditini tashkil etish va o'tkazish ketma-ketligi.

2. Asosiy vositalar auditida foydalaniladigan ma'lumotlar manbalari.

3. Asosiy vositalarning mavjudligi va saqlanishini tekshirish xususiyatlari.

4. Asosiy vositalar harakati auditi.

5. Asosiy vositalar kirimi va chiqimiga doir muomalalarni hujjatlashtirish, schyotlarda aks ettirish hamda soliqqa tortishning to'g'rilagini tekshirish.

6. Lizing munosabatlari va ijara majburiyatları auditi.

7. Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning to'g'rilagini tekshirish. 8. Asosiy vositalarni ta'mirlash auditi.

9. Xo'jalik va pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari auditining xususiyatlari.

Asosiy vositalar auditining asosiy vazifalari

1. Asosiy vositalarni hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirilishi, ularning butligi va harakatining to'g'rilagini tekshirish.

2. Asosiy vositalarni baholash va qayta baholashning to'g'rilagini tekshirish.

3. Asosiy vositalarni kirimi chiqimi muomalalari bo'yicha provodkalarni to'g'ri berilganligini va to'liqligini hamda hisob registrlarida to'g'ri aks ettirishni tekshirish.

4. Asosiy vositalarni saqlanishi va ulardan foydalanishni nazorat qilish.

5. Hisoblangan amortizatsiya ajratmalarini va ta'mirlash xarajatlarni to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

6. Asosiy vositalar muomalalari bo‘yicha hisoblangan soliqlarning to‘g‘riligini tekshirish.

MAVZU BO‘YICHA MASALALAR

1-masala. Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditor 2460 ming so‘mlik asosiy vosita sotilganligini aniqladi. Bu muomalalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks etgan:

Asosiy vositaning balans qiymatiga:

D-t 9210 K-t 0130 2460 ming so‘m

Asosiy vositaning eskirish summasiga:

D-t 0260 K-t 9210 1200 ming sum

Asosiy vosita uchun pul kelib tushgan:

D-t 5110 K-t 9210 2460 ming sum

Asosiy vositani sotishdan moliyaviy natija aniqlangan:

D-t 9430 K-t 9210 2340 ming sum.

Talab qilinadi: Yo‘l qo‘yilgan xatoni aniqlab, to‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini bering. Auditorlik hisobotining asosiy vositalar bo‘limi uchun ma’lumot tayyorlang.

2-masala. Buxgalteriya hisobini tiklab berish yuzasidan xizmat ko‘rsatayotgan vaqtda auditor quyidagi xolatni aniqladi:

Korxonada ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangin asosiy vosita sotib olingan bo‘lib, uning qiymati QQS bilan birgalikda 12000 ming so‘mni tashkil etadi. Asosiy vositani montaj qilish uchun montaj tashkilotiga QQS bilan birga 1200 ming so‘m pul to‘langan. Asosiy vosita uchun amortizatsiya me’yori 15%. Auditordan asosiy vositani kirimga olish, uch oylik amortizatsiya hisoblash va 2 koeffitsient asosida asosiy vositaning qiymatini oshirish (qayta baholash) talab qilinadi.

Talab qilinadi: Ushbu muomalarni amalga oshiring va buxgalteriya schyotlarida aks ettiring. Asosiy vositalarni qabul qilishda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni aytинг?

3-masala. Korxonada muddatidan avval eskirishi oqibatida ikkita boshlang‘ich qiymati 135000 so‘mdan bo‘lgan muzlatgich hisobdan chiqarilgan. Muzlatgichlardan birining amortizatsiya ajratmalari 118000 so‘mni, ikkinchisiniki esa 120000 so‘mni tashkil qilgan. Tugatish dalolatnomasida amortizatsiya to‘liq hisoblanmaganligining sababi ularni ta’mirlash uchun ehtiyyot qismlar yo‘qligi deb ko‘rsatilgan. Muzlatgichlarni hisobdan chiqarish uchun ishchilarga demontaj uchun 3750 so‘m ish haqi hisoblangan, 4000 so‘m metalalom hamda 9500 so‘mlik ehtiyyot qismlar korxona omboriga kirim qilingan. Korxona buxgalteri tomonidan muzlatgichlarni hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan moliyaviy natijani 30650 so‘m deb baholab, uni 9590 schyotga hisobdan chiqargan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

4-masala. Auditorlik tekshiruvi jarayonida shu narsa aniqlandiki, tekshirish davrida tasdiqlangan dalolatnomaga muvofiq eskirish natijasida 2 dona yuk ko‘taradigan uskunalar hisobdan chiqarilgan. Ular bo‘yicha amortizatsiya summasi 140000 so‘mni tashkil etadi. Hisobdan chiqarish natijasida 3000000 so‘mlik metallom kirimga olingan. YUk kqtargich uskunalarini demontaj qilish uchun ishchilarga 280000 so‘m ish haqi hisoblangan va 2010-»Asosiy ishlab chiqarish schyotiga» o‘tkazilgan. Kirimga olingan metallom buxgalteriya hisobida 1090 schyotning debeti va 9320-schyotning kreditiga yozuv qilingan. Har bir yuk ko‘targich uskunasining tugatish natijalari buxgalteriyada alohida hisobga olinmagan va tegishli analitik schyotlarda aks ettirilmagan. Dalolatnomada ko‘rsatilishicha yuk ko‘tarish uskunalarini muddatidan ilgari hisobdan chiqarilishiga asosiy sabab undan uzlusiz ravishda foydalanilganligi va yuqori namlik joyda ishlatilishi ekanligi kqrsatilgan.

Korxona buxgalteri tomonidan buxgalteriya hisobi registrlarida yuqoridagi muomalalar quyidagicha aks ettirilgan:

D-t 9210 sch, K-t 0130 sch -180000 so‘m

D-t 0230 sch, K-t 9210 sch -140000 so‘m

D-t 9431 sch, K-t 9210 sch -403000 so‘m

D-t 1040 sch, K-t 9210 sch -300000 so‘m

D-t 2010 sch, K-t 6710 sch -280000 so‘m

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, ushbu muomalalar bo‘yicha auditorlik dalolatnomasini tuzing.

5-masala. Korxona tomonidan joriy yilda binoning rekonstruksiyasi uchun 3 yil muddatga xorijiy valyutada kredit olingan. Loyiha bo‘yicha o‘tgan yilning dekabr oyida ishlar tugatilgan va ob’ekt ishga tushirilgan. Hisobot yilida mazkur shartnama bo‘yicha bank xizmati uchun va uning foizi uchun to‘lovlarni amalga oshirgan. Lekin o‘tgan yillarda olingan kreditor qarzlar o‘z vaqtida to‘lab berilmagan. Buxgalteriya hisobida valyuta bo‘yicha kreditlar quyidagicha aks ettirilgan:

D-t 2010 schyot - 132000 so‘m.

k-t 5210 schyot - 132000 so‘m.

(SHu jumladan 120000 so‘m - kredit uchun foiz 12000 so‘m - bank xizmati).

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘liq va to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, ushbu muomalalar bo‘yicha auditorlik dalolatnomasini tuzing.

6-masala. Korxonada asosiy vositalarni tanlov asosida inventarizatsiya qilishda dastlabki narxi 800000 so‘m, amortizatsiyasi 300000 so‘mlik ob’ekt etishmasligi aniqlandi.

Hisobot yilining dekabr oyida bu ob’ekt shartnomaga ko‘ra uning narxi 156000 so‘m inventarizatsiya o‘tkazish paytida auditorga shartnama va qabul topshirish akti taqdim etilgan. Auditorlik tekshirushi jarayonida korxona asosiy vositalaridan bir qismini sotib yuborganligi va bu muomalalar buxgalter tomonidan o‘z vaqtida hisobga olinmaganligi aniqlandi. SHuningdek, ushbu xo‘jalik

muomalalari hisobot yilining 31 dekabrigacha bo‘lgan holati bo‘yicha buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilmaganligi tekshiruv jarayonida ma’lum bo‘ldi.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘liq va to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, ushbu muomalalar bo‘yicha auditorlik dalolatnomasini rasmiylashtiring.

7-masala. Audit jarayonida tekshirilayotgan korxonada 2018 yilda transport vositalari va kompyuterlar bo‘yicha amortizatsiya hisoblanmaganligi aniqlandi:

a) “Damas” avtomobili 2012 yil 31 avgustda olingan. Sonlar yig‘indisi usuli bo‘yicha amortizatsiya hisoblanadi. Soliq kodeksida 5 yil mobaynida to‘g‘ri chiziqli usulni qo‘llash tavsiya etilgan.

b) Kompyuterlar 2018 yil 1 iyulda olingan. Korxona hisob siyosatida 5 yil mobaynida kamayib boruvchi qoldiq usulidan foydalanish belgilangan, soliq kodeksida esa to‘g‘ri chiziqli usulni qo‘llash tavsiya etilgan.

Talab qilinadi: Auditor amallarini bajaring, maslahatlar bering.

8-masala. «Sport majmuasi» 2018 yil 1 aprelda tennis maydonchasini qurish uchun er uchastkasini 37000 sh.b. sotib oldi. Er uchastkasini baholash ko‘chmas mulkni mustaqil baholovchilar tomonidan amalga oshirildi va baholash uchun 3000 sh.b. to‘landi. Majmuaning qurilishi pudratchi qurilish kompaniya tomonidan amalga oshirildi va xizmatlari uchun 60000 sh.b. to‘landi, shu jumladan qurilish maydonidagi eski binoni buzish uchun 4500 sh.b. Barcha sanab o‘tilgan xarajatlar «Tugallanmagan qurilish» schetida aks ettirilgan. Tennis majmuasining qurilishi 1 oktyabr 2018 yilda tugatilgan. Biroq buxgalteriyada tegishli yozuvlar amalga oshirilmagan. Maydonchaning xizmat muddati 5 yil, tugatish qiymatiga ega emas, to‘g‘ri chiziqli usulda amortizatsiya hisoblanishi nazarda tutilgan.

Talab qilinadi: Auditorlik amallarini bajaring.

9-masala. “AVS” korxonasi ma’lum bir turdag'i asosiy vositani sotib oldi. Asosiy vositani sotib olish bahosi 100000 sh.b. (QQS bilan birga) SHu bilan birga quyidagicha xarajatlar qilingan, ya’ni

- Asosiy vositani olib kelish xarajatlari - 10000 sh.b.
- O‘rnatish xarajatlari – 2000 sh.b.
- Byudjetdan tashqari fondlarga ajratma – 100 sh.b.

SHunda buxgalter quyidagicha o‘tkazmalar bajargan:

1) Dt 0820 100000	2) Dt 4410 20000
Kt 6010 100000	Kt 6010 20000
3) Dt 0820 10000	4) Dt 0820 2000
Kt 6010 10000	Kt 6710 2000
5) Dt 0100 112000	
Kt 0820 112000	

Korxona buxgalteri yo‘l qo‘ygan xatoni va bu yo‘l qo‘yilgan xato qanday oqibatlarga olib kelishini aniqlang.

10-masala. Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditor 3640 ming so‘mlik asosiy vosita sotilganligini aniqladi. Bu muomalalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks etgan:

Asosiy vositaning balans qiymatiga:

Dt 9210 Kt 0130 3640 ming so‘m

Asosiy vositaning eskirish summasiga:

Dt 0260 Kt 9210 1500 ming so‘m

asosiy vosita uchun pul kelib tushgan:

Dt 5110 Kt9210 3640 ming so‘m

Asosiy vositani sotishdan moliyaviy natija aniqlangan:

Dt 9430 Kt9210 3560

Yo‘l qo‘yilgan xatoni aniqlab, to‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini bering. Auditorlik hisobotining asosiy vositalar bo‘limi uchun ma’lumot tayyorlang.

11-masala. Korxonada asosiy vositalarni tanlov asosida inventarizatsiya qilishda dastlabki narxi 750000 so‘m, amortizatsiya 250000 so‘mlik ob‘ekt etishmasligi aniqlandi.

Hisobot yilining dekabr oyida bu ob‘ekt shartnomaga ko‘ra uning narxi 166000 so‘m amortizatsiya o‘tkazish paytida auditorga shartnoma va qabul topshirish akti taqdim etilgan. Auditorlik tekshiruvi jarayonida korxona asosiy vositalaridan bir qismini sotib yuborganligi va bu muomalalar buxgalter tomonidan o‘z vaqtida hisobga olingmaganligi aniqlandi. SHuningdek, ushbu xo‘jalik muomalalari hisobot yilining 31 dekabrigacha bo‘lgan holati bo‘yicha buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilmaganligi tekshiruv jarayonida ma’lum bo‘ldi.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘liq va to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, ushbu muomalalar bo‘yicha auditorlik dalolatnomasini rasmiylashtiring.

12-masala. “Fayz” korxonasi mebel ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Korxona 201X yilda tashkil topgan va shu yilda mebellarni qoplashga moslashgan uskuna sotib olgan va hisob siyosatiga muvofiq tezlashgan amortizatsiya usulidan foydalanadi.

Uskunani 201X yildagi sotib olish bahosi 1000000 so‘m bo‘lgan. foydali xizmat muddati 5 yil. Tugatish qiymati 100000 so‘m.

1 yil 1000000-40 %

2 yil 600000-40 %

3 yil 360000-40%

4 yil 216000-40%

5 yil qoldiq-29600

SHu yilda amortizatsiya hisoblanishi kerak edi. Lekin xarajatlarni kamaytirish maqsadida buxgalter yillar yig‘indisi usulini tanlagan.

Talab qilinadi: Yo‘l qo‘yilgan xatolik va shu xatoliklarning korxonaga ta’sirini aniqlang?

13-masala. Buxgalteriya hisobini tiklab berish yuzasidan xizmat ko‘rsatayotgan vaqtida auditor quyidagi holatni aniqladi:

Korxonada ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan asosiy vosita sotib olingan bo‘lib, uning qiymati QQS bilan birgalikda 13 million so‘mni tashkil etadi.

Asosiy vositani montaj qilish uchun montaj tashkilotiga QQS bilan birga 1300 ming so‘m to‘lagan. Asosiy vosita uchun amortizatsiya me’yori 15%. Auditordan asosiy vositani kirimga olish, uch oylik amortizatsiya hisoblash va 3 koeffitsent asosida asosiy vositaning qiymatini oshirish (qayta baholash) talab qilinadi.

Talab qilinadi: Ushbu muomalalarni amalga oshiring buxgalteriya schetlarida aks ettiring. Asosiy vositalarni qabul qilishda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni aniqlang.

14-masala. Korxona tomonidan joriy yilda binoning rekonstruktsiyasi uchun 2 yil muddatga xorijiy valyutada kredit olingan. Loyiha bo‘yicha o‘tgan yilning dekabr oyida ishlar tugatilgan va ob’ekt ishga tushirilgan. Hisobot yilida mazkur shartnomaga bo‘yicha bank xizmati uchun va uning foizi uchun to‘lovlarni amalga oshirgan. Lekin o‘tgan yillarda olingan kreditor qarzlar o‘z vaqtida to‘lab berilmagan. Buxgalteriya hisobida valyuta bo‘yicha kreditlar quyidagicha aks ettirilgan:

Dt 2010 146000 so‘m

Kt 5210 146000 so‘m

(SHu jumladan, 134000 so‘m-kredit uchun foiz, 34000 so‘m – bank xizmati uchun)

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘liq va to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, ushbu muomalalar bo‘yicha auditorlik dalolatnomasini tuzing.

15-masala. Korxonadan muddatidan avval eskirish oqibatida ikkita boshlang‘ich qiymati 145000 so‘mdan bo‘lgan muzlatkich hisobdan chiqarilgan. Muzlatkichlardan birining amortizatsiya ajratmalari 115000 so‘mni, ikkinchisiniki esa 110000 so‘mni tashkil qilgan. Tugatish dalolatnomasida amortizatsiya to‘liq hisoblanmaganligining sababi ularni ta’mirlash uchun ehtiyyot qismlar yoqilg‘i deb ko‘rsatilgan. Muzlatkichlarni hisobdan chiqarish uchun ishchilarga demontaj uchun 5650 so‘m ish haqi hisoblangan, 6000 so‘m metallom hamda 11000 so‘mlik ehtiyyot qismlar korxona omboriga kirim qilingan. Korxona buxgalteri tomonidan muzlatkichlarni hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan moliyaviy natijani 45000 so‘m deb baholab, uni 9590 schetga hisobdan chiqarilgan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

16-masala. Ta’sis hujjatlariga ko‘ra ma’suliyati cheklangan jamiyat ustav kapitali – 15000 ming so‘m. Jamiyat ta’sischi jismoniy shaxs bo‘lib, u ulush sifatida texnologik uskunani kiritdi. Uskunani etkazib berish bo‘yicha xarajatlar QQS bilan birga 245000 so‘mni tashkil etdi.

Uskuna – ulushning boshlang‘ich qiymati 1625 ming so‘m, uning korxona tomonidan kirim qilinishi quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalarida aks ettirilgan:

- | | |
|-------------------|-----------------|
| 1) Dt 4610 1500 | 2) Dt 0820 1625 |
| Kt 8330 1500 | Kt 4610 1625 |
| | |
| 3) Dt 0820 245000 | 4) Dt 0120 1500 |
| Kt 2310 245000 | Kt 0820 1500 |

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlang.

17-masala. Korxona uskuna sotib oldi. Oldi-sotdi shartnomasida uskunaning narxi AQSH dollarida ko‘rsatilgan - 15000 \$. SHartnomaga ko‘ra to‘lov (100%) Markaziy bankning to‘lov sanasidagi kurs bo‘yicha so‘mda amalga oshiriladi.

To‘lov 5 sentyabrda amalga oshirildi, uskuna esa 18 sentyabrda olindi. AQSH dollarining so‘mga nisbatan kursi quyidagicha bo‘lgan:

5-sentyabrda – 1 AQSH dollari 1422.6 so‘m

18 sentyabrda – 1 AQSH dollari 1426.24 so‘m

Uskunaning boshlang‘ich qiymati – 2139360 so‘mni tashkil qiladi.

Talab qilinadi: Ushbu muomalalarnii buxgalteriya hisobida aks ettiring.

18-masala. “MALIKA” firmasi ayollar kiyimini tikish bilan shug‘ullanadi. Bu firma 200X yilda tashkil topgan. Firma quyidagi asosiy vositalarga ega ya’ni: bino, mashina, tikuv uskunalari va boshqalar. Joriy yilga kelib firma asosiy vositalarni ta’mirlashdan o’tkazadi. Bunda xo‘jalik usulidan foydalandi. SHunda korxona buxgalteri tomonidan quyidagicha provodka berilgan:

Dt. 8910 1000000

Kt 2310 1000000.

Talab qilinadi: Yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni aniqlang va auditorlik hisoboti uchun ma’lumotlar tayyorlang.

19-masala Korxana 4 yil muddat ichida foydalanish kutiladigan uskunani 1 750 000 so‘mga sotib oldi . Ushbu uskunani tugatish qiymati 175000 so‘mga baholangan. Mazkur uskuna bilan bog‘liq quyidagi operatsiyalar amalga oshirilgan:

1) Uskunani 2-yili ishlatish davomida yangi tarkibiy qism uchun 140 000 so‘m to‘landi. Uning foydalanish natijasida uskunaning unumдорлиги 10% oshishi kutilmoqda .

2) Uchinchi yil davomida uskunani foydali xizmat muddatini 4 yildan 6 yilgacha oshirish imkonini yaratuvchi ta’mirlash uchun 930 000 so‘m to‘landi.

3) To‘rtinchi yil davomida uskunani ish holati yomonlashmasligi uchun amalga oshirilgan ta’mirlashga 250 000 so‘m sarflandi .

Auditorlik tekshiruvi jarayonida ushbu operatsiyalar bo‘yicha quyidagi buxgalteriya provodkalari berilganligi aniqlangan:

1) Dt 0130 Kt 6010 1 750 000

2) Dt 0130 Kt 6010 1 070 000

3) Dt2010 Kt 6010 250 000

Topshiriq: YUqoridagi muomalalarni to‘g‘riligini tekshiring va auditorlik hisobotini tayyorlang .

20-masala. Korxona yangi faoliyatni yuritish uchun 15000 000 so‘mga er uchastkasini sotib oldi Er uchastkasini sotib olishda qo‘srimcha quydagi xarajatlar qilingan: brokker xizmati uchun 25000 so‘m ,er uchastkasini korxona nomiga rasmiylashtirish uchun notariusga 55 000 so‘m to‘langan. Er uchastkasini obodonlashtirish uchun (boshqa tashkilotga) 125000 so‘m xarajat qilingan. Auditorlik tekshiruvi jarayonida bosh buxgalter tomonidan sotib olingan er uchastkasini buxgalteriyada quyidagicha aks ettirilgani ko‘rsatilgan:

1) Dt 0110 Kt 5110 15 000 000 ,

2) Dt 9430 Kt5110 205 000,

Topshiriq: YUqoridagi muomalalar to‘g‘riligini tekshiring va ushbu holat bo‘yicha auditorlik hisobotini tuzing.

21-masala. “Energota’minalash” AJ majburiy auditorlik tekshiruvidan o’tkaziladigan korxonalar qatoriga kirganligi sababli 2018 yil bo’lgan davr mobaynidagi moliyaviy holati auditorlik tekshiruvidan o’tkazilmoqda. Tekshiruv davomida audit dasturiga asosan asosiy vositalar harakati bilan bog’liq muomalalar tekshirilmoqda va quyidagicha hato, kamchiliklar aniqlandi:

1) Moliyaviy ijara shartnomasi tugagandan so’ng, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan obyektlar asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan. Mana shu operatsiyaga quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi berilgan:

Dt 0310 “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar”,

Kt 9210 “ Asosiy vositalarning chiqib ketishi”.

2) Qurib bitkazish, qo‘srimcha jihozlash, zamonaviylashtirish, rekonstruksiyalash hamda boshqa ajratiladigan va ajralmas sifat jihatdan yaxshilanishi munosabati bilan asosiy vositalarning boshlang’ich qiymati

qo'shimcha baholanishi aks ettirilgan:

Dt 0110-0190 "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar"

Kt 0820 "Asosiy vositalarni xarid qilish".

3) Ta'sischilar tarkibidan chiqib ketayotgan ishtirokchilardan ularning ulushiga oid qarz bo'yicha hisob-kitob uchun beriladigan asosiy vositalar qiymati summasiga:

Dt 6620 "Chiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarz"

Kt 0110-0190 "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar"

Talab qilinadi: Yuqorida keltirib o'tilgan hato va kamchiliklarga tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmalari berilsin va har bir jarayon bo'yicha yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar keltirib o'tilsin.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Auditor korxona raxbaryatiga kompyuterga amortizatsiya hisoblashning qaysi usulidan foydalanishni tavsiya etsa maqsadga muvofiq bo'ladi?

- A. Kumulyativ usulni
- B. Ishlab chiqarish usulini
- C. Qoldiqli kamayish usulni
- D. To'g'ri chiziqli usulni
- E. A va B

2. Auditor korxona asosiy vositalarni hisobga oladigan inventar raqamiga oid ma'lumotni qaysi hujjatdan oladi?

- A. AV-3 shakl
- B. AV-2 shakl
- C. AV-7 shakl
- D. AV-6 shakl
- E. AV-1 shakl

3. Auditor asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanganda tugatish

qiymati hisobga olinmaganligini aniqladi. Ushbu holatda asosiy vositaga qaysi usulda amortizatsiya hisoblangan bo'lishi mumkin?

- A. Kumulyativ usul
- B. Ishlab chiqarish usul
- C. Qoldiqli kamayish usuli
- D. To'g'ri chiziqli usul
- E. A va B

4. Kam chiqqan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati hisobdan chiqarilganda korxona buxgalteri uni qaysi buxgalteriya schyotlarida aks ettirishi lozim?

- A. **Debet** 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi”,
Kredit (0110-0190)-“Asosiy vositalarning tegishli hisabvaraqlar”
- B. **Debet** 9410-“Realizatsiya bo'yicha xarajatlar”,
Kredit (0110-0190)-“Asosiy vositalarning tegishli hisabvaraqlar”
- C. **Debet** 9430-“Boshqa operatsion xarajatlar”,
Kredit (0110-0190)-“Asosiy vositalarning tegishli hisabvaraqlar”
- D. **Debet** 9010-“Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad”,
Kredit (0110-0190)-“Asosiy vositalarning tegishli hisabvaraqlar”
- E. To'g'ri javob yo'q

5. Hisobot davr mobaynida 480000 so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 1-yilda - 80000, 2-yilda - 120000, 3-yilda - 100000, 4-yilda – 80000, 5-yilda - 100000 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 4-yilda jamg'arilgan jami amortizatsiya miqdori qanchaga teng bo'ladi?

- A. 36000
- B. 38000
- C. 40000
- D. 44000
- E. To'g'ri javob yo'q

6. Auditorlik tekshiruvi jarayonida quyidagilar aniqlangan: balans qiymati 120000 so'm bo'lgan kompyuter hisobdan chiqarilgan, eskirish qiymati 30000 so'm. Asosiy vositaning sotish qiymati 80000 so'm. Moliyaviy natija qanchaga teng bo'ladi?

- A. 56000
- B. 88000
- C. 90000
- D. 96000
- E. To'g'ri javob yo'q

7. Qaysi asosiy vositalar ob'ektlari qiymati balansda qoldiq qiymati aks etmaydi?

- A. Qiymati qoplanmaydigan
- B. Amortizatsiya hisoblanmaydigan
- C. Tekinga kelgan
- D. A va S
- E. B va D javoblar

8. Asosiy vositalar qoldiq qiymatidan past bahoda sotilsa, QQS qaysi qiymatga nisbatan hisoblanadi?

- A. Boshlang'ich qiymati
- B. Qoldik qiymati
- C. Eskirish qiymati
- D. Bozor qiymati
- E. B va D javoblar

9. Ijaraga olingan asosiy vositani joriy ta'mirlash xarajatlari kim tomonidan qilinadi?

- A. Lizinga oluvchi
- B. Lizinga beruvchi
- C. Har ikkala tomon o'rtaida taqsimlanadi

D. To'g'ri javob yo'q

E. B va D javoblar

10. Lizinga oluvchi korxonalar operativ lizing uchun to'lanadigan lizing to'lovi summalari qanday xarajatga qo'shiladi?

A. Ishlab chiqarish xarajatlari

B. Davr xarajatlari

C. Boshqa operatsion xarajatlar

D. A va B

E. Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlar

3.2. NOMODDIY AKTIVLAR AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: nomoddiy aktivlar, ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish dasturi, auditning ma'lumot manbalari, nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning to'g'riliгини tekshirish, nomoddiy aktivlar sintetik hisobi va soliqqa tortishning to'g'riliгини tekshirish, nomoddiy aktivlar auditini natijalarini baholash

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nomoddiy aktivlar hisobi qaysi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinib turiladi?

2. Nomoddiy aktivlar baholanishining to'g'riliги qanday tekshiriladi?

3. Nomoddiy aktivlar realligini tekshirishda qanday auditorlik protseduralar qllaniladi?

4. Nomoddiy aktivlarni hujatlarda rasmiylashtirishni va kirimga olinishini to'g'riliгини qanday tekshiriladi?

5. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarilishi qanday tekshiriladi?

6. Nomoddiy aktivlarni analitik hisobini tekshirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

7. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashni to‘g‘riligini qanday tekshiriladi?

8. Nomoddiy aktivlarni audit qilishda qanday hujjatlar va buxgalteriya schyotlari tekshirishni manbalari bo‘lib xizmat qiladi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Nomoddiy aktivlarning mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos belgilari.
2. Nomoddiy aktivlar auditini tashkil etish va o‘tkazish tartibi.
3. Nomoddiy aktivlar kirimi va chiqimi sintetik hisobini hamda soliqqa tortishning to‘g‘riligini tekshirish.
4. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobda aks ettirishning to‘g‘riligini tekshirish.
5. Nomoddiy aktivlar auditi natijalarini umumlashtirish va baholash.

Nomoddiy aktivlar auditining asosiy vazifalari

1. Aktivlarni nomoddiy aktivlarga to‘g‘ri kiritilganligini tekshirish.
2. Nomoddiy aktivlar harakatini hujjatlarda to‘g‘ri rasmiylashtirilishini tekshirish va ularning boshlang‘ich qiymati to‘g‘ri shakllanganligini tekshirish.
3. Nomoddiy aktivlar kirimi va chiqimi muomalalari bo‘yicha provodkalarni to‘g‘ri berilganligini va to‘liqligini hamda hisob registrlarida to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish.
4. Hisoblangan amortizatsiya ajratmalarini O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlariga muvofiq aks ettirilganligini tekshirish.
5. Nomoddiy aktivlar muomalalari bo‘yicha hisoblangan soliqlarni to‘g‘riligini tekshirish.

MAVZU BO‘YICHA MASALALAR

1-masala. Korxona jismoniy shaxsdan xususiylashtirilgan kvartirani sotib oldi va uni nomoddiy aktiv sifatida 0490 «Nomoddiy aktivlar» schyotiga o‘tkazildi.

Notarial idorasiga sotish va sotib olish shartnomasini rasmiylashtirish uchun uning xizmatiga 52100 so‘m naqd pul to‘landi.

Xaridor bilan hisob-kitob muomalalari korxonaning hisob-kitob schyotidan xaridorning omonat kassasidagi shaxsiy schyotiga 11000000 so‘m o‘tkazib berildi? Bu muomala uchun omonat bankining xizmatiga 78000 so‘m to‘lab berdi.

Notarial idorasiga va omonat Bankining xizmati uchun to‘langan 130100 so‘m chet tashkilotlar xizmati xarajatlariga hisobdan chiqarilgan.

Buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv qilingan:

D-t 2010 sch, k.t 5010 sch - 52100 so‘m - natarial idorasining xizmati.

D-t 0490 sch, k.t 5110 sch - 11000000 so‘m - sotib olish qiymatiga.

D-t 2010 sch, k.t 5110 sch - 78000 so‘m - bank xizmati uchun.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, audit hisobotini tuzing.

2-masala. Korxona dasturiy ta’mnotin QQS bilan bиргаликда 246000 so‘mga sotib oldi. Maslahat uchun firma tomonidan QQS bilan bиргаликда 36000 so‘m to‘langan. Korxona buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan.

D-t 6010 K-t 5110 240000-Dasturiy ta’mnotinga to‘lov qilindi.

D-t 0830 K-t 6010 200000-Dasturiy ta’mnotin sotib olindi.

D-t 6410 K-t 6010 40000-QQS summasiga

D-t 9429 K-t 6010 30000-Maslahat xizmati summasiga

D-t 0430 K-t 0830 200000-Dasturiy ta’mnotin kirimga olindi

D-t 6010 K-t 5110 36000-Maslahat xizmati uchun to‘lov amalga oshirildi.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, audit hisobotini tuzing.

3-masala. Tashkilot tovar belgisi ishlab chiqadi. Reklama agentligiga tovar belgisi ishlab chiqish yuzasidan firma xarajatlari 100000 so‘m shu jumladan QQS-

20000 so‘m. Tovar belgisini ro‘yxatga olish xarajatlari 18000 so‘m. Hisob registrlarida quyidagiga buxgalteriya yozuvlari qilingan.

D-t 6010 K-t 5110 120000

D-t 0830 K-t 6010 100000

D-t 6410 K-t 6010 20000

D-t 6990 K-t 5110 18000

D-t 9429 K-t 6990 18000

D-t 0410 K-t 0830 100000

D-t 6010 K-t 5110 20000

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, audit hisobotini tuzing.

4-masala. Korxona tovar belgisidan foydalanish huquqini 5-yilga 100000 so‘mga QQS summasi 20000 so‘mga sotib oldi. Buxgalteriya hisobida berilgan Xo‘jalik muomalalari quyidagicha aks etdi:

D-t 6010 K-t 5110 120000

D-t 0420 K-t 6010 120000

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, audit hisobotini tuzing.

5-masala “Coca-cola”firmasida 2016 yili 1 dekabrda 10 000\$ qiymatli shartnoma imzolandi. “Pepsi” firmasi yaxna ichimliklar savdosi bilan Pepsi firmasi 10 dekabrda 10000\$ summani “Coca-cola” firmasiga to‘lab bergen. Ammo Coca-cola ichimliklari 2018 yilda etkazib berilishi kelishilgan Coca-cola firmasi bosh buxgalteri 10000\$ summasini 9010 schyotiga kirim qilgan 2016 yilda firmanın soliqqa tortilguncha foydasi 300 000\$.Soliq stavkasi 20% tashkil etadi.

TOPSHIRIQ: Siz auditor sifatida bajarilgan buxgalteriya hisob-kitoblarini tekshiring va auditorlik dalolatnomasini tuzing

6-masala. Korxona o‘z kuchi bilan nomoddiy aktiv ishlab chiqqan. Ishlab chiqarish natijalari: xodimlarga ish xaqi hisoblandi-100000, Nomoddiy aktivni

ishlab chiqarishda foydalanilgan kompyuterlarga hisoblangan amortizatsiya – 250000, sarflangan materiallar-250000 so‘m. Nomoddiy aktivni buxgalteriyaga qabul qilish bo‘yicha quyidagi provodkalar berilgan.

Dt 0890-500000

Dt 0430-500000

Kt 1010-250000

Kt 0230-250000

Nomoddiy aktivga qilingan haqiqiy xarajatlarni aniqlang.

7-masala. Korxona “Grant” ma’lumotlar bazasi Mutloq huquqi egasi. Huquqning bosh qiymati -200000, amortizatsiya summasi-100000. Tayyorlovchi firmaning narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotiga ko‘ra xuddi shunday nomoddiy aktivlar qiymati-300000 so‘mga teng. YA’ni 1,5 koeffitsentga oshgan.

$$1) \ 300000/200000=1,5$$

$$2) \ 200000*1,5=300000$$

$$300000/10000=3$$

$$10000*3=30000$$

Dt 8510-20000

Dt 0410-100000

Kt 0510-20000

Kt 8510-100000

Qayta baholashning to‘g‘ri hisoblanganligini tekshiring.

8-masala “Dilnoza” korxonasi o‘z nomoddiy aktivini boshqa tashkilotga sotdi. Nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymati-700000, amortizatsiya 350000, shartnoma qiymati (QQS bilan) 950000. nomoddiy aktivdan voz kechish shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun boj 100000 so‘m.

QQS ni hisoblash:

$$[950000-(700000-350000)]*20%/120=100000$$

Moliyaviy natija:

$$950000-100000-350000-100000=400000$$

buxgalter tomonidan quyidagi pravodkalar berilgan.

1) Dt 4010-950000
Kt 9220 - 950000

2) Dt 9220-100000
Kt 6990-100000

3) Dt 6990-100000
Kt 5110 - 100000

4) Dt 9220-100000
Kt 9320-400000

5) Dt 5110-950000
Kt 4010- 950000

Topshiriq: YUqoridagi ma'lumotlar asosida to‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini bering va auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

9-masala. Ishlab chiqarish korxonasi boshqa korxonani 100 mln. so‘mga sotib oldi. Sotib olinayotgan korxonaning balans ma'lumotlariga ko‘ra, uning aktivlari qiymati 80 mln. majburiyatlar summasi 15 mln. so‘mga teng. Hosil bo‘lgan gudvill summasi 20 mln. korxona hisob siyosatiga ko‘ra gudvillning foydali xizmat muddati 10 yil deb belgilangan.

Dt 2010-83333

Kt 0480- 83333

Topshiriq: Buxgalteriya tomonidan hisoblangan gudvillning summasini to‘g‘ri hisobdan chiqarilganligini aniqlang.

10-masala. Korxona jismoniy shaxsdan xususiylashtirilgan kvartira sotib oldi, va uni nomoddiy aktiv sifatida qabul qildi. Notarial idorasiga sotish va uni sotib olish shartnomasini rasmiylashtirish uchun uning xizmatiga 52100 so‘m to‘landi. jismoniy shaxsning schetiga 11000 ming so‘m o‘tkazdi. Bank hizmati uchun 78000 so‘m to‘langan, notariusga va bank xizmati uchun to‘langan mablag‘ chet tashkilotlar xizmati xaridorlariga qo‘sildi.

1) Dt 2010-52100

Kt 5010 - 52100

2) Dt 0490-11000

Kt 5010-11000

3) Dt 2010-78000

Kt 5110 - 78000

Topshiriq: Buxgalter tomonidan berilgan provodkalarning to‘g‘riligini tekshiring.

11-masala. Korxona tovar belgisidan foydalanish xuquqini 5 yilga 100 ming so‘mga (QQS summasi 20 ming), sotib oldi. Buxgalteriya hisobida berilgan muomalalar quyidagicha aks etgan.

1) Dt 6010-120000

2) Dt 0420-120000

Kt 5110 - 120000

Kt 6010-120000

Topshiriq: Buxgalter tomonidan berilgan provodkalarning to‘g‘riligini tekshiring.

12-masala. MCHJda Ustav kapitali ikki muassis hisobiga shakllandi. Muassislaridan biri o‘z ulushini Nomoddiy aktiv sifatida kiritdi. Ushbu nomoddiy aktivning qiymati taraflarning kelishuviga ko‘ra 500 ming so‘mga baholandi.

Dt 0400-500000

Kt 4610- 500000

Topshiriq: YUqoridagi ma’lumotlar asosida buxgalteriya provodkalarini to‘g‘riligini tekshiring.

13-masala. “Feruza” XF balansida nomoddiy aktiv mavjud bo‘lib, uning boshlang‘ich qiymati- 1000 ming, amortizatsiya – 200 ming so‘m tashkil qiladi. Inventarizatsiya natijasida ushbu nomoddiy aktivdan kelgusida foydalanish maqsadga muvofiq emas. Ushbu muomalalarga buxgalter quyidagicha yozuv berilgan.

Dt 9220- 1200000

Dt 9430 – 800000

Kt 0470- 1200000

Kt 9220 – 800000

Topshiriq: YUqoridagi ma'lumotlar asosida buxgalteriya provodkalarini to'g'riligini tekshiring.

15-masala. "SHarq" XF mualliflik sharti bo'yicha 1 mln. so'm to'lab, "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" kitobini 5 yil davomida 400 ming nusxada nashr qilish xuquqini sotib oldi. Hisob siyosatida amortizatsiya hisoblash usuli to'g'ri chiziqli usul deb tanlangan. Yil davomida hisoblangan amortizatsiya summasiga berilgan provodka quyidagicha:

Dt 2010-400000

Kt 0500- 400000

Topshiriq: YUqoridagi ma'lumotlar asosida buxgalteriya provodkalarini to'g'riligini tekshiring.

16-masala. "BIG RANGE" MChJ auditorlik tekshiruvi davomida nomoddiy aktivlar harakati bilan bog'liq bir qancha muammolar yuzaga keldi. Korxona buxgalteri bosh kitobda quyidagicha yozuvlarni amalga oshirgan:

1. Boshlang'ich qiymati bo'yicha xarid qilingan nomoddiy aktivlar balansga qabul qilingan:

Dt 0410-0490 " Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar",

Kt 5110 " Hisob-kitob schoti".

2. Inventarlash natijasida hisobga olinmagan (ortiqcha) nomoddiy aktivlar aniqlangan:

Dt 0410-0490 "Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar",

Kt 5910 "Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar".

3. Nomoddiy aktivlar tekinga berilganligi munosabati bilan chiqib ketishi aks ettirilgan(boshlang'ich qiymati hisobdan chiqarilganda):

Dt 9220 " Boshqa aktivlarning chiqib ketishi",

Kt 0510-0590 " Nomoddiy aktivlarni eskirishini hisobga oluvchi schotlar".

4. Gudvillning har oydagisi hisobdan chiqarilishi aks ettirilgan:

Dt 0480 "Gudvill"

Kt 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”, 9420 “Ma’muriy xarajatlar”.

Talab qilinadi: Yuqorida keltirib o’tilgan m’lumotlarga asosan, hato va kamchiliklar aniqlansa kerakli tuzatuvchi o’tkazmalar berilsin. Hamda yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar keltirib o’tilsin.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Auditor o’zining ishchi hujjatida gudvill bo’yicha hisobdan chiqarilish summasini qaysi schyot kreditida aks ettiradi?

- A. Gudvilning eskirishi
- B. Boshqa nomoddiy aktivlarning eskirishi
- C. Gudvill
- D. Tashkiliy xarajatlar auditি
- E. Ishlab chikarish xarajatlari

2. Tekshiruv jarayonida balans qiymati 200000 so’m, eskirish qiymati 150000 so’m bo’lgan nomoddiy aktivning sotilganligi aniqlandi. Nomoddiy aktivning sotish qiymati 80000 so’m. Moliyaviy natija qanchaga teng bo’ladi?

- A. 30000
- B. 32000
- C. 34000
- D. 36000
- E. 38000

3. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo’yicha ma’lumotlarni tekshirishda auditor qaysi me’yoriy hujjatdan foydalanadi?

- A. №2 NMA
- B. №1 NMA
- C. №6 NMA
- D. №7 NMA
- E. №3 NMA

4. Tekshirish mobaynida auditor nomoddiy aktivlarga ruxsat etilmagan usuldan foydalanilganligini aniqladi. Bu qaysi usul bo'lishi mumkin?

- A. To'g'ri chizikli
- B. Ishlab chikarish
- C. Qoldiqli kamayib borish
- D. Kumulyativ usul
- E. A va C

5. Agar nomoddiy aktiv kelgusida korxonaga samara keltirishi haqida ma'lumot mavjud bulmasa, nomoddiy aktiv...

- A. Aktiv sifatida aks ettiriladi
- B. Xarajat sifatida aks ettiriladi
- C. Kelgusi davr xarajatlari sifatida aks ettiriladi
- D. Kelgusi davr daromadlari sifatida aks ettiriladi
- E. To'g'ri javob yuk

6. Tekshiruv jarayonida balans qiymati 200000 so'm, eskirish qiymati 150000 so'm bo'lgan nomoddiy aktivning sotilganligi aniqlandi. Nomoddiy aktivning sotish qiymati 40000 so'm. Ushbu holatda qancha zarar ko'rilib?

- A. 10000
- B. 12000
- C. 14000
- D. 16000
- E. 18000

7. Moliyaviy hisobotga beriladigan tushuntirishlarda nomoddiy aktivlar bo'yicha qanday axborotlarning mohiyati bayon qilinishi lozim?

- A. Nomoddiy aktivlar foydali xizmat muddatlari to'g'risidagi
- B. Qiymati qoplanmaydigan (eskirish hisoblanmaydigan) nomoddiy aktivlar

to'g'risidagi

- C. Amortizatsiya ajratmalar hisoblash usullari to'g'risidagi
- D. To'g'ri javob berilmagan
- E. Barcha javoblar to'g'ri

8. Nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasini o'tkazishda auditor qaysi standartga asoslanadi?

- A. BHMS №19
- B. BHMS №1
- C. BHMS №4
- D. BHMS №5
- E. BHMS №9

9. Amortizatsiya hisoblanadigan nomoddiy aktivlar bo'yicha auditor nimalarni tekshirishi muhim hisoblanadi?

- A. Nomodiyy aktivlarning foydalilik samarasini
- B. Qo'llanilayotgan amortizatsiya hisoblash usullari korxona hisob siyosatiga mos kelishi
- C. Tanlangan amortizatsiya hisoblash usuli nomoddiy aktivlar sub'ektlari qiymatini qolgan foydali xizmat qilish muddati davomida ishlab chiqarish sarflarini hisobga oladigan schyotlarga to'g'ri o'tkazilishini
- D. A va C
- E. B va C

10. Ustav kapitaliga ulush sifatida yoki obuna bo'lingan aktsiya qiymatini to'lash hisobiga olingan nomoddiy aktivlarni kirim kilish qaysi hujjatda rasmiylashtiriladi?

- A. Ta'sis shartnomasi, qabul qilish topshirish dalolatnomasi
- B. Oldi-sotdi shartnomasi qabul qilish-berish dalolatnomasi
- C. Tekinga berish to'g'risida shart-noma

- D. nomoddiy aktivlarni qayta baholash dalolatnomasi
- E. To'g'ri javob yo'q

13.3. UZOQ MUDDATLI INVESTITSIYALAR AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: moliyaviy investitsiyalar, ularning turlari, investitsiyalarni tekshiruvidan o'tkazish dasturi, ma'lumot manbalari, moliyaviy investitsiyalar hisobi va hisobotini to'g'rilingini tekshirish, inventarizatsiyadan o'tkazish, moliyaviy investitsiyalarni soliqqa tortilishini, daromadlilagini tekshirish.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.O'zbekiston Respublikasida uzoq muddatli investitsiyalarni yuritish tartibi qaysi me'yoriy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi?
- 2.Uzoq muddatli investitsiyalarni tekshirishda qanday me'yoriy hujjatlarga asoslanib amalga oshirladi?
- 3.Uzoq muddatli investitsiyalarni audit qilish qanday hujjatlar va buxgalteriya schyotlari tekshirish manbalari bo'lib xizmat qiladi?
4. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda qanday ma'lumot manbalaridan foydalaniladi?
5. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish va oldin o'tkazilgan inventarizatsiyalar to'g'rilingini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
6. Korxona aktivlarini moliyaviy investitsiyalar qatoriga qo'shishning to'g'rilingini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
7. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining sintetik va analistik hisob registrlari ma'lumotlariga mosligini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
8. Qimmatli qog'ozlarning analistik hisobi hamda kirimi va chiqimiga doir muomalalarni tekshirish qanday amalga oshiriladi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Moliyaviy investitsiyalar tavsifi, auditining xususiyati, maqsadi va

vazifalari.

2. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda qo'llaniladigan ma'lumot manbalari.
3. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish va oldin o'tkazilgan inventarizatsiyalar to'g'riliгини текширish.
4. Korxona aktivlarini moliyaviy investitsiyalar qatoriga qo'shishning to'g'riliгини текширish.
5. Moliyaviy investitsiyalar hisobiga doir dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini текширish.
6. Qimmatli qog'ozlarni baholashning to'g'riliгини текширish.
7. Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining sintetik va analitik hisob registrlari ma'lumotlariga mosligini текширish.
8. Qimmatli qog'ozlarning analitik hisobini, kirimi va chiqimiga doir muomalalarni текширish.

Auditning maqsadi. Uzoq muddatli investitsiyalar to'g'risidagi buxgalteriya hisobotini haqqoniyligini va uning samaradorligini tasdiqlash.

Auditning vazifalari:

1. Uzoq muddatli investitsiyalar to'g'risida ma'lumotlarni olish.
2. Uzoq muddatli investitsiyalarni yuridik jihatdan haqqoniyligini aniqlash.
3. Qimmataho qog'ozlar muomalalarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini va qonuniyligini текширish.
4. Qimmataho qog'ozlar muomalalari bo'yicha hisob-kitoblarni soliq qonunchiligiga amal qilinishini текширish.
5. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan dividendlarning to'lash bo'yicha muomalalarini текширish.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. O'tgan yili «MUBINA» kompaniyasi 50000 so'mlik vekselni 2500 so'm diskont bilan sotib oldi. Vekselni amal qilish muddati 1,5 yil. Buxgalteriya

hisobida veksel sotib olish qiymatida kirim qilingan, so‘ngra vekseldan elektr ta’mnoti bo‘yicha to‘lojni amalga oshirish uchun foydalanildi.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

2-masala. Iyun oyida №138 guvoxnomaga asosan tashkilotning boshqa tashkilotga qarashli bo‘lgan aksiyalari tovar-fond birjasida sotildi.

Guvohnomada ko‘rsatilishicha:

Aksiyani sotish qiymati - 8000

Auksionda xizmatlar uchun to‘lov - 1600

Buxgalteriya hisobi ma’lumoti bo‘yicha aksiya qiymati - 1800

Tashkilot buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan:

D-t 5010 K-t 0610 - 6400

D-t 0610 K-t 9320 - 4600

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

3-masala. Korxona qimmatli qog‘ozlar sotib olish maqsadida uch oyga yillik stavkasi 25% 300000 so‘m kredit oldi. Remoliyalashtirish stavkasi 16%.

To‘lanishi shart bo‘lgan kreditdan foydalanish foiz summasi quyidagicha hisoblangan.

$300000 * 25\% / 12 \times 3 = 41250$

Qimmatli qog‘ozlar 300000 so‘mga sotib olingan buxgalteriyada quyidagicha provodkalar berilgan.

D-t 5110 K-t 6810 300000 Olingan kredit summasiga

D-t 0610 K-t 5110 300000 Kirimga olingan aksiyalarga to‘langan summa

D-t 9439 K-t 6810 41250 Kredit foizi hisoblangan

D-t 6810 K-t 5110 41250 Kredit foizi to‘lab berilgan

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring, xatolarni aniqlang va holatga baho bering.

4-masala. Kompaniya boshqa kompaniyaga tegishli obligatsiyalarini 10000000 so‘mga sotib oldi. Ularning nominal qiymati 8500000 so‘m Obligatsiyalar bo‘yicha yillik 20 % daromad har 6 oyda to‘lab berilishiga kelishilgan. Obligsiyani sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farq (10000000-8500000) 1500000 so‘m. Muomala davri 5 yil.

Obligatsiyani sotib olish:

Dt-0610 “Qimmatli qog‘ozlar”-10000000 so‘m,

Kt-5110 “Hisob-kitob schyoti”-10000000 so‘m.

YArim yildan so‘ng obligatsiyaning yillik stavkasining yarmi miqdorida daromad olingen (8500000*10%) 850000 so‘m.

DT-4010-“Olingan divident”-850000 so‘m,

KT 4610-“Divident ko‘rinishidagi daromad”- 850000 so‘m.

Bir vaqtning o‘zida obligatsiyani sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farq amortizatsiyalandi, (1500000*10%)-150000 so‘m.

DT-9430-”Foiz ko‘rinishidagi xarajat”-150000 so‘m,

KT-0610-“Qimmatli qog‘ozlar”-150000 so‘m.

Topshiriq. YUqoridagi muomalalar kompaniya buxgalteri tomonidan tug‘ri rasmiylashtirilganini tekeshiring va auditorlik xulosasini bering.

5-masala. Korxona avval sotib olgan obligatsiyani boshqa korxonaga sotdi, balans qiymati-5000000 so‘m, sotish qiymati –4200000 so‘m. Ushbu muomalalarga quyidagicha buxgalteriya provodkasi berilgan:

Obligatsiyani sotishdan tushgan tushum:

DT-5110-“Hisob-kitob schyoti” 4200000 so‘m,

KT-9220-“Boshqa aktivlarning sotilishi va chiqib ketishi” 4200000 so‘m;

Obligatsiyalarini balans qiymati hisobdan chiqarildi:

DT 9220-“Boshqa aktivlarning sotilishi va chiqib ketishi 4200000 so‘m,

KT 0160-“Qimmatli qog‘ozlar”-4200000 sum;

Sotishdan olingan zarar (foyda) aniqlandi:

DT 9610-“foiz kurinishidagi xarajat “-800000 sum,

KT 9210-“aktivlarning sotilishi”-800000 sum.

Topshiriq. Korxona buxgalteri tomonidan yukoridagi muomalalar tug‘ri hisobga olinganini tekshiring va auditorlik xulosasini bering.

6-masala. Korxona sotib olgan aksiyalarining qiymati 10000000 sum, nominal qiymati esa 8250000 sum, uzish muddati 5 yil. Aksiya bo‘yicha har yili 20% daromad olinadi. Buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan.

Aksiya sotib olinganida:

DT 0610-“qimmatli qog‘ozlar”-10000000 sum

KT 5110-“Hisob kitob schyoti”-10000000 sum,

Har yili daromad hisobga olinishi,

DT-5110-“Hisob kitob schyoti”-1650000 sum,

KT-4010-“Olinadigan schyotlar”-1650000 sum.

Topshiriq. YUqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganini tekshiring va auditorlik hisobotini tuzing.

7-masala. Korxona 20000000 so‘mlik aksiyalarini muomalaga chikardi. Aksiyalarni fond birjasi orqali sotish natijasida qo‘srimcha 1500000 so‘m xarajat qildi. Yil oxirida moliyaviy faoliyat bo‘yicha qilingan xarajatlar va olingan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar korxonada birinchi marotaba amalga oshirilayotganligi sababli buxgalter auditorlik tashkilotini xizmat ko‘rsatish uchun yolladi va ushbu xizmat uchun ham 1000000 so‘m to‘landi.

Topshiriq. YUqoridagi ma’lumotlar asosida auditor auditorlik xizmatini ko‘rsatish jarayonida qanday buxgalteriya provodkalari bergenligini va qaysi hujjalarda aks etirganligini aniqlang.

8-masala. Auditor tekshiruv vaqtida 22.04.2019 yilda kompaniya tomonidan sotib olingan, hisobga olinmay qolgan quyidagi holatni aniqladi. Auditorlik tekshiruvi vaqtি 25.03.2015y. kompaniya sotib olgan aksiyalari qiymati 6000000 so‘m nominal qiymati esa 5000000 so‘m, uzish muddati 10 yil. Aksiya buyicha har yili 10 % daromad olingan.

Topshiriq. YUqoridagi muomala bo‘yicha buxgalteriya provodkasini bering hamda nominal qiymat o‘rtasidagi farqni aniqlang va auditorlik hisobotini tuzing.

9-masala. Korxona 1 400 000 so‘mga aksiyalarini xarid qildi . Aksiyalarning nominal qiymati 1 100 000 so‘m . Korxona aksiyalarining ushbu paketi 13 oydan keyin sotishni rejalashtirgan .

Aksiyalarning xarid narxi va nominal qiymati orasidagi farq 300 000 so‘m (1400-1100) 13 oy mobaynida teng ulushlar bilan hisobdan chiqariladi hamda korxonaning moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlar sifatida etirof etiladi.

Buxgalteriyada quyidagicha yozuvlar qilingan:

- 1) Aksiya xarid qilindi: Dt 0610, Kt 5110 – 1 400 000
- 2) Nominal va xarid qiymat orasidagi farq bir me’yorda hisobdan chiqarildi: Dt 6990, Kt 0610 – 23100

Agar korxona tomonidan xarid qilingan aksiyalarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo‘lsa, unda xarid qilish paytidan so‘ndirish paytigacha bo‘lgan davr mobaynida xarid va nominal qiymatlar orasidagi farq summasini ko‘shimcha hisoblash amalga oshiriladi .

Topshiriq. YUqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganini tekshiring hamda auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

10-masala. Korxona aksiyalarini nominal qiymati bo‘yicha 1500 000 so‘mga xarid qildi. Olingan aksiyalar o‘rniga 1500 000 so‘mni tashkil qiladigan yangi nusxa ko‘chiruvchi uskuna berildi. Buxgalteriyada quyidagicha hisobga olingan:

- 1) Nusxa ko‘chiruvchi uskunaning qiymati hisobdan chiqarildi:

Dt 9210, Kt 0140 – 1500000

2) Aksiyalar xarid qilindi:

Dt 0610, Kt 9210 – 1500000

Topshiriq: YUqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganini tekshiring va auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

11-masala. Korxona “A” ta’sischidan ustav kapitaliga ulush sifatida aksiyalarni oldi. Ta’sischining kelishuviga ko‘ra nominal qiymati 1050000 so‘m bo‘lgan aksiyalar 1400 000 so‘mga baholandi. Buxgalteriyada quydagicha yozuvlar amalga oshirilgan.

1) ”A” ta’sischining ustav kapitaliga bo‘lgan qarzi aks ettirildi:

Dt 4610, Kt 8310,8320 – 1400000

2) Ustav kapitaliga ulush hisobiga aksiyalarning kelib tushishi aks ettirildi:

Dt 0610, Kt 4610 – 1400000

Ustav kapitaliga ulush hisobiga olingan aksiyalarning qiymati ularning nominal qiymatidan farq qilganligini hisobga olgan holda, korxona ulush aksiyalarining bozor bahosi va ularning nominal qiymati orasidagi farq hisobdan chiqariladigan davrni belgilang.

Topshiriq: YUqoridagi muomalalar qonunchilikka to‘g‘ri hisobga olinganini tekshiring va auditorlik hisoboti uchunmalumot tayyorlang.

12-masala. Umumbelgilangan soliqlarini to‘lovchi korxona tomonidan hadya shartnomasi bo‘yicha 2 000 000 so‘mlik nominal qiymat bo‘yicha aksiyalar olindi.

Ushbu muomalalar buxgalter tomonidan quyidagicha hisobga olingan:

1) Hadya shartnomasi bo‘yicha olingan aksiyalar kirim qilindi ,

Dt 0610, Kt 8530 – 2 000 000 ,

2) Foyda solig‘i hisoblab yozildi (2000000*10%)

Dt 9810, Kt 6610 – 200 000

Topshiriq: YUqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganini tekshiring va auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

13-masala. Korxona ta'sischilari bilan kelishilgan holda aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha 1 400 000 so'm ustav kapitaliga ulush sifatida beradi. Nominal qiymati bo'yicha aksiyalar paketining narxi 1050 000 so'm .

Topshiriq. Ushbu muomalalar bo'yicha buxgalterga buxgalteriyada hisobga olinishida auditor sifatida amaliy yordam ko'rsating.

14- masala. YAgona soliq to'lovchi korxona tomonidan hadya shartnomasi bo'yicha nominal qiymati bo'yicha 1400000 so'mlik aksiyalar tekinga olindi Korxonaning buxgalteriya hisobida tekinga berilgan aksiyalar quyidagi tarzda aks ettirilgan .

1) Aksianing balans qiymati hisobdan chiqariladi

Dt 9220	Kt 0610	1600000
---------	---------	---------

2) Hadya shartnomasi bo'yicha aksiyalarni tekinga berishda aks ettirilishi ,

Dt 4010 9430	Kt 9220 4010 ,	1600 000,
--------------	----------------	-----------

Topshiriq: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganini tekshiring.

15-masala. Korxona tomonidan 640 000 so'mga aksiyalar sotiladi .Sotilgan qimmatli qog'ozlarning balans qiymati 600 000 so'mni tashkil etadi

Sotilgan qimmatli qog'ozlar buxgalter tomonidan quyidagicha aks ettirilgan,

1) Sotilgan qimmatli qohozlarning balans qiymati hisobdan chiqarildi ,

Dt 9220,	Kt 0610	600 000
----------	---------	---------

2) Qimmatli qog'ozlarni sotishda olingan daromad aks ettirildi: Dt 4010,
Kt 9220 640 000

3) Qimmatli qog'ozlarni sotishdan moliyaviy natija aniqlandi,

Dt 9220,	Kt 9320	40 000
----------	---------	--------

Topshiriq: YUqoridagi muomalarni to'g'ri hisobga olinganligini tekshiring va auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

16-masala. Korxona ta'sischilari bilan kelishilgan holda aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha ustav kapitaliga ulush hisobida beradi. Nominal qiymati bo'yicha aksiyalar paketining qiymati 850 000 so'm . Berilayotgan aksiyalar paketining bozor qiymati 1400 000 so'mni tashkil etadi

Topshiriq. YUqoridagi muomalalarni buxgalteriyada hisobga olish uchun buxgalterga auditor sifatida amaliy yordam ko'rsating.

17- masala. Korxona chet tashkilot kuchi bilan sex qurmoqda. Buning uchun qurilish tashkiloti bilan pudrat shartnomasi tuzildi. SHartnomaga ko'ra pudrat tashkiloti obektni zarur materiallar bilan ta'minlashi, shuningdek ularning saqlanishi va qurilish ob'ektigacha tashilishini tashkil qilishi kerak . Buyurtmachining o'z omborida pudrat tashkilotiga berish majburiyatini olgan 3 000 000 so'mlik summadagi materiallar, shu jumladan QQS-500 000 so'm mavjud .

Pudratchi uchun sexning umumiyligi smeta qiymati 70 mln so'm (QQS bilan birga) Buyurtmachi ob'ektni 70 mln so'mlik qiymat bo'yicha kirim qiladi.

Topshiriq: Auditor sifatida korxona buxgalteriga amaliy yordam ko'rsating hamda auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

18-masala. "Deloitte" Xalqaro auditorlik tashkiloti 2019 yil fevral oyida "GM Uzbekistan" AJni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazmoqda. Audit dasturiga asosan moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar tekshirilmoqda. Tekshiruv davomida bir qancha hato va kamchilikar aniqlandi. Qo'shma korxonaning "Qimmatli qog'ozlar hisobi" seksiyanining buxgalteri tomonidan yo'l qo'yilgan hato va kamchililar quyidagicha:

1. Qimmatli qog'ozlarning xarid va nominal qiymati o'rta sidagi farq(nominal qiymati xarid qiymatidan yuqori) aks ettirilgan:

Dt 0610 "Qimmatli qog'ozlar"

Kt 9630 "Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar"

2. Brokeriga investitsiyalar xaridi bo'yicha komission haq to'landi:

Dt 0610 "Qimmatli qog'ozlar"

Kt 6010 “Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to’lanadigan schotlar”

3. Uzoq muddatli investitsiyalarni qayta baholash natijasida ularning qiymati pasaytirilgan:

a) Oldingi davrda qo’shimcha baholangan summa chegarasida :

Dt 0610 “ Qimmatli qog’ozlar”

Kt 8510 “ Mulkni qayta baholash bo’yicha tuzatishlar”

b) Oldingi davrda qo’shimcha baholangan summa chegarasidan yuqori summaga

Dt 9590 “ Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari”

Kt 0610 “ Qimmatli qog’ozlar”

Talab qilinadi: Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan tuzatuvchi o’tkazmalar berilsin hamda yozuvlarni tasdiqllovchi hujjatlar keltirib o’tilsin.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining “investitsiya faoliyati to’g’risida”gi Qonuniga binoan investitsiyalar - ?

A. Iqtisodiy faoliyat sub’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar

B. Iqtisodiy va boshqa faoliyat sub’ektlariga kiritiladigan moddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar

C. Iqtisodiy va boshqa faoliyat sub’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar

D. Iqtisodiy va boshqa faoliyat sub’ektlariga kiritiladigan nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar

E. Iqtisodiy va boshqa faoliyat sub’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar

2. Quyidagilardan qaysi biri investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kirmaydi?

A. Pul va boshqa moliyaviy mablag’lar

- B. Ko'char va ko'chmas mol-mulk
- C. Intellektual multk sub'ektlari
- D. Erga va boshqa tabiiy resurslarga
- E. To'g'ri javob mavjud emas

3. Investitsiyalar auditida aralash tanlash qaysi usullarning uyg'unligini o'zida mujassam qiladi?

- A. Tasodifiy va ketma-ket
- B. Tasodifiy va muntazam
- C. Ketma-ket va muntazam
- D. Tasodifiy, ketma-ket va muntazam
- E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Investitsiyalar auditida dalillar yig'ish qaysi standart talablari asosida bo'lishi kerak?

- A. 31-son AFMS
- B. 50-son AFMS
- C. 70-son AFMS
- D. 90-son AFMS
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. Investitsiyalar auditida tasodifiy tanlash nima asosida amalga oshiriladi?

- A. Tasodifiy sonlar bo'yicha
- B. Tasodifiy sonlar jadvali bo'yicha
- C. Tasodifiy sonlar ketma-ketligi bo'yicha
- D. Conlar ketma-ketligi bo'yicha
- E. A, V va S

6. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning baholanishi qaysi BHMSga asoslanadi?

- A. 3-son BHMS
- B. 8-son BHMS
- C. 11-son BHMS
- D. 12-son BHMS
- E. To'g'ri javob mavjud emas

7. Investitsion ob'ektlar inventarizatsiyasi qaysi standartga binoan o'tkaziladi?

- A. 3-son BHMS
- B. 11-son BHMS
- C. 19-son BHMS
- D. 21-son BHMS
- E. To'g'ri javob mavjud emas

8. Investitsiyalar auditida tanlash tekshirilayotgan jamlanmaning qanday ob'ektlariga nisbatan auditorlik rusum-qoidalarini qo'llash maqsadida amalga oshiriladi?

- A. 100 foizdan kam bo'lган
- B. 80 foizdan kam bo'lган
- C. 75 foizdan kam bo'lган
- D. 75 foizdan ko'p bo'lган
- E. To'g'ri javob mavjud emas

9. Investorning kompaniyadagi ulushi 20% dan 50% gacha bo'lganida qaysi usul qo'llaniladi?

- A. Tannarx qiymati usuli (cost method)
- B. Ulushda qatnashish bo'yicha baholash usuli (equity method)
- C. Konsolidatsiya usuli (consolidation method)
- D. Bozor bahosi
- E. To'g'ri javob mavjud emas

10. Investitsiyalar auditida kamchiliklar sabablarini surishtirish auditorlik dalillarini olishning qaysi turiga mansub?

- A. Nazorat
- B. So'rov
- C. Hisoblash
- D. Analitik amallar
- E. To'g'ri javob mavjud emas

14-MAVZU: TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: TMZ, uning tarkibi, haqiqiy tannarx, inventar kartochkalar, limit-zabor kartalari, talabnomalar, material hisobot, xo‘jalik shartnomalari, ishonchnomalar, TMZlarning kamomadi va nobudgarchiligi, tugallanmagan ishlab chiqarish.

Auditning maqsadi. Balansdagi material qiymatlar «Ishlab chiqarish zahiralari» (Materiallar, inventar va xo‘jalik jihozlari, tayyor mahsulot, tovarlar) moddasi bo‘yicha ko‘rsatgichlarni ishonchlilagini tekshirish va bu ko‘rsatgichlarni bosh daftardagi, jurnal-orderlar va boshqa buxgalteriya hisobi registlaridagi ma’lumotlar bilan bog‘liqligini aniqlash.

Ishlab chiqarish zahiralari auditining asosiy vazifalari:

- 1.Ishlab chiqarish zahiralari mavjudligini va saqlanish holatini tekshirish.
- 2.Ishlab chiqarish zahiralari harakatini hujjatlarda rasmiylashtirilishini tekshirish.
- 3.Ishlab chiqarish zahiralarini hisob bahosini shakllanishini to‘g‘riligini tekshirish.
- 4.Ishlab chiqarish zahiralarini to‘liqligi va o‘z vaqtida kirimga olinishini tekshirish.
- 5.Ishlab chiqarish zahiralarini ishlab chiqarish va boshqa maqsadlarga sarflanishini tekshirish.
- 6.Tayyor mahsulotlar va jo‘natilgan tovarlarni to‘g‘ri baholanishini tekshirish.
- 7.Ishlab chiqarish zahiralarini harakatini tekshirish.
- 8.Ishlab chiqarish zahiralarining harakati bo‘yicha muomalalarni hujjatlarda to‘g‘ri rasmiylashtirilishini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
- 9.Ishlab chiqarish zahiralaridan kelgan kamomad va nobudgarchiliklarni hisobdan chiqarilishi bo‘yicha muomalalarning to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
10. Ishlab chiqarish zahiralarining auditini tekshirish manbalari bo‘lib qaysi dastlab hujjatlar va buxgalteriya schyotlari hisoblanadi?

11. Ishlab chiqarish zahiralarining inventarizatsiya natijalari qanday rasmiylashtiriladi va unda kimlar ishtirok etishlari lozim?
12. Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni tekshirish qanday amalga oshiriladi?
13. Moddiy qiymatliklarni tekshirishda qanday me'yoriy hujjatlardan foydalilaniladi?
14. To‘g‘ri baholash qanday belgilanadi:
 - materiallarga;
 - tovarlarga;
 - inventar va xo‘jalik jihozlariga?
15. Inventar va xo‘jalik jihozlarining kirimga olinishi va hisobdan chiqarilishini to‘g‘riliгини tekshirish qanday amalga oshiriladi?
16. Inventar va xo‘jalik jihozlariga eskirish hisoblanadimi?
17. Moddiy resurslarni mavjudligi va saqlanishini to‘g‘riliгини qanday tekshiriladi?
18. Ishlab chiqarish zahiralarining harakati bo‘yicha muomalalarni hujjatlarda to‘g‘ri rasmiylashtirilishini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
19. Ishlab chiqarish zahiralaridan kelgan kamomad va nobudgarchiliklarni hisobdan chiqarilishi bo‘yicha muomalalarning to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
20. Ishlab chiqarish zahiralarining auditini tekshirish manbalari bo‘lib qaysi dastlab hujjatlar va buxgalteriya schyotlari hisoblanadi?
21. Ishlab chiqarish zahiralarining inventarizatsiya natijalari qanday rasmiylashtiriladi va unda kimlar ishtirok etishlari lozim?
22. Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni tekshirish qanday amalga oshiriladi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

- 1.Tovar-moddiy zahiralar auditи auditining maqsadi, vazifalari, ma'lumot manbalari va o'tkazish tartibi.
- 2.Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ketma-ketligi.

3.Tovar-moddiy zahiralarning mavjudligi va saqlanishini nazorat qilish uslubiyoti.

4.Tovar-moddiy zahiralar buxgalteriya hisobini tekshirishning xususiyatlari.

5.Tovar-moddiy zahiralarni kirim qilish va ishlab chiqarishga sarflash vaqtida baholashning to'g'riligini tekshirish.

6. Moddiy boyliklarni sotish va boshqacha tarzda hisobdan chiqarishga doir muomalalarni tekshirish.

7.Inventar va xo'jalik ashyolari bo'yicha ma'lumotlarni tekshirish.

8.Tugallanmagan ishlab chiqarishni tekshirish xususiyatlari.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. SHakar ishlab chiqarish zavodidan temir yo'1 orqali ulgurji savdo tashkilotiga 25 tonna shakar jo'natilgan. YUK ortilgan vagon belgilangan stansiyaga 21.12.da kelgan va yuklarni tushirishga berilgan. SHakarni qabul qilish paytida 23.12 kuni dalolatnomada rasmiylashtirilib, komissiya tarkibiga ombor mudiri Nizomov T. va Egamov O., buxgalter Qosimov N.lar kiritilgan. Dalolatnomada ko'rsatilishicha mol etkazib beruvchining hujjatiga muvofiq 25000 kg shakar, har bir kilogrammi 120 so'm dan umumiyligi summasi 3000000 so'mni tashkil qiladi. SHakarni tortib ko'rilganda 150 kg shakar summasi 18000 so'm kam kelganligi ko'rsatilgan. Qabul qilish dalolatnomasiga asosan 24850 kg shakar buxgalteriyada kirimga olingan. Kamomad summasi 2010 «Ishlab chiqarish xarajatlari» schyotiga hisobdan chiqarilgan. Dalolatnomada hech kim tomonidan tasdiqlanmagan. SHakarni tashish paytidagi tabiiy kamayishi normasi 0,15%.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

2-masala. Korxona o'zida ishlab chiqarilgan oq kiyimlarni bolalar uyiga hayr-sahovat sifatida topshirdi. Bu muomala buxgalteriya hisobida quyidagicha aks etgan.

D-t 9439 K-t 2810 60000

Bu haqiqiy tannarx bo'yicha.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

3-masala. Ulgurji savdo tashkiloti tovarlarni hayr-sahovat maqsadida maktab internatiga berdi. Ulgurji savdo tashkiloti buxgalteriya hisobida bu muomala quyidagicha aks etgan.

D-t 9439 K-t 2910 130000 hisobga olingan bahoda.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

4-masala. Korxona tomonidan xayr exson maqsadida bolalar kasalxonasi ga dorilar berildi. Bu muomala bo‘yicha summa chakana baho 300000 so‘m, savdo ustamasi 30% QQS10% va quyidagicha provodka berilgan.

D-t 8530 K-t 4110 300000

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

5-masala. Auditorlik tekshiruvি jarayonida auditor quyidagilarni aniqladi:

Hisobot davri boshiga materiallar qoldig‘i 2000 ming so‘m bo‘lib, hisobot davrida asosiy ishlab chiqarish uchun 1000 ming so‘mlik, yordamchi ishlab chiqarishga 200 ming so‘mlik, transport vositalarining remonti uchun 50 ming so‘mlik, boshqaruv extiyojlari uchun 10 ming so‘mlik, yotoqxonani ta’mirlash uchun 70 ming sumlik material sarflangan. Ushbu muomalalarni aks ettirish uchun buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar kilingan:

D-t 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»	1000 ming sum
D-t 2310 «YOrdamchi ishlab chiqarish»	200 ming sum
D-t 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari»	60 ming sum
D-t 9410 «Sotish xarajatlari»	70 ming sum
D-t 9420 «Ma’muriy-boshqaruv xarajatlari»	180 ming sum
K-t 1000 «Materiallar»	1330 ming sum.

Talab qilinadi: Materiallarni hisobdan chiqarish bilan bog‘lik noto‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini aniqlang. Auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

6-masala. Korxona mol etkazib beruvchidan 270000 so‘mlik (QQS 45000) qurilish materiallari sotib oldi. SHartnomada 45% oldindan to‘lov nazarda tutilgan. Qolgan summa 2 oyga kechiktiriladi. Tolov muddati kechikkani uchun kechiktirilgan summaning 7% miqdorida haq to‘lanadi.

1. DT 4310 KT 5110-21500
2. DT 1050 KT 6010-225000
3. DT 4410 KT 6010-45000
4. DT 6010 KT 5110-148500
5. DT 9610 KT 6920-10395
6. DT 6920 KT 5110-10395

Topshiriq: YUqoridagi muomlalar to‘g‘ri va to‘liq hisobga olinganini tekshiring va auditorlik hisobotini tuzing.

7-masala. Mas’ulyati cheklangan jamiyatning tasis shartnomasida nazarda tutilishicha, tasischilar ustav kapitaliga ulush sifatida TMZ larni kiritgan.

- “A” Ta’sischi 70000 so‘m (QQS 11667 so‘m)lik kurilish materiallari;
“B” Tasischi 95000 so‘mlik tovar kiritgan.

1. DT 1050 KT 8330-165000
2. DT 4410 KT 6410-11667

Ushbu buxgalteriya o‘tkazmalarida qanday xatoliklar mavjud, ular qanday aniqlanadi.

8-masala. Korxona boshqa bir korxonadan tekinga 36000sumlik material oldi. Olingan materiallar uchun qay tartibda soliq to‘laydi.

DT1010 Kt8530 36000

Soliq to‘lanishini buxgalteriyada provodkasida ko‘rsating.

9-masala. Korxona qarz shartnomasi bo'yicha (foizsiz) 1600000 so'm (jumladan): QQS – 267000 so'm) lik materiallar oldi. Qarz muddati tugagach shu qiymatga teng materiallar qarz beruvchiga qaytariladi (QQS bilan)

DT 4410 267000

DT 1010 1333000

KT 6820 1600000

Qarz muddati tugagach buxgalteriya o'tkazmalarini berilsin.

10-masala. Korxona o'z xodimiga hisobot berish sharti bilan vakillik tadbirlarini o'tkazish uchun 70000 sum berdi.

Xodim ushbu pulga bozordan 75000 sum qiymatga ega poliz ekinlari sotib oldi korxona buxgalteriyasiga bo'lgan hisobotni taqdim etdi.

1. DT 4230, KT 5010-70000

2. DT 1090-75000

KT 4230-70000

KT 6970-5000

Ushbu jarayon audit o'tkazish boskichlarining qay birida ko'rib chiqiladi va foydalanilgan audit manbalarini keltiring.

11-masala. Korxona 273000 sumlik ehtiyyot qism sotib oldi. Materiallar hisobi haqiqiy tannarx bo'yicha olib borildi. Jumladan QQS-47000 materiallar haqiqiy tannarxi 226000 sum ehtiyyot qism qanday hujjat asosida kirish qilinadi? Buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshirilsin va pulni to'lab berilsin.

12-masala. To'qimachilik korxonasi may oyida bo'yoq sotib olish va sarflash bo'yicha quyidagi operatsiyalarni amalga oshirgan.

- 2-mayda 1 kg uchun 1200 sumdan 100 kg bo'yoq oldi;
- 9-mayda 1 kg uchun 1170 sumdan 300 kg bo'yoq oldi;
- 12-mayda ishlab chiqarishga 210 kg bo'yoq sarflandi;
- 20-mayda 140 kg bo'yoq sarflandi;

- 25-maydan 1 kg uchun 1230 sumdan 500 kg buyoq olindi;
- Korxonada 1-may holatiga bo‘yoq zaxirasi bo‘lmagan. Korxona uzluksiz hisob tizimidan foydalanadi;

Buxgalterga hisob yuritishda yordam bering.

Auditor ushbu jarayonda qaysi hujjatlardan foydalanadi.

13-masala. Korxona ob’ekt qurilishi uchun olgan matariallarning qolganining 730000 ga sotdi.

Jumladan QQS 122000 sum.

Ushbu materiallarning tannarxi 560000 so‘mni tashkil kiladi.

DT 5110 KT 6310-730000

DT 4010 KT 9220-730000

DT 6310 KT 4010-730000

DT 9220 KT 1050-560000

DT 9220 KT 6410-122000

Dt 9220 KT 9320-48000

Ushbu buxgalteriya o‘tkazmalari qanday hujjatlarga asoslangan?

14-masala. Korxona materiallar qiymatini hisob baxosi bo‘yicha aks ettiradi.

Oktyabr boshidagi xolatga ko‘ra quyidagilar hisobda turgan;

- ombordagi material qoldig‘i -600000 sum.

- 1610 schyotning kreditidagi saldo 80000.

- Oktyabrdagi hisob baxosi bo‘yicha 800000 so‘mlik materiallar kirim qilindi.

Mol etkazib beruvchilar hisob-kitob hujjatlariga ko‘ra materiallarni tannarxi 720000 (QQS 120000 sum) tashkil qiladi. Oktyabrdagi 1150000 so‘mlik hisob bahosi bo‘yicha material asosiy ishlab chiqarishga sarflandi.

DT 1010 KT 1510-800000

DT 4410 KT 6010-120000

DT 1510 KT 1610-200000

Iqtisod qilingan summani aniqlang, buxgalter o‘tkazmalarini to‘ldiring.

15-masala. «Islom» f/x chorvachilik bilan shug‘ullanadi. 2019 yil mart oyida 6 oygacha bo‘lgan yosh bir bosh buzoq korxonaning aybi bilan xarom o‘ldi. Bir bosh buzoqning qiymati 2000000 so‘m. Fermada har 10 buzoqqa bir ishchi biriktirilgan. Ishchiga 1750000 so‘m mikdorda ish haqi belgilangan. SHuningdek, buzoqlarga yaxshi qaragani uchun ma’lum miqdorda mukofot puli ham beriladi.

SHunda ushbu xarajatga o‘tkazma berish uchun 9430 - “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotidan foydalanilgan.

Ushbu o‘tkazmada buxgaltering xotosi va foydalanilgan axborot manbalarini aniqlang.

16-masala. Korxona omboriga 6 000 000 so‘mlik materialni keltirish kerak. Materiallarni korxona omboriga olib kelish uchun 300 000 so‘m transport xarajatlari qilingan Ushbu materiallarni ishlab chiqarishga sarflanganida, materiallarni keltirish bog‘liq xarajatlarni quyidagicha joylashtirgan .

Dt 9430 Kt 1510

Auditorlik tekshiruvi paytida auditor yuqoridagi provodka bo‘yicha kamchilikni yuz bergenini ko‘rsatib bergen .

Topshiriq: Korxona buxgalteri qanday xatolikka yo‘l qo‘ygan?

17-masala. Korxonaga tegishli ombor inventarizatsiyadan o‘tkazilganda 125000 so‘mlik kamomad aniqlandi Ushbu omborga 2600 000 so‘mlik material kirim qilinganligi ma’lum bo‘lgan, ishlab chiqarishga 2 100 000 so‘mlik material sarflangan . Omborda 500 000 so‘mlik material bo‘lishi kerak edi . SHu paytda buxgalter quyidagicha provodka berib kamomadni yopgan.

Dt 9430 Kt 1010 125000

Lekin ombor mudiri A. Abduxoliqurov kamomadni tan olgan va kamomadni ish haqidan ushlab qolinishiga rozi bo‘lgan.

Topshiriq: YUqoridagi kamomad bo‘yicha provodkalar to‘g‘riligini tekshiring.

18-masala. “Gidroproekt” AJ qurilish korxonasi tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvidan o’tkazilmoxda. Tekshiruv davomida tovar-moddiy zaxiralar harakati bilan bog’liq muomalalar ko’rib chiqildi. Hamda asosiy auditor quyidagi kamchiliklarni aniqladi:

1. Tayyor mahsulotlar materiallar sifatida o’z ehtiyojlari uchun omborga kirim qilinganda:

Dt 1010-1090 “Materiallarni hisobga oluvchi schotlar”,

Kt 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”.

2. Materiallarni tashib berilganligi uchun transport tashkilotidan schotlar olingan:

Dt 1010-1090 “Materiallarni hisobga oluvchi schotlar”,

Kt 6010 “Mol yetkazib beruvchilarga to’lanadigan schotlar”.

3. Mol-mulk tarkibida xarid qilingan yoqilg’i hisobga olingan:

Dt 8530 “Tekinga olingan mulk”,

Kt 1030 “Yoqilg’ilar”.

4. Material kamomadi bo’yicha mol yetkazib beruvchilarga da’volar taqdim qilingan:

Dt 1010-1090 “Materiallarni hisobga oluvchi schotlar”,

Kt 6960 “Da’volar bo’yicha to’lanadigan schotlar”.

Talab qilinadi: Asosiy auditor aniqlagan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tuzatuvchi o’tkazmalar berilsin hamda yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar keltirilsin.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Auditor tovar-moddiy zahiralarni to’g’ri baholanishini tekshirganda qaysi BHMSga muvofiqligini tekshirishi kerak?

- A. 1-BHMS bilan
- B. 5-BHMS bilan
- C. 15-BHMS bilan
- D. 4-BHMS bilan

E. To'g'ri javob mavjud emas

2. TMZlarni tekshirishda auditorlik amallari qanday amallarga bo'linadi?

- A. Inventarizatsiyagacha bajariladigan amallar
 - B. Inventarizatsiya vaqtida bajariladigan amallar
 - C. Inventarizatsiyadan so'ng bajariladigan amallar
 - D. A, B, C
- E. To'g'ri javob mavjud emas

3. Auditor tovar-moddiy zahiralarining tushumi va kirim qilinishi qanday hujjatlar asosida tekshiradi?

- A. Mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida
 - B. Tovar-transport nakladnoylari, schyot-fakturalar asosida
 - C. Qadoqlash (upakovka) yorliqlari, sifat guvohnomasi, qabul kvitantsiyasi va boshqalar asosida
 - D. Mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar va kuzatib boruvchi hujjatlar asosida
- E. To'g'ri javob mavjud emas

4. Omborxonada sodir bo'lgan kirim muomalalarini tekshirishning umumiy usuli aniqlang?

- A. Inventarizatsiya usuli
 - B. Omborxona kirim hujjatlarini mol etkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlari yoki materiallarni chakana savdoda naqd pulga sotib olish hujjatlari bilan solishtirish
 - C. Omborxona kirim hujjatlarini mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar solishtirish
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
- E. To'g'ri javob mavjud emas

5. Tekshiruv mobaynida tuziladigan taqqoslash qaydnomalarini kimlar imzolaydi?

- A. Faqat auditor.
- B. Bosh buxgalter va moddiy javobgar shaxs
- C. Auditor va bosh buxgalter
- D. Auditor, bosh buxgalter va moddiy javobgar shaxs
- E. To'g'ri javob mavjud emas

6. TMZlar kamomadining aniq aybdorlari topilmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirib olish imkoni bo'lмаган hollarda ko'rilgan zarar summasi daromad (foyda) solig'ini hisoblashda umumiy belgilangan tartibda soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladimi?

- A. Ha
- B. Yo'q
- C. Ba'zi paytlarda qo'shiladi
- D. To'g'ri javob yo'q
- E. Aksincha soliq bazasidan ayrıldi

7. Tekshiruv jarayonida korxonada konsignatsiya shartlari asosida olingan tovarlar mavjud ekanligi hamda bu tovarlar 2910-“Ombordagi tovarlar”-hisobvaraqda aks ettirilganligi aniqlandi. Aslida bunday tovarlar qaysi hisobvaraqda hisobga olinishi zarur?

- A. 001-“Operativ lizing bo'yicha olingan asosiy vositalar”
- B. 002-“Ma'sul saqlashga olingan tovar-moddiy boyliklar”
- C. 003-“Qayta ishslashga olingan materiallar”
- D. 004-“Komissiyaga olingan tovarlar”
- E. To'g'ri javob mavjud emas

8. Tovar moddiy zahiralari audit qaysi BHMSlarga asosan o'tkaziladi?

- A. 5, 6, 10

- B. 1, 4, 19
- C. 12, 16, 20
- D. 3, 9, 15
- E. 5, 4, 16

9. Agar TMZ sotilayotgan paytda uning bahosi tannarxidan tushib ketsa, QQS qaysi summadan hisoblanadi?

- A. Realizatsiya bahosidan
- B. Tannarxidan
- C. Realizatsiya va tannarx baholari farqidan
- D. Bozorda yurib to'rgan bahodan
- E. Boshlang'ich bahoda

10. TMZ larning sotilishi bo'yicha auditor qaysi schyot ma'lumotlarini tekshirishi kerak?

- A. 1010, 9220, 6410
- B. 0110, 1510, 2010
- C. 2810, 5010, 5710
- D. 9220, 1010, 0110
- E. To'g'ri javob mavjud emas

15-MAVZU: MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH VA SOTISHNING AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, bevosita va bilvosita xarajatlar, ustama xarajatlar, mahsulot tannarxini aniqlash usullari, ishlab chiqarishdagi brak, tayyor mahsulotning baholanishi va saqlanishi, sotish bilan bog'liq xarajatlar, mahsulot sotishdan tushgan tushum va sof tushum.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.Ishlab chiqarish xarajatlari auditining oldiga qanday maqsad qo'yiladi?
- 2.Ishlab chiqarish xarajatlari auditining qanday me'yoriy asoslari va xususiyatlari mavjud?
- 3.Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish qanday amalga oshiriladi?
- 4.YOrdamchi ishlab chiqarishlar auditi qanday amalga oshiriladi?
- 5.Umumishlab chiqarish xarajatlari auditi qanday amalga oshiriladi?
- 6.Mahsulot tannarxi to'g'ri aniqlanganligini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
- 7.Ishlab chiqarishdagi brak auditi qanday amalga oshiriladi?
- 8.Tayyor mahsulotni baholashning auditi qanday amalga oshiriladi?
- 9.Tayyor mahsulotning saqlanishi auditi qanday amalga oshiriladi?
10. Sotish xarajatlari auditi qanday amalga oshiriladi?
11. Tayyor mahsulotlarni jo'natish bo'yicha muomalalar to'g'rilingining auditi qanday amalga oshiriladi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Ishlab chiqarish korxonasini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish vaqtida quyidagilar aniqlandi:

- 1) Korxona xodimlariga meditsina xizmati ko'rsatish uchun pul to'langan:

D-t 2510 K-t 5110 3000 ming so'm.

2) Korxona xodimlari farzandlarining dam olishlari uchun lagerga putyovka olingan:

D-t 9430 K-t 5110 1500 ming so'm.

3) Oborot mablag'larini to'ldirish uchun olingan qisqa muddatli kredit foizi
to'langan:

D-t 6810 K-t 5110 74 ming so'm.

4) 8- mart «Xotin-qizlar bayrami» munosabati bilan sovg'a olingan

D-t 9420 K-t 5010 270 ming sum.

Talab qilinadi: Xarajatlarni hisobga olishdagi xatoliklarni aniqlang.

2-masala. Auditor tomonidan uskunani montaj qilish uchun sarflangan xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritilganligi aniqlandi. Ushbu montaj ishlari montaj qiluvchi tashkilot tomonidan bajarilgan bo‘lib, ushbu montaj amaldagi asosiy vositalarni rekonstruksiya (modernizatsiya) qilish ishlari tarkibiga kiritiladi.

Talab qilinadi: Bu holatda qanday me'yoriy hujjat buzilgan? Xatoning sababini aniqlang va ushbu muomalalarni aks ettiruvchi buxgalteriya provodkalarini bering.

3-masala. “Al-Asr” kompaniyasi o‘z mijozи “AmrBek” kompaniyasiga tovarlar uchun 10 kun ichida to‘lovni amalga oshirish sharti bilan 5% li chegirmani taklif etgan. To‘loving eng uzoq muddati 30 kun. SHartnomaga muvofiq, xaridor kompaniyaga “Al-Asr” kompaniyasi tomonidan tovarlar 1 iyulda jo‘natilgan. To‘loving dastlabki summasi 10000 tashkil qilgan. Bunda “Al-Asr” kompaniyasi bosh buxgalteri tomonidan quyidagi yozuvlar berilgan:

1 iyul xolatiga Dt 4010- 10000

Kt 9020- 10000

Dt 9120-9000

Kt 2910-9000 yozuvi berilgan.

Tekshiruv natijalariga ko‘ra xaridor tomonidan to‘lov 9 iyulda o‘tkazilgan va unga buxgalter tomonidan quyidagicha o‘tkazma bergen:

Dt 5110-10000

Kt 4010-10000

Topshiriq: YUqoridagi ma’lumotlar asosida buxgalteriya provodkalarini to‘g‘riligini tekshiring va auditorlik Hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

4-masala. “Fayzullaxon” kompaniyasi shubxali qarzlardan zararlar va kreditga sof sotish orasidagi foiz nisbatiga asoslanib, o‘zining qaytarilmaydigan hisobvaraqlarini baholaydi. 2004 yilda “Fayzullaxon” kompaniyasi 4450 ming miqdorda savdo qilgan. savdoning 70% kreditga amalga oshirilgan. Oldinga tajriba kreditga sotishning 3% to‘lanmaydiganligi ko‘rsatadi. bosh buxgalter tomonidan tovarlar sotilgandi quyidagi pravodka berilgan:

Dt 4010 – 4450000

Kt 9010 - 4450000

Kompaenianing undira olmaydigan qarzlarini aks ettirish uchun quyidagicha pravodka berilgan:

Dt 4910 – 133500

Kt 9430 – 133500

Topshiriq: YUqoridagi ma’lumotlar asosida to‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini to‘g‘riligini tekshiring va auditorlik Hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

5- Masala. Yengil avtomobillar uchun ehtiyyot qismlarini ishlab chiqaruvchi Koreya va O’zbekiston qo’shma korxonasi “Uz Tong-Hong Co” MCHJ majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilmoqda. Audit rejasi va dasturiga asosan mahsulot ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog’liq muomalalar tekshirilganda quyidagicha xato va kamchiliklar aniqlandi:

1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi hodimlarga vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar aks ettirilgan:

Dt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"

Kt 6990 "Boshqa majburiyatlar"

2. Yaroqsizlikdan yo'qotishlar, yaroqsiz mahsulotlar qaytarilishi bo'yicha xarajatlar asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari va xizmatlari tannarxiga kiritilgan:

Dt 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar"

Kt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"

3. Majburiy mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha xarajatlar summasi (sug'urta tashkilotlaridan qarzlar) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilgan:

Dt 6510 "Sug'urta bo'yicha to'lovlar"

Kt 6410 "Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz"

4. Asosiy ishlab chiqarish bilan bog'liq hodimlarga ko'p yil mehnat qilgani uchun taqdirlash haqini to'lash bo'yicha rezerv barpo etilgan:

Dt 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"

Kt 8520 "Rezerv kapitali "

5. O'z kapital qurilishiga berilgan mahsulotlarning qiymati tushum kabi aks ettirilgan:

Dt 9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar"

Kt 0810-0890 "Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schotlar"

Talab qilinadi: Auditor aniqlagan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tuzatuvchi o'tkazmalar berilsin hamda yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar keltirilsin.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Auditorlik tekshiruvi natijasida foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga qo'shilganligi aniqlandi. Qonunchilikka binoan bu turdag'i xarajat qaysi qatorga qo'shilishi kerak?

A. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar

- B. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- C. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar
- D. Sotish xarajatlari
- E. To'g'ri javob mavjud emas

2. Auditorlik tekshiruvi jarayonida korxonada bir mahsulot uchun o'zgaruvchan xarajat **1200 so'mni, doimiy xarajatlar esa **800000 so'mni** tashkil qilganligini aniqladi. Mahsulot bir birlik bahosi **2000 so'm** qilib belgilangan. Mahsulot sotishdan **600000 so'm** foyda olish uchun auditor korxonaga qancha birlik mahsulot ishlab chiqarishni tavsiya qiladi?**

- A. 1550 birlik
- B. 1650 birlik
- C. 1750 birlik
- D. 1850 birlik
- E. Hamma javob to'g'ri

3. Auditorlik tekshiruvi jarayonida tayyor mahsulotni o'rash xarajatlari mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilganligi aniqlandi. Auditor bu turdagи xarajatlarni qaysi guruhga kiritishni tavsiya qiladi?

- A. Sotish xarajatlari
- B. Boshqa operatsion xarajatlar
- C. Transport-tayyorlov xarajatlari
- D. Moliyaviy xarajatlar
- E. Hamma javob to'g'ri

4. Auditor mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni aniqlashda qaysi hujjatdan foydalaniladi?

- A. 2-son BHMS
- B. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun
- C. 3-son BHMS

- D. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom
- E. To'g'ri javob yo'q

5. Mahsulot sotish muomalalari bilan bog'liq operatsiyalarni o'rganish jarayonida auditor quyidagi hujjatlarning qaysi biridan foydalanmaydi?

- A. Schyot-fakturalar
- B. Shartnomalar
- C. Ishonchnomalar
- D. Tushum tushganligi to'g'risida dastlabki bank hujjatlari.
- E. To'g'ri javob yo'q.

6. Auditorlik tekshiruvi natijasida ishlab chiqarish xodimlarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga qo'shilganligi aniqlandi. Qonunchilikka binoan bu turdagи xarajat qaysi qatorga qo'shilishi kerak?

- A. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar
- B. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lган mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- C. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar
- D. Sotish xarajatlari
- E. To'g'ri javob mavjud emas

7. Auditor xarajatlar va ulardan kutiladigan foyda xususidagi ma'lumotni qaysi hujjatdan oladi?

- A. Smetadan
- B. Byudjetdan
- C. Balansdan
- D. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotdan
- E. To'g'ri javob mavjud emas

8. Mehnat haqi xarajatlari hisobi bo'yicha qaysi hujjat auditor uchun tekshiruv manbai hisoblanmaydi?

- A. Limit-zabor kartalari
- B. Ish haqi marshrut varaqalari
- C. Marshrut varaqlari
- D. Naryadlar
- E. To'g'ri javob mavjud emas

9. Auditor mahsulot sotish bilan bog'liq ma'lumotlarni qaysi hisobvaraqlardan oladi?

- A. 4010, 9010, 6710
- B. 4310, 9110, 3110
- C. 2810, 4010, 9010
- D. 0950, 0310, 4730
- E. 6810, 6010, 4910

10. Auditorlik tekshiruvida umumishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar qaysi jurnal-orderdan olinadi?

- A. №6-jurnal-orderda
- B. №13-jurnal-orderda
- C. №1-jurnal-orderda
- D. №10-jurnal-orderda
- E. To'g'ri javob mavjud emas

16-MAVZU: PUL MABLAG'LARI AUDITI

Auditning maqsadi: Pul mablag'lari bo'yicha amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarini qonuniy, ishonchli va xo'jalik uchun maqsadli tartibda tashkil qilish.

Kassa muomalalari auditining asosiy vazifalari:

- 1.Kassadagi naqd pul mablag'larini saqlash sharoitini tekshirish.
- 2.Kassadan naqd pullar kirimi va chiqimini rasmiylashtiruvchi dastlabki hujjatlarni to'g'rilibini tekshirish.
- 3.Kassa muomalalarini yuritish tartibini tekshirish.
- 4.Kassa muomalalari hisobi, kassa daftari va analistik hisob ma'lumotlarini tekshirish.
- 5.Bankdan yuridik va jismoniy shaxslardan kassaga kirim qilingan naqd pullarni to'liqligi va o'z vaqtida kirimga olinishini tekshirish.

Quyidagi atamalarga izoh bering: Kassa kirim va chiqim orderlari, kassa kitobi, cassir hisoboti, to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi, bank ko'chirmasi, inkasso talabnomasi, kartoteka, akkreditivlar, chek daftarchalari, chet el valyutasi, valyuta kurslaridan farqlar.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.O'zbekiston Respublikasida kassa muomalalarini yuritish tartibi qaysi me'yoriy hujjatlarga muvofiq tartibga solib turiladi?
- 2.Kassa muomalalarini tekshirishning vazifalari va ketma-ketligi nimalardan iborat?
- 3.Kassa muomalalarini tekshirishning qanday usullari qo'llaniladi?
- 4.Kassa qoidalariga rioya qilinishini tekshirishga nimalar kiradi?
- 5.Kassadagi naqd pullar va qimmatli qog'ozlarni to'g'ri saqlanishini qanday tekshiriladi?

6. Bank muomalalarini tekshirishning vazifalari va ketma-ketligi nimalardan iborat?

7. Bankdagi schetlar bo'yicha muomalalarni ishonchlilagini va maqsadga muvofiqligini tekshirishda qanday auditorlik protseduralaridan foydalilanadi?

8. Kassa va Bank muomalalarini audit qilish uchun qaysi hujjatlar va buxgalteriya schetlari tekshirish manbalari bo'lib hisoblanadi?

9. YUridik va jismoniy shaxslarga naqd pulga mahsulotlar realizatsiya qilishni tekshirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

10. Hisobdor shaxslarga berilgan naqd pullarni tekshirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

11. Kassa muomalalarini rasmiylashtirish tartibini tekshirish qanday amalga oshiriladi?

12. Kassadan beriladigan naqd pullarni nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?

13. Kassa davtarini yuritishtartibi va naqd pullarni saqlashni to'g'riligini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?

14. Xorijiy valyutadagi pullarni qabul qilish va tarqatishni nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?

15. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni qaysi me'yoriy hujjatlarga muvofiq tartibga solinib turiladi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. 10 fevralda savdo tashkiloti bosh kassasi inventarizatsiya qilindi. Bosh kassir auditorlar komissiyasiga naqd 125000 so'm borligini e'lon qildi. Kassa hisoboti ma'lumoti bo'yicha shu kun boshiga naqd pul qoldig'i 25600 so'm bo'lgan. 10 fevral kuni №151 kassa kirim orderi bo'yicha 1-kassaga 30000 so'm pul tushgan va shu summa kirim qilingan. SHuningdek 2-kassaga tushgan 27000 so'm № 152 kassa kirim orderi bo'yicha kirim qilingan. 10 fevraldaggi №137 kassa chiqim orderi bo'yicha bankka 44800 so'm topshirilgan.

Bosh kassir quyidagi shaxslarga maoshgacha pul bergenligini tushuntirish xatida ko'rsatib o'tgan:

Sotuvchi Hamidova S.G.ga 55000 so'm.

Ishchi Axmedova A.SH.ga 40000 so'm.

Kassir Abdullaeva L.A. 35000 so'm

Kassir fikri bo'yicha bu summalar ish haqi beriladigan kun yuqoridagi shaxslardan ushlab qolinadi.

Talab qilinadi: Inventarizatsiya bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshiring. Xolatga baho bering.

2-masala. Bank tomonidan korxona kassasiga naqd pul qoldig'i me'yor 20000 so'm qilib belgilangan. Tekshirilayotgan davr mobaynida 5010->»Kassa» schyoti bo'yicha registrda hamda kassa hisobotida naqd pul qoldig'i ko'rsatilgan.

1-fevralda	35000
18-fevralda	760000
1-martda	220000
1-aprelda	286500
15-aprelda	148700
2-mayda	137000
15-mayda	128000
5- iyunda	472700
1-iyulda	127000
10-iyulda	168000
1-avgustda	113000
10-sentyabrda	157000
10-oktyabrda	158000
12-dekabrda	158000

Savdo korxonalari uchun ish haqi berish sanasi har oy uchinchi yoki un ettinchi kuni qilib belgilangan.

Talab qilinadi: Kassada inventarizatsiya koidalari buzilgan yoki yo‘qligini aniqlang?

Auditning maqsadi: Xorijiy valyutada ifodalangan mulklar va majburiyatlar hisobi va hisoboti ma’lumotlarini me’yoriy hujjatlarga muvofiq tarzda tashkil qilish.

1.Xorijiy valyuta bo‘yicha hisobot ko‘rsatkichlarini haqqoniyligini tekshirish.

2.Xorijiy valyuta muomalalari hisobi to‘liqligi, to‘g‘riliqi va ularning hujjatlarda to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish.

3.Xorijiy valyuta hisobi me’yorlariga amal qilinayotganligini tekshirish.

4.Xorijiy valyuta muomalalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi registrlari to‘g‘ri yuritilayotganligini tekshirish.

3-masala. 6-fevral kuni korxona valyuta schyotiga & 1000 doll.umumiyo‘so‘mdagi qiymati 240000 so‘m tushdi. Buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan:

D-t 5220 - 240000

K-t 9010 - 240000

& 700 doll. 169000 so‘m uchun joriy yilning 24 fevralida analogik yozuv qilindi. Valyuta schyoti bo‘yicha bank ko‘chirmasiga hech qanday hujjat ilova qilinmagan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

4-Masala. Aprel oyida korxonada 400 doll.valyuta sotildi. Bu muomala korxona buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirilgan.

1.Realizatsiya qilingan valyuta summasi joriy schyotidan hisobdan chiqarildi.

D-t 5710 23840

K-t 5220 23840

2.Realizatsiya qilingan valyuta summasi bo‘yicha hisob-kitob schyotiga pul kirim qilindi.

D-t 5110 24000

K-t 5720 24000

3. Valyuta sotilgani uchun bankning komission xizmat haqi hisobdan chiqarildi.

D-t 9439 265

K-t 5110 265

4. Valyutani sotish bo'yicha foyda summasi aks ettirildi.

D-t 5720 160

K-t 9220 160

D-t 9220 160

K-t 9320 160

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

5-Masala. Kontrakt bo'yicha Polshaga 6120 dollarga uskunalar sotildi. Valyutaga sotilgan asosiy vositalar bo'yicha buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan:

1. D-t 9210 400000 K-t 0130 400000

2. D-t 0230 392000 K-t 9210 392000

3. D-t 4010 979200 K-t 9210 979200

4. D-t 4710 195840 K-t 6410 195840

Xaridor to'lovni ikki marta amalga oshiradi.

1) 15.08. sanada 35000 doll. 868000 so'm. SHu sanada 1 doll.= 24,8 so'm.

2) 06.09. sanada 5000 doll. 126000 so'm. SHu sanada 1 doll. = 25,2 so'm.

Uskuna jo'natish qabul-topshirish akti bo'yicha 10.09.da amalga oshirildi. SHu sanada doll. kursi 25,4 so'mni tashkil etgan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

6-Masala. Auditor bosh daftar va kassa daftari oborotlarini tekshirib, bir necha xo‘jalik muomalalariga aniqlik kiritdi. Bosh daftar hamda kassa daftarida quyidagicha provodkalar keltirilgan.

D-t 5010 K-t 2310

D-t 5010 K-t 9030

Boshlang‘ich hujjatlar va unga ilova hujjatlarida kassaga naqd pul tushganligi ma’lum bo‘ldi. Naqd pul quyidagilar uchun tushgan.

- A) Korxona avtotransportlaridan foydalanganlik uchun 8500 so‘m;
- B) Omborda ba’zi tovarlarni saqlaganligi uchun 12000 so‘m;
- C) Ortish tushirish xizmatlari uchun 10800 so‘m.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik xulosasini bering.

7-Masala. Korxona hisob siyosati buyrug‘iga asosan realizatsiya bo‘yicha tushum faqatgina mahsulot jo‘natilganda 21-martda chet ellik haridorga 5000 doll.ga schyot yozildi. SHu sanada 1 doll.=248 so‘mga teng bo‘lgan. Buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvi qilingan.

D-t 4310 K-t 9220 1240000

Haqiqatda mahsulot 5-aprelda ortib jo‘natilgan. SHu sanada 1 doll. =248,55 so‘mga teng bo‘lgan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

8-Masala. Buxgalteriya hisobi registrida 5010-schyot bo‘yicha hisobot yilida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan:

21-jadval

Sana	Muomala mazmuni	Schyotlar korrespondensiyasi				Joriy qoldiq	
		Debet		Kredit			
		Sschyot	Summa	schyot	summa		
25.01	Mijozlar tomonidan kseroksdan foydalanildi	5510	18000	2010	18000	201000 219000	
25.01.	Materiallar sotildi	5510	10800	10	10800	327000	

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Korxonaning bankdagi schyotlar buyicha ma’lumotlarini tekshirishda auditor quydagи ma’lumotlardan qaysinisidan foydalaniлади?

- A. O’tkazilgan tekshirish asosida orliq dalolatnomasidan
- B. Hisob yuritish siyosati to’g’risidagi buyruqning pul mablag’lari hisobiga doir bo’lishi
- C. Kredit bo’limi hisob kitobini
- D. Buxgalteriya balansi 2-shakli
- E. Buxgalteriya balansi 5-shakli

2. Kassani tekshirish boshlanganda auditorning dastlabki asosiy ishi nimadan iborat?

- A. Bosh buxgalterni bitta yoki bir nechta korxonada ishlashini o’rganish
- B. Kassir hisobotlarini o’rganish
- C. Tekshirilayotgan korxonada bitta yoki bir nechta kassir ishlashini o’rganish
- D. Buxgalterning kassa muomalalarini yuritish qoidalariga rioya etishini o’rganish
- E. Buxgalteriya balansi 4-shaklining tuzilishiga

3. Kassani tekshirish kimning ishtiroki bilan amalgalashadi?

- A. Inkassator
- B. Bosh buxgalter
- C. Kassir
- D. Bosh buxgalter va kassir
- E. Korxona iqtisodchisi va buxgalterlar

4. Kassadagi qimmatli qog’ozni sanashda kimlar ishtirok etadi?

- A. Inkacsator

- B. Bosh buxgalter
- C. Kassir
- D. Auditor
- E. Bosh buxgalter, kassir, auditor

5. Bank ko'chirmasidagi dastlabki hujjatlar quyidagi hujjatlardan qaysi birida aks etadi?

- A. Schyotlar
- B. To'lov topshiriqlari
- C. Shartnomalar
- D. Akt protsentovkalar
- E. Barcha javoblar to'g'ri

6. Auditor yo'ldagi pul mablag'larining kelib tushishiga doir ma'lumotlarni qaysi hujjatdan oladi?

- A. Pul cheki pattasi
- B. Kirim to'g'risidagi tasdiqnoma
- C. Topshirish e'loni
- D. To'lov vedomosti
- E. To'g'ri javob mavjud emas

7. Valyuta qonunchiligiga muvofiq valyuta sotish qanday toifaga bo'linadi?

- A. Majburiy sotish
- B. Olib sotish va majburiy sotish
- C. Qaytarib sotish
- D. Erkin (ixtiyoriy) sotish
- E. A,C,D

8. Kredit 5110 korespondentsiyasini qaysi schyotlar debetlanganda sinchiklab tekshiriladi?

1. 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti
 2. 2310-“Yordamchi ishlab chiqarish” schyoti
 3. 2510-“Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyoti
 4. 6520-“Davlat mao’sadli fondlariga to’lovlar” schyoti
 5. 6710-“Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar” schyoti
- A. 1,3,5
B. 2,3
C. 4,5
D. 1,2,3,4
E. 3,4,5

9. Auditorlik tekshiruvida kassa orderiga o'zgarish kiritilganligi aniqlandi. Ammo unda xato mavjud emas deb hisoblandi. Ushbu holatda auditor kassirga qanday yo'l tutishni tavsiya qiladi?

- A. Kassa orderini «qizil storno» usulidan foydalangan holda to'g'rakashni
B. Kassa orderini boshqatdan rasmiylashtirishni
C. Kassa orderining pastki qismiga tushuntirish yozishni
D. Kassa orderiga qo'shimcha hujyatni ilova qilishni
E. To'g'ri javob mavjud emas

10. Bankdagi maxsus schyotlar bo'yicha muomalalarni hisobga olishda qaysi schyotlardan foydalaniladi?

- A. 5510, 5520
B. 5110, 5510
C. 5110, 5510
D. 5510, 5210
E. 5510, 5710

17-MAVZU: MAJBURIYATLAR AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Debitorlik va kreditorlik qarzlari, kreditlar va ularni olish shartlari, xizmat safari uchun berilgan bo‘naklar, xaridor va buyurtmachilar, mol etkazib beruvchilar, da’volar bo‘yicha hisob-kitoblar, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, moddiy javobgar shaxslar, ta’sischilar bilan hisoblashishlar.

Auditning maqsadi. Debitor va kreditorlik qarzlar bo‘yicha hisobot ko‘rsatgichlarini ishonchliligi uchun etarli dalillar olish.

Hisoblashish va kredit muomalalari auditining asosiy vazifalari.

1. Vaqtida undirilmagan va korxona tomonidan talab qilmagan qarzlar mavjud bo‘lsa ularga chora-tadbirlar ko‘rish va undirish choralarini ko‘rib chiqish.

2. Hisob ma’lumotlaridagi kredit va qarzlarini hujjatlarini va uni realligini nazorat qilish.

3. Olingan qarzlarni maqsadga muvofiq ishlatalishini va uni o‘z vaqtida qaytarilishini tekshirish.

4. Kreditlar bo‘yicha foizlarni to‘g‘ri to‘lanishini nazorat qilish.

5. Olingan kreditlarni asosligini va qonunga muvofiqligini tekshirish.

6. Hisoblashish va kredit muomalalari bo‘yicha sintetik va analitik hisob yuritilishini to‘g‘riligini tekshirish.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Berilgan kreditlarni ta’minlanishini tekshirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

2. Safar xizmatiga jo‘natilgan xodimlar bo‘yicha hisob-kitoblarni tekshirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

3. Kredit va qarzlar bo‘yicha muomalalarni tekshirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

4. Hisoblashish muomalalari qanday me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinib turiladi?
5. Hisoblashish hujjatlarini rasmiy lashtirish tartibi qanday?
6. Hisoblashish va kredit muomalalarni audit qilishda qanday hujjatlar va buxgalteriya schyotlari tekshirishi manbalari bo'lib xizmat qiladi?
7. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy hususiyatlari mavjud?
8. Berilgan va olingan avanslar bo'yicha hisoblashishlar auditining qanaday asosiy hususiyatlari mavjud?
9. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar auditining qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
10. Da'volar bo'yicha hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlar mavjud?
11. Byudjet bilan hisoblashishlar auditining qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
12. Byudjetdan tashqari fondlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
13. Mehnat haqi bo'yicha hisoblashishlarni tekshirishning qanday xususiyatlari mavjud?
14. Moddiy javobgar shaxslar bo'yicha hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
15. Moddiy zararlarni qoplash bo'yicha hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
16. Ta'sischilar bilan hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
17. Turli debtor va kreditorlar bo'yicha hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
18. SHO'ba korxonalar bilan hisoblashishlarni tekshirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
19. Kreditlardan maqsadli foydalanishni tekshirish qanday amalga oshiriladi?

20.Bank kreditlari hisobining xususiyatlari qanday?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

- 1.Majburiyatlar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.
- 2.Mehnat haqi bo'yicha majburiyatlar audit.
- 3.Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar audit.
4. Xodimlar bilan boshqa muomalalar bo'yicha majburiyatlar audit.
- 5.Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bo'yicha majburiyatlar audit.
- 6.Xaridorlar va buyurtmachilar bo'yicha majburiyatlar audit.
- 7.Da'volar va olingan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar audit.
- 8.Byudjetga soliq va majburiyatlar audit.
- 9.Ijtimoiy sug'urta va ta'minotga doir hisob-kitoblar audit.
- 10.Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar audit.
- 11.Bank kreditlari va bankdan tashqari olingan qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar audit.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-Masala. Bank ko'chirmasi bo'yicha 15.10 sanada 230000 so'm materiallar uchun to'langan qurilish materiallari bazasiga to'langan schyotga yuk xati ilova qilinmagan. Hisob registrida yuqoridagi summa quyidagicha aks etgan.

D-t 6010 K-t 5110 230000

Materiallar hisobi registrida hamda material hisobotida materiallar kirimi schyoti haqida hech qanday ma'lumot yo'q.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

2-Masala. SHartnoma bo'yicha korxona kelgusida material etkazib berish sharti bilan 180000 so'm bo'nak oldi. 6310-“Olingan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar” schyoti bo'yicha registrda yanvar va mart oylarida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari qilingan.

D-t 5110 K-t 6310 180000

D-t 6310 K-t 6010 180000

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

3-Masala. 14.03 sanadagi №25-sonli kassa chiqim orderi bo‘yicha hisobot yilida korxona kasasidan kotiba Muratova K.N.ga 2000 so‘m hisobdor summa berilgan. Avans hisoboti rasmiylashtirilmagan va kassaga pul qaytarib berilmagan. Buxgaltering tushuntirishi bo‘yicha berilgan summa menedjer Sobirov A.N.ga hisobdor summa qilib berib yuborilgan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

4-Masala. Korxonada hisobot yilida 10.08 kuni 109-sonli buyruqqa asosan xodim Axmedov R.S. Farg‘ona shahriga xizmat safariga jo‘natildi. Xizmat safari uchun 60000 so‘m berilgan.

Axmedov R.S. xizmat safaridan qaytib kelgandan so‘ng avans hisoboti topshirgan. Avans hisoboti 26.08 kuni 58000 so‘mga tasdiqlangan 2000 ming so‘m kassaga qaytarib topshirilgan. Avans hisobotida mehmonxona kvitansiyasi 17400 so‘m bo‘lgan, qolgan xizmat xarajatlari tegishli tasdiqlovchi hujjatlar mavjud.

SHunga muvofiq buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar qilingan:

Sanasi	Muomalalar mazmuni	Hujjat	Schyotlar korrespondensiyasi		Summa
			Debet	Kredit	
10.08	Axmedov R.S.ga xizmat safari uchun hisobdor summa berilgan	10 avgust 109-sonli buyruq, 94-sonli kassa chiqim orderi	6870	5010	60000
26.08	Foydalanimagan xizmat safari summasi kassaga qaytarilgan	185-sonli kassa kirim orderi	5010	6870	2000
26.08	Axmedov R.S.ning xizmat safari xarajatlari «Davr xarajatlari»ga hisobdan chiqarilgan	Avans hisoboti	9429	6870	58000

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

5-Masala. Oborot vedomostida 6010- “Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti kredit qoldig‘i 500700 so‘m. Debet qoldig‘i 70350 so‘m. Balans ma’lumotlari bo‘yicha mol etkazib beruvchilar schyoti kreditorlik qarzlari 430350 so‘mni tashkil qilgan.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

6-Masala. Korxona bosh direktor muovininining Germaniyada o‘qishi uchun 2700000 so‘m to‘lab berdi. O‘qish uchun to‘langan summa uning yillik daromadiga qo‘silmagan. O‘qish uchun to‘langan summa maqsadga muvofiq emasligi aniqlandi.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisobotini tuzing.

7-Masala. Korxona tomonidan joriy yilda binoning rekonstruksiyasi uchun 3 yil muddatga xorijiy valyutada kredit olingan. Loyiha bo‘yicha qtgan yilning dekabr oyida ishlar tugatilgan va ob’ekt ishga tushirilgan. Hisobot yilida mazkur shartnoma bo‘yicha bank xizmati uchun va uning foizi uchun to‘lovlarni amalga oshirgan. Lekin o‘tgan yillarda olingan kreditor qarzlar o‘z vaqtida to‘lab berilmagan. Buxgalteriya hisobida valyuta bo‘yicha kreditlar quyidagicha aks ettirilgan:

D-t 2010, K-T 5210 - 132000 so‘m.

(SHu jumladan 120000 so‘m - kredit uchun foiz 12000 so‘m - bank xizmati).

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

8-masala. Ishbay ish haqi olib ishlovchi xodim Aliev A. belgilangan ishlab chiqarish me’yorini 120%ga oshirib bajardi. Me’yorni 100% bajargan vaqtida to‘g‘ri

ishbay ish haqi uchun oylik ish haqi miqdori 200 ming so‘m. Korxonaning Ichki Nizomiga asosan ishlab chiqarish me’yorini 105%dan yuqori bajargan ishchilarga har bir oshirib bajarilgan % uchun mahsulot rassenkasi 1,4 barobar yuqori to‘lash ko‘zda tutilgan. Ushbu oyda ishchi Aliev A.ga hisoblangan ish haqi 215 ming so‘mni tashkil qilgan.

Talab qilinadi: Hisoblangan ish haqining to‘g‘riligini aniqlang.

9-masala. “Fayzteks“ qo‘shma korxonasi dekabr oyida hodimlarga ish haqqi hisoblangan va provodka berilmagan .

Provodkalar bering:

- 1) boshqaruv hodimlariga 2500000 so‘m hisoblangan;
- 2) ishlab-chiqarish hodimlariga 22200000 so‘m.

Boshqaruv hodimlari soni 6 kishi, ishlab chiqarish hodimlari soni 54-kishi, har biriga teng miqdorda ish haqi hisoblangan

Topshiriq: YUqoridagi muomalalarga buxgalteriya provodkalarini bering va ish haqqidan daromad solig‘i hamda majburiy ishlanmalarni ushlang.

10-masala “Gaz maxsus-ta’mir“ DUK da o‘tkazilgan inventarizatsiya natijasida 25 mln so‘mlik yoqilg‘idan 3 mln so‘mlik kamomad aniqlandi. Javobgar shaxs ta’milanmagandan so‘ng, davr xarajatlarga o‘tkazildi va quyidagicha provodka berilgan (Tabiy kamayish miqdori 5%).

Dt 9430 Kt 1050 3 mln.

Topshiriq: YUqoridagi ma’lumotlar asosida to‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini bering va auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

11-masala. Korxonaga qabul qilingan yangi buxgalterdan ishchilarga ish haqi hisoblash va undan daromad solig‘i ushslash talab qilindi: asosiy ishlab chiqarishdagi - 7 kishiga 87000 so‘mdan, yordamchi ishlab chiqarishdagi -10 kishiga 110 000 so‘mdan, boshqaruv xodimlari - 3 kishiga 125000 so‘mdan. Buxgalter quyidagi provodkalarni bergen:

Dt 2010, 2310, 2510	Kt 6710	2100 000 so‘m,
---------------------	---------	----------------

Dt 2010, 2310, 2510

Kt 6510

288500 so‘m.

Topshiriq: YUqoridagi muomalalar buxgalter tomonidan to‘g‘ri hisobga
olinganligini va soliq summalarini to‘g‘riligini tekshiring..

18-MAVZU: KORXONA XUSUSIY KAPITALI AUDITI

Auditning maqsadi. Ustav kapitalini shaklanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobotda to‘g‘riligini tekshirish.

Ustav kapitali auditining asosiy vazifalari

- 1.Ustav kapitalini me’yoriy hujjatlar talabalariga muvofiqligini tekshirish.
- 2.Ta’sis hujjatlariga kiritilgan o‘zgarishlarni tekshirish.
- 3.Ustav kapitalini shakllanishini to‘g‘riligini tekshirish.
- 4.Ustav kapitali bo‘yicha hisob va hisobotini tekshirish.

Quyidagi atamalarga izoh bering: Xususiy kapital, uning tarkibi, ustav kapitali, aksiyadorlar, aksiyadorlar reestri, qo‘shilgan kapital, zahira kapitali, emission daromad, mulklarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar, tekinga olingan mulk, kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari rezervi, taqsimlanmagan foyda.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.Ustav kapitali va ta’sischilar bilan hisoblashishlarni audit qilishda qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalilanildi?
- 2.Ustav kapitalini shakllantirishni tekshirish qanday amalga oshiriladi?
- 3.Ustav kapitali hisobi va hisoboti auditni qanday o‘tkaziladi?
- 4.Auditor ta’sis hujjatlari bilan tanishtirishida qanday ma’lumotlarni tekshirishi lozim?
- 5.Ustav kapitadlini audit qilishda qanday hujjatlar va buxgalteriya schyotlari tekshirishi manbalari bo‘lib xizmat qiladi?
- 6.Ustav kapitalini shakllantirishida va ta’sischilar bilan hisoblashishlarda soliqqa tortish tekshirish xususiyatlari qanday amalga oshiriladi?
7. Fondlar va rezervlarni audit qilishda qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalilanildi?

8. Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari rezervini nazorat qilish qanday tashkil etiladi?
9. Rezerv fondini tashkil qilish va undan foydalanishning qanday qoyidalari mavjud?
10. Dargumon qarzlar bo‘yicha rezervlar hisobining holati va yuritish tartibi qanay tekshirildi?
11. Fondlar va rezervlar muomalalarini audit qilishda qaysi hujjatlar va buxgalteriya hisobi schyotlari tekshirish manbalari bo‘lib hisoblanadi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

- 1.Korxona xususiy kapitalining mohiyati, uni tekshirish maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.
- 2.Korxona ustav kapitalini auditorlik tekshiruvidan o’tkazish. 3.Ustav kapitalini tekshirishning maqsad va vazifalari.
- 4.Ta’sis hujjatlarini tekshirish.
- 5.Dastlabki hujjatlarni tekshirish.
- 6.Sintetik va analistik hisob registrlarini tekshirish.
- 7.Qo’shilgan kapitalni tekshirish.
- 8.Zahira kapitalini tekshirish.

MAVZU BO’YICHA MASALALAR

1-masala. Ta’sis shartnomasiga muvofiq tashkilotning ustav kapitali bir nechta yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan. Ta’sischilardan biri ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish huquqini o’tkazish yo‘li bilan 2000000 so‘m miqdorda 10 yil muddatga o‘z hissasini qo‘shdi.

Buxgalteriya hisobida hissalarni rasmiylashtirish quyidagicha aks ettirilgan.

D-t 6610 K-t 8310 2000000

Ustav kapitaliga qo‘shiladigan hissasi

D-t 0480 K-t 6610 2000000

SHunday qilib, yangi tashkil etilgan tashkilot bu huquqni o‘zining nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritadi.

2 yildan so‘ng auditorlik tekshiruvlari davomida aniqlanadiki, ko‘rsatilgan nomoddiy aktiv ta’sischi balansi hisobida bo‘lmagan, buning oqibatida ta’sischi uni ustav kapitaliga hissa sifatida o‘tkazishga haqli emas edi.

O‘tgan davr uchun ushbu nomoddiy aktivga D-t 2010 K-t 0580 provodka orqali amortizatsiya hisoblangan. Amortizatsiya ajratmalari summasi 40000 so‘mni tashkil etdi.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

2-masala. A tashkilot V korxonaning ustav kapitalidagi ulushi 25000 ming so‘mni tashkil qiladi. A tashkilotning ulushini S korxona 32000 ming so‘mga sotib oldi. A tashkilotida bu xo‘jalik muomalalari quyidagicha aks ettirilgan.

D-t 5110 sch., K-t 8330 sch - 25000 ming so‘m.

D-t 5110 sch., K-t 9590 sch - 7000 ming so‘m.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

1-masala. Hisobot yilining 4 choragida tashkilot tomonidan xonalarni ta’mirlash ishlarini o‘tkazish uchun 900000 so‘m miqdorda kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlar rezervi hisoblab chiqilgan. Bu muomala buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirilgan.

D-t 2010 K-t 8910 900000

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

3-masala. Tashkilot sifatida «Jamg‘arish», «Xususiy lashtirilgan investitsion fond», «Rezerv fondi», «Xayriya», «Sahovat» kabi fondlar yaratildi.

Fondlarni tashkil etish tartibini aks ettiruvchi hujjatlar auditorga taqdim etilmagan. «Jamg‘arish» fondi bo‘yicha 9390 schyoti debetida yozuv qilingan. Hamda muomalalar quyidagicha aks ettirilgan.

D-t 8910 K-t 6710 860000 ish haqiga

D-t 8710 K-t 8910 200000 ijtimoiy sohalar fondiga ajratmalar.

Talab qilinadi: Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

4-masala. Tashkilotda kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari rezervi tashkil etilgan.

Yillik mukofot to‘loviga;

Ta’mirlash fondini shakllantirish mablag‘lari joriy va kapital remont bo‘yicha xarajatlariga o‘tkazilgan.

22-jadval.

Hisob registri uchetni bo‘yicha	Oy boshiga qoldiq		Oborotlar		Oy oxiriga qoldiq	
	D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
YAnvar	-	-	-	-	-	-
Fevral	-	-	32000	32000	-	
Mart	-	32000		16000	-	48000
Jami 1-chorak		48000	-	48000	-	
Aprel	-	48000	-	-	-	48000
May	-	48000	-	36000	-	84000
Iyun	-	84000	-	-	-	84000
Jami 2-chorak		48000	-	36000	-	84000
Iyul		84000	-	46000	-	130000
Avgust		130000	-	25000	-	155000
Sentyabr		155000	-	-	-	155000
Jami 3-chorak		84000	-	71000		155000
Oktyabr		155000	63000	28000	-	120000
Noyabr		120000	51000	-	-	69000
Dekabr		69000	33000	-	-	36000
Jami 4-chorak		155000	147000	28000	-	36000

21-MAVZU: DAROMAD VA XARAJATLAR HAMDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Mahsulot sotishdan tushgan tushum, asosiy faoliyat foydasi, umumxo‘jalik foydasi, moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromad va xarajatlar, favqulodda foyda va zararlar, soliq to‘lagunga qadar foyda, soliq bazasi, soliq va buxgalteriya foydasi, sof foyda.

Auditning maqsadi. Sotishdan tushgan tushum ko‘rsatkichlarini hisobotda aks ettirilishini ishonchlilikiga baho berish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini va mahsulotlarni sotishni hisob va hisobotda to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish.

Auditning vazifalari:

1. Mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiyasi bo‘yicha muomalalarini hujjatlarda to‘g‘ri aks ettirish hamda to‘liqligini tekshirish.
2. Mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiyasi analitik va sintetik hisobi yuritilishi to‘g‘riligini tekshirish.
3. Tovar va xizmatlar bahosi to‘g‘ri shakllanganligini tekshirish.
4. Sotilgan mahsulot tannarxini to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish.
5. Mahsulot realizatsiyasi muomalalarini soliq qonunchiligidagi muvofiqligini tekshirish.
6. Mahsulot tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlarni to‘g‘ri aniqlash va hujjatlarda to‘g‘ri rasmiylashtirilishini tekshirish.
7. Xarajatlarni elementlari bo‘yicha shakllanishini tekshirish.
8. Mahsulotlar tannarxini to‘g‘ri aniqlashni tekshirish.
9. Mahsulot turlariga va tugallanmagan ishlab chiqarishga xarajatlarni taqsimlanishini tekshirish.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.Moliyaviy natijalarni audit qilishda foydalilaniladigan asosiy me'yoriy hujjatlarni keltiring?
- 2.Xarajatlarni audit qilish qanday tashkil etiladi?
- 3.Ishlab chiqarish xarajatlariga va mahsulotlar (ish, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni to‘g‘ri aniqlashni qanday tekshiriladi?
- 4.Operatsion daromadlar va xarajatlarni shakllantirishni to‘g‘ri tekshirish qanday amalga oshiriladi?
- 5.Realitsiyadan tashqari daromadlar va xarajatlarni tartibini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
- 6.Korxonalar faoliyati moliyaviy natijalarni shakllantirish va foydaning ishlatilishi qanday tekshiriladi?
- 7.Xarajatlar, Tushumilar va realizatsiyadan tashqari daromadlar va xarajatlarni audit qilishda qaysi hujjatlar va buxgalteriya schyotlari tekshirish manbalari bo‘lib hisoblanadi?
- 8.Xarajatlar schyotining analitik amalga oshiriladi?
- 9.9000, 9600 «Asosiy (operatsiyali) faoliyatdan olinadigan daromadlar» va «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar» schyotlarining analitik hisobini tekshirish tartibini qanday amalga oshiriladi?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

- 1.Moliyaviy natijalar auditining maqsadi.
- 2.Mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija auditi.
- 3.Davr xarajatlarini tekshirish.
- 4.Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar va daromadlar auditi.
- 5.Favqulodda olingan foyda (ko‘rilgan zarar)ni tekshirish.
- 6.Sof foyda hisobidan fondlar va boshqa zahiralar tashkil etilishini tekshirish.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. 9400 – “Davr xarajatlari” va 5110 – “Hisob-kitob” schyotlarning debeti bo‘yicha buxgalteriya provodkalarida aks ettirilgan xarajatlarni va hisob-kitob schyoti bo‘yicha yozuvlarni qarama-qarshi usulda tekshirish paytida, auditor tomonidan shu narsa aniqlandiki, joriy yilda korxona avtomobil sotib olgan. Avtomobilning bahosi 4500 ming so‘m va QQS esa 900 ming so‘mni tashkil qilgan. Avtomobilni kirimga olishda 4500 ming so‘m balans bahosi deb belgilangan 900 ming QQS summasini 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotiga olib borgan.

Talab qilinadi: YUqoridagi xolat bo‘yicha buxgalteriya provodkalariga baho bering, zarur bo‘lsa kerakli to‘g‘rilashlarni amalga oshiring?

2-masala. Xarajatlar hisobi bo‘yicha yozuvlarni tekshirish paytida auditor mahsulotning tannarxiga quyidagi xizmatlar to‘lovi kiritilganligini aniqladi.

Provodka D-t 9430 K-t 6010 tashkilot mulki hisoblangan xonaga yangi telefon liniyasi o‘rnatish uchun aloqa bo‘limiga - 18500;

YOng‘indan saqlash signalizatsiyasi o‘rnatganlik uchun o‘t o‘chirish tashkilotiga 11000 so‘m;

Lokal kompyuter seti o‘tkazish tashkilotiga - 56000 so‘m.

Talab qilinadi: YUkoridagi holat bo‘yicha buxgalteriya provodkalariga baho bering, zarur bo‘lsa kerakli to‘g‘rilashlarni amalga oshiring?

3-masala. Ichki auditorni tayyorlash uchun tashkilot uning maxsus auditorlik kursida o‘qish uchun va auditorlik kurslari va auditorlar attestati olish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘ladi. Bu operatsiya hisobda quyidagicha aks ettirilgan.

D-t 9430 K-t 5110 - 400000 so‘m

Talab qilinadi: YUkoridagi holat bo‘yicha buxgalteriya provodkalariga baho bering, zarur bo‘lsa kerakli to‘g‘rilashlarni amalga oshiring?

4-masala. “A’lo” kompaniyasida 2018 yil bo‘yicha quyidagi moliyaviy natija aniqlangan. Kompaniyaning soliqqa tortilgunga qadar foydasi 2500000\$ ni tashkil etgan. Buxgalteriya hisoboti bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya miqdori 100 000\$, soliq hisoboti bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya miqdori esa 120 000\$ ni tashkil etadi. Kompaniya bank kreditidan foydalanganligi uchun bankka 50 000\$ miqdorida foiz to‘lovlarini to‘lagan . Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan foiz stavkasi bo‘yicha foiz xarajatlari 40 000\$ ni tashkil etadi. Soliq stavkasi 10%. Kompaniya 2018 yil uchun byudjetga 25 000\$ daromad solig‘i to‘lagan .

Talab qilinadi:

1. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to’g’ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim.

5-Masala. Korxona umumbelgilangan tartibdagi soliq to’lovchi hisoblanadi. Jamiyat tarkibida mustaqil balansga va alohida hisobraqamiga ega bo’lgan yuridik shaxs hisoblanuvchi 8 ta shu’ba korxona mavjud. Auditorlik tekshiruvi jarayonida mijoz-korxona tomonidan auditorlarga quyidagi masalalar bo‘yicha amaliy maslahatlar berish talab etildi.

Shu’ba korxonalar yil yakuni bo‘yicha jamiyatga topshirgan balanslari yig’ilgan holda aktsiyadorlarning umumiyligi yig’ilishida olingen sof foya taqsimlanadi. Sof foydaning dividend uchun yo’naltirilgan qismi aktsiyadorlarga (yuridik va jismoniy shaxslarga) egalik qilayotgan aktsiyasiga qarab taqsimlanadi, taqsimlangan dividend uchun dividend solig‘i kim tomonidan, qanday tartibda to’lanadi?

Quyidagi qayd etilgan ko’rsatkichlar moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotning (2-son shaklning) qaysi satrlarida aks ettiriladi:

- a) jamiyatni saqlash uchun shu’ba korxonalaridan kelib tushgan to’lovlar (daromadlar);
- b) shu’ba korxonalarimiz tomonidan bizning hisobraqamga o’tkazilgan dividendlar;
- v) shu’ba korxonalarimiz tomonidan korxonamiz hisobiga o’tkazib berilgan

to'lovlar hisobidan amalga oshiriladigan korxonani boshqarish va boshqa maqsadlardagi xarajatlar.

Talab qilinadi:

1. Auditorlar tomonidan OAJ buxgalterlariga yuqoridagi masalalar bo'yicha qanday amaliy tavsiyalar yoki maslahat-tushuntirish ishlari amalga oshirilishi lozim?
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

6-Masala. Korxona yilning boshida 4000 ming so'mga avtomobil sotib olgan va uni sug'urtalagan. Yilning ohrida avtomobil avariya uchraganligi sababli sug'urta tashkiloti 3500 ming so'm miqdorida sug'urta to'lovinini to'lab berdi. Avtomobilning yil oxiriga bo'lган balans qiymati 3000 ming so'mni tashkil qilgan. Sug'urta tashkilotidan olingan mablag'ga yangi avtomobil sotib olingan. Buxgalter tomonidan 3500 minig so'mlik sug'urta qoplamasini daromad sifatida qabul qilingan.

Talab qilinadi: Mazkur holatda buxgalter to'g'ri yo'l tutganmi. Sizning fikringizcha sug'urta qoplamasining qanday qismi jami yillik daromadga kiritilishi kerak.

7-Masala. Auditor tomonidan tekshiruv jarayonida 201X yilda "Foton" kompaniyasi foydali xizmat muddati tugagan uskunani 13 500 ming so'mga sotilganligi aniklandi. Uskunaning boshlang'ich qiymati 230000 ming so'mni, chikib ketish sanasidagi to'plangan amortizatsiyasi 225000 ming so'mni, 201X yilda uskunaga xizmat qo'rsatish xarajatlari 10 000 ming so'mga teng bo'lган. Mazkur xo'jalik operatsiyasi bo'yicha kompaniya buxgalteri tomonidan asosiy vositalarni chiqib ketishi bilan bog'liq daromad yoki zarar hisobga olinmagan.

Talab qilinadi:

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Olingan dalilarga asoslanib yuqoridagi holat amaldagi qonunchilikga

muvofiqligini izohlab bering.

8-Masala. Korxona hisobot davrida quyidagi boshqa daromadlarga ega bo'lган: shartnoma shartlarini buzganlik uchun mol etkazib beruvchilardan olingan 114 ming so'mlik jarima summasi; xaridorlar bilan shartnoma bo'yicha aniqlangan o'tgan yil foidasi 40 ming so'm; da'vo muddati tugagan 6 ming so'mlik kreditorlik qarzlari; inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha 10 ming so'mlik tayyor mahsulot kirim qiligan. Mazkur holatlar buxgalter tomonidan quyidagi provodkalar bilan rasmiylashtirilgan:

Debet 5110 "hisob – kitob hisobvarag'i" schyoti, - 114 ming so'm

Kredit 9220 "Boshqa aqtivlarning chiqib ketishi"schyoti, - 114 ming so'm

Debet 4010 "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"schyoti,- 40 ming so'm

Kredit 9340 "O'tkan yil foydasi" schyoti,- 40 ming so'm

Debet 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti,- 6 ming so'm

Kredit 6990 "Boshqa majburiyatlar" schyoti,- 6 ming so'm

Debet 2810 "Tayyor mahsulot" schyoti,- 10 ming so'm

Kredit 9390 "Boshqa operatsion daromadlar" schyoti,- 10 ming so'm

Talab qilinadi:

1. Olingan dalilarga asoslanib yuqoridaga holatlar bo'yicha buxgalter tomonidan yo'l qo'yilgan(agar mavjud bo'lsa) xatolarni aniqlab, uni tuzatish va yakunlovchi provodkalar bo'yicha amaliy tavsiyalar bering.
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

9-Masala. Korxona hisobot davrida moliyaviy faoliyat bo'yicha qo'yidagi daromadlarga ega bo'lган: sho'ba korxonalarga hisoblangan dividentlar 50 ming so'm; berilgan zayomlar bo'yicha hisoblangan foizlar 40 ming so'm; debitorlik qarzlar bo'yicha hisoblangan ijobiy kurs farqlari 70 ming so'm; sub'ektni uzoq muddatli ijara berishdan hisoblangan foizlar -100 ming so'm. Mazkur holatlar

buxgalter tomonidan quyidagi provodkalar bilan rasmiylashtirilgan

Debet 4840-“Olinadigan dividetlar” schyoti,- 50 ming so’m

Kredit 9220-“Boshqa aqtilarning chiqib ketishi” schyoti,- 50 ming so’m

Debet 5110-“Hisob – kitob hisobvarag’i” schyoti,- 40 ming so’m

Kredit 4830-“Olinadigan foizlar schyoti,-40 ming so’m

Debet 4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” schyoti,- 70 ming so’m

Kredit 9390-“Boshqa operatsion daromadlar” schyoti,- 70 ming so’m

Talab qilinadi:

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Xato va kamchiliklar ro’yxati jadvalini tuzing.

20-mavzu: AUDITORLIK HISOBOTI VA XULOSASI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Moliyaviy hisobot, ularning turlari va to‘ldirilishi oldiga qo‘yilgan talablar, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma’lumotnomma, hisobotga tushuntirish xati.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moliyaviy hisobotni audit qilishda foydalaniladigan asosiy me’yoriy hujjatlarni keltiring?
2. Moliyaviy hisobotni audit qilishda qanday ma’lumotlar manbaa sifatida foydalaniladi?
3. Moliyaviy hisobotni audit qilish qanday tashkil etiladi?
4. Moliyaviy hisobot moddalariga nisbatan jiddiylik darajasi qanday belgilanadi?
5. Moliyaviy hisobot shakllaridagi ma’lumotlar qanday va kaysi hujjat ma’lumotlariga taqqoslanadi?
6. Moliyaviy hisobotni tekshirishda auditning qabul qilingan riskining yuqori va quyi chegarasi qancha bo‘lishi talab etiladi, bu qanday belgilanadi va kim tomonidan?
7. Moliyaviy hisobot tarkibi:
 - 1) «Buxgalteriya balansi» 1-shakli
 - 2) «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot 2-shakli
 - 3) «Pul oqimlari to‘g‘risida»gi hisobot 4-shakli
 - 4) «Xususiy kapital» to‘g‘risidagi hisobot 5-shaklli
qanday audit qilinadi?
8. Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillariga muvofiqligi qanday tekshiriladi?
9. Buxgalteriya balansining haqqoniyligi qanday tekshiriladi?

10. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni va boshqa shakllarini to‘g‘riliгини текширishda nimalarga e’tibor berish lozim?

11. Moliyaviy hisobotning auditи natijalari qanday, kimga va qachon oshkor qilinadi. Bunda qanday ahloq kodeksi tamoyillariga amal qilinadi?

12. Hisobot shakllarini to‘g‘ri tuzilganligini va ishonliligini tekshirishda qanday auditorlik protseduralardan foydalaniladi?

13. Korxonaning to‘lovga qobiliyatlilik darajasini tekshirish qanday amalga oshiriladi?

14. Korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasini tekshirish qanday amalga oshiriladi?

1-masala. Auditorlik hisobotini imzolashdan oldin, auditor shuni aniqladiki, mijozning filiallaridan biriga kuchli shamol tufayli katta ziqn etkazilgan. Bu hodisa moliyaviy hisob sanasidan keyin ro‘y bergen. Zarar sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplanmaydi.

Talab qilinadi: Bu hodisa kompanianing moliyaviy hisobotiga ta’sir ko‘rsatadimi? Agar shunday bo‘lsa buxgalteriya hisobida nima o‘zgaradi?

2-masala. Audit o‘tkazish davrida keyingi yilning boshida shartnoma tuzilgan bo‘lib, unga ko‘ra sizning mijozingiz tovar-moddiy boyliklar sotadi va hisobot yilidagiga nisbatan 10 marta ko‘proq daromad olishini aniqladingiz.

Talab qilinadi: Bu xo‘jalik muomalasi tekshirilayotgan yil hisobotiga va auditor xulosasiga qanday ta’sir qiladi?

3-masala. Asosiy vositalarni tanlov asosida inventarizatsiya qilishda dastlabki narxi 800000 so‘m, amortizatsiyasi 300000 so‘mlik ob’ekt etishmasligi aniqlandi.

Hisobot yilining dekabr oyida bu ob’ekt shartnomaga ko‘ra uning narxi 1560000 so‘m inventarizatsiya o‘tkazish paytida auditorga shartnoma va qabul qilish-topshirish akti taqdim etilgan. Xaridor bilan hisob kitoblar amalga oshirilgan.

Bu xo‘jalik muomalasi hisobot yilining 31 dekabriga bo‘lgan holati bo‘yicha buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilmagan.

Talab qilinadi: Xo‘jalik muomalasiga auditor nuqtai nazaridan baho bering, bu korxona moliyaviy hisoboti va auditor xulosasiga qanday ta’sir qiladi?

4-masala. “Xolis” kompaniyasi bosh buxgalteri kasalligi tufayli, tugayotgan hisobot davri uchun malakasi yuqori bo‘lmagan buxgalter yordamchisi kompaniyaning buxgalteriya balansini tuzdi. Tuzilgan balansda bir qator xatoliklar mavjud. YOrdamchi buxgalter qisman balans to‘g‘risida tushunchaga ega ekanligi va uning barcha muomalalarning natijalarini qo‘shilishi, ya’ni yig‘ish orqali tuzilishini bilganligi bois kompaniya balansini tuzdi. Lekin natijalar balans (tenglik)ni keltirib chiqarmadi va tenglikni keltirib chiqarish uchun u xususiy kapital summasiga korrektirovka kiritish orqali balansni chiqardi. Balans moddalari summalarini to‘g‘ri aks ettirilgan, ammo xususiy kapital summasida xatolik mavjud.

“Xolis” kompaniyasining 201 yil 1 yanvar holatiga

Buxgalteriya balansi

Aktiv	Summa	Majburiyatlar	Summa
Kassa	\$ 2,000	Olinadigan schyotlar	\$3000
Kanselyariya tovarlari	1,000	Xizmat ko‘rsatishdan olingan daromad	35,000
Er	22,000	Mulk solig‘i bo‘yicha xarajatlari	800
Reklama xarajatlari	500	To‘lanadigan schyotlar	8,000
Ofis mebeli	10,000	Xususiy kapital	
To‘lanadigan veksel	16,000		
Ijara xarajatlari	4,000	Jami xususiy kapital	8,700
Jami aktivlar	\$ 55,500	Jami majburiyatlar va xususiy kapital	\$55,500

Topshiriq: 1. 201 yil 1 yanvar holatiga to‘g‘ri buxgalteriya balansini tuzing. Aktivlar va majburiyatlar summasini hisoblang. So‘ngra xususiy kapitalning to‘g‘ri summasini chiqarish uchun farqlarni aniqlang.

2. YUqorida keltirilgan moddalarning ayrimlari nima uchun buxgalteriya balansida aks ettirilmasligi kerakligini izohlang.

5-masala. Auditorlik hisobotini imzolashdan oldin, auditor shuni aniqladiki, mijozning filiallaridan biriga kuchli shamol tufayli katta ziqn etkazilgan. Bu xodisa moliyaviy hisob sanasidan keyin riqy bergan. Zarar sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplanmaydi.

Topshiriq: Bu xodisa kompaniyaning moliyaviy hisobotiga ta’sir ko‘rsatadimi? Agar shunday bo‘lsa buxgalteriya hisobida nima o‘zgaradi?

6-masala. Audit o‘tkazish davrida keyingi yilning boshida shartnoma tuzilgan bo‘lib, unga ko‘ra sizning mijozingiz tovar-moddiy boyliklar sotadi va hisobot yilidagiga nisbatan 10 marta ko‘proq daromad olishni aniqladingiz.

Topshiriq: Bu xo‘jalik muomalasi tekshirilayotgan yil hisobotiga va auditor xulosasiga qanday ta’sir qiladi?

7-masala.. Asosiy vositalarni tanlov asosida inventarizatsiya qilishda dastlabki narxi 800000 so‘m, amortizatsiyasi 300000 so‘mlik ob’ekt etishmasligi aniqlandi.

Hisobot yilining dekabr oyida bu ob’ekt shartnomaga kqra uning narxi 1560000 so‘m inventarizatsiya o‘tkazish paytida auditorga shartnoma va kabul topshirish akti taqdim etilgan. haridor bilan hisob kitoblar amalga oshirilgan.

Topshiriq: Bu xo‘jalik muomalasi hisobot yilining 31 dekabriga bo‘lgan holati bo‘yicha buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilmagan.

21-MAVZU: ICHKI AUDIT ASOSLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Ichki audit, ichki auditor malaka sertifikati va unga qo'yilgan talablar, ichki auditorlarning huquqlari, ichki auditorlarning majburiyatları, ichki audit hisoboti, ichki nazorat, ichki auditning mustaqilligi, ichki audit xizmatining javobgarligi, ichki audit o'tkazishga va uni o'tkazish natijalari bo'yicha yig'ma hisobot tuzishga qo'yiladigan talablar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalarini tushuntirib bering?
2. Ichki audit natijalari qanday umumlashtiriladi?
3. Ichki audit xizmatining huquq va majburiyatlarini izohlab bering?
4. Ichki audit xizmatiga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering?
5. Ichki audit xizmatining mustaqilligi deganda nima tushuniladi?
6. Ichki audit o'tkazishga va uni o'tkazish natijalari bo'yicha yig'ma hisobot tuzishga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering?
7. Ichki audit xizmatining javobgarligini izohlab bering?
9. O'zbekiston Respublikasi ichki auditni tartibga solish tiziminitushuntirib bering?
10. Ichki auditorni sertifikatlash tartibini tushuntirib bering?
11. Ichki auditning boshqa xizmatlar va tashkilotlar bilan o'zaro aloqasini tushuntirib bering?
12. Ichki auditni o'tkazish bosqichlarini tushuntirib bering?
13. Ichki audit xizmati ishini rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
14. Kichik biznes korxonalarida ichki auditning xususiyatlarini tushuntirib bering?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari.
2. Ichki audit natijalariga qanday baho beriladi.
3. Ichki audit xizmatining huquqlari.
4. Ichki audit xizmatining majburiyatlari.
5. Ichki audit xizmatiga qo'yiladigan talablar.
6. Ichki audit xizmatining mustaqilligi.
7. Ichki audit o'tkazishga va uni o'tkazish natijalari bo'yicha yig'ma hisobot tuzishga qo'yiladigan talablar.
8. Ichki audit xizmatining javobgarligi.
9. Kichik biznes tashkilotlari ichki auditining xususiyatlari.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-Masala. Auditorlik firmasi mijoji "Raduga" kompaniyasi quyidagi keltirilgan muammoni hal etish bo'yicha auditorlarga murojaat etdi. Kompaniyada quyidagi funktsiyalarni bajaruvchi 3 ta ma'muriy xodim mavjud va bu xodimlar quyidagi funktsiyalarni bajarishlari lozim:

1. Bosh kitobni yuritish
2. To'lanadigan schyotlar registrlarini yuritish
3. Cheklarni imzolashga tayyorlash
4. To'lov jurnalini yuritish
5. Bankdagi schetlarni nazorat qilish
6. Pul tushumlarini yig'ish va ularni bankdagi hisob-kitob schetiga o'tkazish

Talab qilinadi:

1. Keltirilgan muammo shundan iboratki yuqorida keltirib o'tilgan xodimlar bo'yicha bajariladigan funktsiyalarning to'g'ri taqsimlanmaganidadir. Siz ushbu funktsiyalarini xodimlar o'rtasida shunday taqsimlanganki, natijada kompaniyada ichki nazorat yuqori darajada tashkil etilsin.
2. Har bir funktsiyani bajaruvchi xodimlarni lavozimi bo'yicha ajratib chiqing.

2-Masala. Ichki auditorlik tekshiruvi jarayonida shu narsa aniqlandiki, tekshirish davrida ishlab chiqarish stanoklariga kumulyativ usulda quyidagicha eskirish hisoblanganligi tekshirildi. Ishlab chiqarish stanoklarining daslabki qiymati 125000000 so'm, foydalanish muddati 5 yil;

1-yil	8800000 so'm
2-yil	5600000 so'm
3-yil	4500000 so'm
4-yil	3800000 so'm
5-yil	4600000 so'm

Talab qilinadi: Ichki auditor sifatida korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, ushbu muomalalar bo'yicha auditorlik dalolatnomasini tuzing.

3-Masala. Xodimlar bo'limining boshlig'i ichki auditor vakanti mavjudligini va unga xodim jalg qilish lozim. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun internetda e'lon berishi lozim.

Talab qilinadi:

1. Talabgor korxonaga taqdim qiladigan hujjatlar ro'yxatini tuzing.
2. Talabgorga beriladigan 10 ta savol tuzing.
3. Talobgorga uning malaka va professionalligidan tashqari kamida 3 ta talab keltiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan yuqori summani tashkil etadigan korxonalarda kamida necha nafar sertifikatsiyalangan auditor ishlashi lozim?

- A. 1 nafar
- B. 2 nafar
- C. 3 nafar
- D. 4 nafar

E. 5 nafar

2. Ichki auditorga tekshirish uchun huquq beradigan hujjat?

- A. Malaka sertifikati
- B. Litsenziya
- C. Diplom
- D. Order
- E. Guvohnoma

3. Quyidagilardan qaysi biri ichki audit xizmatining asosiy funktsiyalari qatoriga kirmaydi:

- A. Har yili korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalgalashish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);
- B. Tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariiga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;
- C. Buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- D. Texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda korxonaning kuzatuvchi kengashiga ko'maklashish.
- E. Kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta'minlash va ichki audit amalgalashishi natijalari bo'yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash

4. Quyidagilardan qaysi biri ichki audit xizmati majburiyatlariga kirmaydi:

- A. Ichki auditni amalgalashishda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- B. Moliya va statistika hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliliginini tekshirish;

- C. Ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning mahfiyligiga riox qilish;
- D. Aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.
- E. Auditorlik tekshiruvlariga oid dalolatnomalarini direktorlar kengashiga taqdim etish.

5. Ichki audit xizmati xodimlari quyilgan qaysi talab to'g'ri?

- A. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan o'rta ma'lumotga, oxirgi o'n yilning kamida ikki yilda buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish;
- B. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi o'n yilning kamida ikki yilda buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.
- C. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi besh yilning kamida ikki yilda buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.
- D. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi to'rt yilning kamida ikki yilda buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.
- E. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi

7 yilning kamida ikki yilda buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.

6. Ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasi kim tomonidan tasdiqlanadi?

- A. Ichki audit xizmati rahbari
- B. Kuzatuvchi kengashi
- C. Direktorlar Kengashi
- D. Ta'sischilar umumiylig'i
- E. To'g'ri javob yo'q

7. Ichki audit xizmati xodimlari kim tomonidan har yili attestatsiyadan o'tkaziladi?

- A. Ichki audit xizmati rahbari
- B. Kuzatuvchi kengashi
- C. Direktorlar Kengashi
- D. Ta'sischilar umumiylig'i
- E. To'g'ri javob yo'q

8. Ichki audit xizmatining yig'ma hisoboti qaysi qismlardan iborat?

- A. Tahliliy qism, yakuniy qism, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketi
- B. Kirish, tahliliy qism, yakuniy qism, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketi
- C. Kirish, yakuniy qism, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketi
- D. Kirish, tahliliy qism, yakuniy qism
- E. To'g'ri javob yo'q

9. Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin necha kun mobaynida tugallanishi zarur?

- A. 5 kun
- B. 7 kun

C. 10 kun

D. 15 kun

E. 30 kun

10. Ichki nazorat tizimi quyidagi qaysi tarkibiy qismga bo'linadi.

A. Siyosat va boshqaruv uslublari va tuzilmasi

B. Nazorat muhiti, korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi, nazorat amallari

S. Kadrlar masalasi va amaliyoti boshqaruv funktsiyalari, ma'suliyatni taqsimlash uslublari

D. Barcha javoblar to'g'ri

E. To'g'ri javob berilmagan

AUDITORLIK MASLAHATI

Topshiriq::

Xo‘jalik ob’ektining qiziqtirgan savollariga maslahat berish. Maslahat berishni yozma ravishda rasmiylashtirish lozim. Javoblar aniq, qisqa va me’yoriy hujjatlardan misollar keltirib yozilishi kerak.

Maslahat uchun savollar.

1. Joriy hisobot davriga tegishli, hisobot tuzilganga qadar aniqlangan xatolarni buxgalteriya hisobotida qanday aks ettiriladi?
2. Joriy hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillardagi xatolar hisobda qanday aks ettiriladi?
3. Korxona turli faoliyat bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa foyda solig‘i bazasi qanday aniqlanadi?
4. Transport vositasiga 100% eskirish hisoblangan bo‘lib shartnomaga bahosida 184000 so‘mga sotib olingan. Bu transport vositasiga amortizatsiya hisoblash kerakmi? Transport vositasini asosiy vositalar tarkibiga qqshilganda qanday buxgalteriya provodkalarini beriladi?
5. Korxona telefon o‘rnatish va uning xizmati, kommutator xizmati, o‘t o‘chirish sistemasi, signalizatsiya moslamalari xarajatlari qanday xarajatlar tarkibida hisobga olinadi?
6. Yilning natijasi bo‘yicha o‘tkaziladigan majburiy auditorlik xizmati uchun to‘lov sarflari qaysi xarajatlar tarkibida hisobga olinadi va soliqqa tortish bazasiga qqshiladimi?
7. Temir yql chiptasida temir yo‘l ta’rifi va sug‘urta summasi ko‘rsatilgan QQS summasini qanday ajratish mumkin. Temir yo‘l chiptasining jami summasidanmi yoki temir yo‘l ta’rifi summasidanmi?
8. SHO‘ba korxona alohida balans va hisob-kitob schyotiga ega. Nizom talablariga ko‘ra o‘zining tushumini bosh korxonaga pul ko‘chirish orqali o‘tkazib berish kerak. Bosh korxonaga naqd pulda belgilangan limitda ortiqcha to‘lash huquqiga egami?

9. Xo‘jalik shartnomasi shartlarini bajarmaganlik uchun jarima summalar qaysi mablag‘lar hisobidan qoplanadi?

10.Ustav kapitalidagi xorijiy ta’sischilarning ulushini baholash tarkibi qanday amalga oshiriladi?

11.Kichik korxonalarida yagona soliq to‘lash kriteriyalari qanday tartibda amalga oshiriladi?

12.SHo‘ba korxona va qaram korxonalarini tuzishda qaysi me’yoriy hujjatlarga asoslanadi?

13.Safar xizmati xarajatlarini hisobdan chiqarish tartibi qanday amalga oshiriladi?

14.Xorijiy mamlakatlar bo‘yicha safar xizmatlarini hisoblash va hisobdan chiqarish xususiyati qanday amalga oshiriladi?

15.Vakillik xarajatlari me’yorlari va ularni hisobdan chiqarish qanday amalga oshiriladi?

16.Reklama xarajatlari me’yorlari va hisobdan chiqarish tartibi qanday amalga oshiriladi?

17.Kadrlar tayyorlash xarajatlari qanday hisobdan chiqariladi?

18.Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar uchun berilgan moddiy yordam pullari mahsulot tannarxiga kiritiladimi?

19.Kredit foizi summalar mahsulot tannarxiga kiritiladimi?

20.Korxona investitsiya uchun qilingan sarf xarajatlar, jumladan sotib olingan asosiy vositalar qaysi qiymatda (boshlang‘ich yoki qoldiq) soliq solish bazasidan imtiyoz sifatida chegirib tashlanadi?

21.Asosiy vositalar boshqa tashkilotlarga sotilganda qanday tartibda va qaysi qiymatidan QQS to‘lanadi?

22.Tekinga olingan asosiy vositalarga eskirish hisoblanadimi?

INDIVIDUAL TOPSHIRIQLAR

Topshiriq::

YOzma ravishda javob berish kerak.

I. Hisobot shakllari bo‘yicha.

Qanday hujjatlar asosida hisobot tuziladi?

2. Moliya-xo‘jalik faoliyatining qanday ko‘rsatkichlari hisobotda aks ettiriladi?
3. Auditor hisobotdan qanday ko‘rsatkichlarni olish mumkin?
4. Auditor hisobotni tekshirishda auditning qanday usullaridan foydalaniladi?
5. Hisobotni tekshirishda qanday kamchiliklar qonunga xilof bo‘lgan holatlar aniqlanishi mumkin?

II. Sintetik hisob registrlari bo‘yicha.

- 1.Sintetik hisob registrlar qaysi hujjatlar asosida tuziladi?
- 2.Hisob registrlaridagi buxgalteriya yozuvlari nimani bildiradi (xqjalik muomalalarining mazmunini aniqlash)?
- 3.Auditor hisob registrlaridan qanday ma’lumotlar olishi mumkin?
- 4.Hisob registrlari qaysi usullar bilan tekshiriladi?
- 5.Tekshirish natijasida qanday xato-kamchiliklar aniqlanishi mumkin?

III. Dastlabki hujjatlar bo‘yicha.

- 1.Qanday hollarda va kim tomonidan ushbu hujjat tuziladi? Hujjatdagi qayd etilgan xo‘jalik muomalalarini mazmunini ta’riflang.
- 2.Ushbu hujjatni tekshirishda qanday usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi?
- 3.Auditor ushbu hujjatlarni tekshirishda qanday me’yoriy aktlarga asoslanadi?
- 4.Qanday xato-kamchiliklar aniqlanishi mumkin? (xato-kamchiliklarning xarakteri va summasi).

UMUMIY TESTLAR

№	Test topshirig'i	Test javoblari			
		A	V	S	D
1.	Audit haqida tushuncha qanday ma'noni anglatadi ?	audit «eshitaman » degan ma'noni bildiradia	audit - bu iqtisodiy tahlil yakunidir	audit - bu moliyaviy tahlil yakunidir	audit bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning barqarorligini bildiradigan foyda
2.	Auditorlik faoliyati deganda nima tushuniladi?	auditorlik tashkilotlar ining auditoriлик tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati	auditorlik tashkilotlari ning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati	auditorlik tashkilotlarini ng auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish	auditorlik tashkilotlarini ng auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va moliyaviy hisobotga xulosa berishi, natijalarni yuqori tashkilotga taqdim qilishiga doir faoliyati
3.	Qaysi turdag'i tashkilotlarga auditorlik faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi?	davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga	MChJ ko'rinishida gi auditorlik tashkilotlari ga	yopiq turdag'i aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi auditorlik tashkilotlariga	yakka tadbirkor
4.	Qaysi javobda auditorlik tashkilotiga to'g'ri ta'rif berilgan?	auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasi ga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.	auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.	auditorlik faoliyatini amalga oshirish malaka sertifikatiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.	auditorlik faoliyatini amalga oshirish patentiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.
5.	Germaniyada auditorlik kasbi nima deb nomlangan?	xo'jalik nazoratchisi	jamoatchi-buxgalter	buxgalter ekspert	schyotlar buyicha komissar

6.	Hisob registrlari va hujjatlar tekshirilishi auditorlik faoliyatining qaysi turiga tegishli?	maqsadli sistemali audit	tasdiqlovchi audit	tavakkalchilik ka asoslangan audit	tekshiruvchi va nazorat qiluvchi audit
7.	Auditorlar qachon ichki nazorat orqali ekspertiza o'tkaza boshlashdi?	maqsadli sistemali audit shakllanish bilan	tavakkalchili kka asoslangan audit shakllanishi bilan	tasdiqlovchi audit shakllanishi bilan	bosh auditorlik apparati shakllanishi bilan
8.	Byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishining kim nazorat qiladi?	schyotlar palatasi	soliq boshqarmasi	Vazirlikdagi nazorat taftish bo'linmalari	mustaqil auditorlik moliyaviy nazorati
9.	Auditorlik tekshiruvlari qaysi sub'ektlarda o'tkaziladi?	investitsion kompaniya lar	maorif muassasalari	tibbiyot muassalalari	V va S
10.	«Audit» fanida qo'llaniladigan analogiya metodining mazmuni qaysi javobda to'g'riroq ifodalangan?	hisobot moddalarini i taqqoslash	hisobotning unchalik ahamiyatga molik bo'limgan moddalarini o'qish	avval hisobot moddalariga, keyin jami hisobotga nisbatan xatoni belgilash	avval jami hisobotga, keyin hisobot moddalariga nisbatan xatoni belgilash
11.	«Audit» fanida qo'llaniladigan induktsiya metodining mazmuni qaysi javobda to'g'riroq ifodalangan?	avval hisobot moddalariga, keyin jami hisobotga nisbatan xatoni belgilash	hisobotning unchalik ahamiyatga molik bo'limgan moddalarini o'qish	avval jami hisobotga, keyin hisobot moddalariga nisbatan xatoni belgilash	hisobot moddalarini taqqoslash
12.	Auditning predmeti makon jihatdan nimaga qaratiladi?	auditorlik faoliyatining yo'nalishlari	joriy davrdagi faoliyatga	kelgusi davrdagi faoliyatga	hozirgi davrdagi faoliyatga
13.	«Audit» fanining xususiy metodlariga qaysi metod kiradi?	skanerlash	ideallashtiris h	modellashtiris h	deduktsiya
14.	«Audit» fanida	avval jami	hisobotning	avval hisobot	hisobot

	qo'llaniladigan deduktsiya metodining mazmuni qaysi javobda to'g'riroq ifodalangan?	hisobotga, keyin hisobot moddalarig a nisbatan xatoni belgilash	unchalik ahamiyatga molik bo'lman moddalarini o'qish	moddalariga, keyin jami hisobotga nisbatan xatoni belgilash	moddalarini taqqoslash
15.	«Audit» fanida qo'llaniladigan skanerlash metodining mazmuni qaysi javobda to'g'riroq ifodalangan?	hisobotnin g unchalik ahamiyatga molik bo'lman moddalarini o'qish	avval hisobot moddalariga, keyin jami hisobot nisbatan xatoni belgilash	avval jami hisobotga, keyin hisobot moddalariga nisbatan xatoni belgilash	hisobot moddalarini taqqoslash
16.	Boshqaruv funktsiyalari va usullari tekshiruv ob'ekti nazardan qanday baholash turiga tegishli?	sifat baholashga tegishli	miqdoriy baholashga tegishli	aralash baholash	bu tekshiruv ob'ekti baholanish xususiyatiga ega emas
17.	Majburiy audit to'g'risidagi Qonun dastlab qaysi mamlakatda qabul qilingan?	Angliya	Frantsiya	Germaniya	AQSh
18.	Auditning dastlabki rivojlanish bosqichi?	tasdiqlovchi audit	tizimli audit	tavakkalchilik ka asoslangan audit	Aralash audit
19.	O'zbekistonda davlat xokimiyyati organlari auditorlik tekshiruvlarini...	o'tkazishlari mumkin emas	o'tkazishlari mumkin	o'tkazishlari mumkin, litsenziyaga ega bo'lsa	VM qarori bilan
20.	O'zbekistonda malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyorliy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil, notijorat jamoat tashkiloti?	Auditorlar palatasi	Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiya si	Auditorlar kongressi	Buxgalterlar palatasi
21.	«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zR Qonuni qachon qabul	2000, 26 may	1999, 25 may	2001, 13 aprel	2002, 17 may

	qilindi?				
22.	O'zbekistonda Auditorlik faoliyatining milliy standartlari qaysi organ tomonidan ishlab chiqiladi?	moliya vazirligi	auditorlar palatasi	buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi	iqtisodiyot vazirligi
23.	Quyidagilardan qaysi biri har yili majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishi shart emas?	ma'suliyati cheklangan jamiyatlar	aktsionerlik jamiyatlar	banklar va boshqa kredit tashkilotlari	sug'urta tashkilotlari
24.	Majburiy auditorlik tekshiruvining o'tkazish muddati qanday?	hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha	hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevraligacha	hisobot yilidan keyingi yilning 1 yilning 1 apreligacha	hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha
25.	Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi kimlar tomonidan tayinlanishi mumkin emas?	mol etkazib beruvchilar	AJ aktsionerlari yig'ilishi	nazorat qiluvchi organlar	huquqni muxofaza qiluvchi organlar
26.	Nazorat qiluvchi va xuquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan auditorlik xizmatining haqi kim tomonidan to'lanadi?	auditorlik tekshiruvini belgilagan organ	tekshiriluvchi sub'ekt	mahalliy xokimiyat	davlat byudjeti
27.	AQShda nechanchi yilda majburiy audit to'g'risidagi Qonun qabul qilingan?	1937 yilda	1862 yilda	1867 yilda	1929 yilda
28.	Auditorlik tekshiruvining mamlakat qonunlariga to'g'ri kelish-kelmasligi auditning qaysi turida ko'rib o'tiladi?	mos keluvchanlik audit	operatsion audit	moliyaviy hisobotlar auditi	majburiy audit
29.	Auditorlik tekshiruvi ko'rsatkichlar samaradorligi va unumdorligi bo'yicha o'tkazilishi auditning	operatsion audit	mos keluvchanlik audit	moliyaviy hisobotlar auditi	majburiy audit

	qaysi turida ko'rib o'tiladi?				
30.	Maqsadli sistemali auditning asosiy mohiyati nimada namoyon bo'ladi?	muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi	hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi	sistemanini nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi	yuqoridagilar ning barchasi
31.	Tavakkalchilikka asoslangan auditda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?	sistemanini nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi	hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi	muomala (operatsiya)lari ni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi	yuqoridagilar ning barchasi
32.	Korxonaning soliq deklaratsiyasi soliq inspeksiysi talablariga muvofiq ema Ushbu jarayon auditning qaysi shakli orqali aniqlanadi?	mos keluvchanlik auditi	operatsion audit	moliyaviy hisobotlar auditi	majburiy audit
33.	Tsex boshlig'i o'ziga yuklatilgan majburiyatlarini to'liq bajarmaganligi tekshiruv davrida aniqlandi. Ushbu jarayon auditning qaysi shakli orqali aniqlanadi?	operatsion audit	mos keluvchanlik auditi	moliyaviy hisobotlar auditi	majburiy audit
34.	Kompaniyaning moliyaviy hisoboti ishonchli va haqqoniy taqdim etilganligi aniqlandi. Ushbu jarayon auditning qaysi shakli orqali	moliyaviy hisobot auditi	operatsion audit	mos keluvchanlik auditi	ichki audit

	aniqlanadi?				
35.	Qonunga muvofiq auditorlik tashkiloti kapitalining qancha qismi bir yoki bir necha auditorlarga tegishli bo'lishi lozim?	51 % dan ko'p qismi	25 % dan ko'p qismi	50 % dan ko'p qismi	67 % dan ko'p qismi
36.	Auditorlik faoliyatini litsenziyalash qaysi tashkilot orqali amalgalash oshiriladi?	Moliya Vazirligi	Iqtisodiyot vazirligi.	Auditorlar palatasi	O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi
37.	Auditor qanday hollarda jiddiylikni ko'rib chiqish lozim.	xatolar ta'sirini aniqlashda	auditorlik amallarining xususiyatlari ni aniqlashda	auditorlik vaqtini va chuqurligini aniqlashda	barcha javoblar to'g'ri
38.	Qabul qilingan tegishli miqdoriy mezonga nisbatan foiz hisobida aniqlanadi.	*nisbiy miqdor	o'zgarmas miqdor	absolyut miqdor	taxminiy miqdor
39.	Risklar maqbul to'plamining eng yuqori chegarasi - 5%, IR-90%, CR-80%, ishonchlilik darajasi-...	93,1%	82,1%	73,6%	80%
40.	Risklar maqbul to'plamining eng yuqori chegarasi - 5%, IR-70%, CR-40%, aniqlanmaslik riski-...	17,9%	6,9%	13,4%	9,6%
41.	Rahbariyat va xodimlar malakaviy darajalarining pastligi qaysi riskka ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi..	ichki xo'jalik riski	nazorat riski	aniqlanmaslik riski	ishonchlilik riski
42.	Hisobotdagi har bir satr bo'yicha moddiylik alohida satrlar bo'yicha yig'ilishi uchun qaysi	induktsiya usuli	analiz usuli	sintez usuli	deduktsiya usuli

	usuldan foydalaniladi?				
43.	Auditor tomonidan bir tomonlama aniqlanadigan u qo'llayotgan auditning taomillari buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotda haqiqiy, alohida yoki birgalikda muhim xarakterga ega bo'lgan xatolar va buzib ko'rsatishlarni aniqlashga ruxsat bermasligining ehtimolini bildiradigan auditorlik tavakkalchiligi nima deb nomlanadi?	aniqlanmaslik tavakkalchiligi	nazorat tavakkalchiligi	ajratib bo'lmaydigan tavakkalchilik	auditorlik tavakkalchiligi
44.	Auditor auditni rejorashtirish davrida ajratib bo'lmaydigan tavakkalchiligini 70%, ichki nazorat tavakkalchiligini 40%, aniqlanmaslik tavakkalchiligini 12% qilib belgiladi. Shunda auditorlik tavakkalchiligi necha foizga teng bo'ladi?	3,36%	3,16%	3,46%	2,15%
